

1-mavzu. XX asr xalqaro turizmining rivojlanish asoslari

Reja:

1. Zamonaviy turizmning asosiy tarkibiy qismlari.
2. Xalqaro sayyohlik yoʻnalishlarini rivojlantirishda tarixiy-madaniy merosning oʻrni.
3. Ekoturizmning rivojlanishi.
4. Xalqaro turizmni rivojlantirish mexanizmlari.
5. Xalqaro turizmga sertifikatlash, standartlashtirish va litsenziyalash.

Kalit soʻzlar: tarixiy-madaniy meros, turizm xartiyasi, turizm kodeksi, ekoturizm, standartlashtirish va litsenziyalash.

Turizm sohasi jahon iqtisodiyoti rivojida yetakchi oʻrinni egallaydi. Bir qator davlatlarda turizm daromadi asosiy milliy boʻylik hisoblanadi. Tadqiqotchilar fikricha, XXI asrda turizm dunyo iqtisodiyotida shiddatli ravishda rivojlanayotgan sohalarga kiritilmoqda.

Turizm sohasi oʻz faktor va asoslari quyidagi turlarga boʻlinadi: Xalqaro tur (ichki va tashqi), tashkiliy va mustaqil, madaniy, ekologik va yoshga qarab tuzilgan guruhlar koʻrinishida boʻladi. Turistik sayohat bevosita hududdagi tabiat va tarixiy–madaniy yodgorliklar bilan bogʻliq ravishda tashkillashtirilishi bois, sayohatchilar ham oʻziga xos maʼsuliyatni his etishi lozim. Bu yodgorliklar insoniyat tadrijiy jarayonida shakllangan noyob tarixiy durdonalar hisoblanadi. Aynan shu maqsadda Turizm Xartiyasiga yangi qism – Turistlar Kodeksi sharhi ham ilova qilindi. Bu hujjatda bevosita turistlarga turistik ekskursiyalar va sayohat davomida qanday meyoriy talablarga rioya etish qonun-qoidalari koʻrsatib oʻtilgan.

1999-yil oktabr oyida Xalqaro turistik tashkilotlar Bosh Assambleyasida “Turizmning global etika kodeksi” qabul qilindi. Bu kodeksda turistik ayirboshlash, uning iqtisodiy, sotsial va madaniy yutuqlari, shuningdek sayohat davomida xavf soluvchi holatlar bayon

etilgan. Xalqaro normativ hujjatlarning joriy qilinishi turistik bozordagi birdamlikni va ishonchli xalqaro hamkorlikni yoʻlga qoʻyishda ijobiy natijalar beradi. Zamonaviy turizm sohasidagi asosiy maqsadlardan biri yangi iqtisodiy modellarni ishlab chiqish, turli konsepsiyalarni oʻrganish, ekologik holat, yangi texnogen innovatsion uslublar kabi yangiliklarni birlashtirmoqda.

Turizm sistemasi tuzilishi bugungi kunda turli elementlardan tashkil topgan maqsadli funksiyalarni birlashtiradi. Bular sirasiga turistik xizmat va tur, turmahsulot, madaniy, etnografik obektlar va maxsus koʻngilochar dasturlar birlashtiriladi¹.

Jahondagi bir qator muzeyshunos, tarixchi, sanʼatshunos va boshqa mutaxassislarning fikricha muzey – favqulodda ancha murakkab hodisa boʻlib, unga tugal, munozarasiz va hammani qanoatlantiradigan taʼrifni berish qiyin. Shu bilan birga bevosita turizm sohasi rivojida ham muzeylarning oʻrni beqiyos.

Turizm mahalliy aholi hayotiga ijobiy taʼsir etgani kabi, salbiy taʼsir etishi ham mumkin.

Ijobiy aspektlarga:

- ishchi joylarini yaratilishi;
- mahalliy aholi hayoti darajasining oʻsishiga olib keluvchi daromadlarning koʻpayishi;
- urbanizatsiya jarayonining tezlashuvi, shahar xizmatlari, infratuzilma, madaniy tashkilotlarning rivoji;
- ijtimoiy va madaniy jarayonlarning tezlashuvi;
- mahalliy madaniy boyliklarning qayta tugʻilishi, xalq ijodining, anʼanalari, urf-odatlarini, xalq hunarmandchiligining rivoji;
- qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga va mahalliy sanoat tovarlariga talabning ortishi;

¹ Зорин И.В., Квартальнов В.К. Энциклопедия туризма. М.: Новое знание. 1999. – С.90

- madaniy yodgorliklarning qayta tiklanishi va qo‘riqlanishi;
- tabiiy majmualarning kengayishi;
- hududning jalb qiluvchanligi oshishi;
- mahalliy madaniy hayotning jonlanishi kiradi.

Salbiy aspektlar:

- aholi turli guruhlarining qiziqishlarini ommalashuvi va kommersializatsiyalashuvi;
- maxsus ixtisoslikni talab qilmaydigan mehnatning ulushining o‘sishi;
- madaniyatning iqtisodga nisbatan o‘sishi;
- konkret turistik yo‘nalishning o‘ziga xosligini yo‘qotish;
- mahalliy aholi va turistlar o‘rtasidagi mojarolardir.

Turizmning salbiy ta‘siri uning ichki sabab natijasida yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Bunday sharoitlarda mahalliy aholi sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega emas.

Ayrim qiziqishlar mojarosi turistlarga negativ munosabat misoli bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, mahalliy aholi chetdan kelganlarga qat‘iy norozi. Ba‘zi mamlakatlarda turizm industriyasi bilan shug‘ullanuvchi aholining daromadi boshqa soha vakillariningikiga qaraganda yuqori.

Turizm ta‘sirining salbiy aspektlar ham ijobiy aspekt kabi turli darajada namoyon bo‘ladi: milliy, mahalliy yoki individual. Turistik talablarning ta‘minlanishi madaniy, tarixiy boyliklarga ega mamlakatdagi mahalliy aholining iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlariga ziyon yetkazmasligi kerak.

Salbiy aspektlarning ko‘pidan turizm rivojining kompleks loyihalashuvi va bu jarayonda zamonaviy metodlarni qo‘llash yo‘li bilan xalos etilsa bo‘ladi².

Madaniy turizm o‘zida keng ko‘lamli iste‘mol turizm faoliyatini

² В. А. Квартальнов “Туризм”. Москва “Финансы и статистика”. 2006 . С.120-121.

birlashtiradi, shu bilan birga madaniy-tarixiy meros bo'ladimi, zamonaviy san'at turimi yoki kundalik turmush tarzi bo'lmasin turli tavsifli yo'nalishlarni shakllantiradi, hamda biznes-amaliyot orqali ularning hammabopligi bilan madaniyatni targ'ib etadi.

Turizm sohasida madaniy turizm uchta yo'nalish bo'yicha farqlanadi:

1. Sayyohning sayohatdan maqsadi, taassurotlar olishi, yangicha tajriba to'plashi va ma'naviy ehtiyojini qondirish. Bu boshqa sayyohlik shaklidan farqli ravishda madaniy sayyohlikning konseptual farqini shakllantiradi.

2. Sayyohlarning madaniy turizm bilan shug'ullanishidan maqsadini amalda ko'rsatish. Bunda madaniy turizm ko'lami, tuzilishi va talabi namoyon etiladi.

3. Takliflarni tavsiflash - maxsus turizm resurslari, madaniy turizm sohasida sayyohlarning talabini qondirish uchun zarur bo'lgan jarayonni yaratish.

Madaniy turizmni tavsiflashda sanab o'tilgan asosiy tasavvurlarni namoyon etish, zamonaviy madaniy turizm tushunchasini shakllantirishda avvalo, bir qator ma'lum munosabatlarni qo'llagan holda maqsadni aniq shaklda ochib berish lozim.

Madaniy turizm - doimiy yashash manziliga ega bo'lgan shaxslarning joyini o'zgartirishi, e'tiborga molik bo'lgan madaniy yodgorliklarga butunlay yoki qisman qiziqishlari, jumladan, madaniy voqealar, muzey va tarixiy joylar, badiiy-san'at galereyasi, musiqiy, dramatik teatrlar, konsert maydonchalari va mahalliy xalqlarning an'anaviy madaniy tadbirlari, tarixiy merosning aks ettirilishi, zamonaviy badiiy va amaliy san'at namunalari, qadriyatlar, mahalliy aholining kundalik turmush tarzi va madaniyatini o'rganish maqsadida uyushtiriladigan badiiy tadbirlardir.

Bir so'z bilan aytganda, madaniy turizmni madaniyatning ajralmas shakli ekanini ta'kidlash lozim. Uning negizida qo'yidagi maqsadlar yotadi:

- hududiy turizmga xos jozibadorlikni rivojlantirish;
- turizm faoliyatining rolini oshirish;
- turizmga xizmat qiladigan ishlab chiqarish hamda mahsulotlar rang-barangligini ko'rsatish.

Madaniy turizmning bir qator muhim jihatlari mavjud:

- Destinatsiyaning rivojlanishi uchun iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir ko'rsatish.
- Destinatsiyaning imidjini o'rnatish hamda kuchaytirish vositalari xizmatidan foydalanish.
- Madaniy meroslarni asrashni qo'llab-quvvatlash.
- Turli mamlakatlar va hududlarda istiqomat qilayotgan aholi o'rtasida o'zaro munosabatni shakllantirish.
- Madaniyat va turizmni rivojlanishiga ko'maklashish.

Madaniy turizmning ahamiyatlilik darajasi va madaniy meros uning tayanchi bo'is turli davrlarda turicha ta'riflarga sazovor bo'ldi. Xususan, ma'no mohiyati jihatidan italyanacha "General Motors" sifatida baholanishi, "Fransiyaning neft-gaz sanoati"ga tenglashtirilishi, quvonarlisi esa 2012-yilda Ispaniya shohi Xuan Karlos I tomonidan u "sifatni ta'minlash va turizm samaradorligini oshirish uchun jozibador formula" deya e'tirof etildi.

Tarixiy-madaniy meros tushunchasi ilmiy kategoriya sifatida XIX asr o'rtasida shakllandi, mazkur sohadagi xalqaro va milliy huquqni belgilovchi va tavsiyaviy hujjatlarning keng doirada qabul qilinishi bilan u XX asrda keng yoyildi.

TMM (tarixiy-madaniy meros) tushunchasi juda lo'nda tushuncha bo'lib, ham moddiy, ham nomoddiy obektlarning keng doirasini qamrab olishi mumkin. Bunda qandaydir yagona qaror topgan ta'rif mavjud emas. TMM tushunchasining ilmiy adabiyotdagi mavjud ta'rifi uning katta ijtimoiy guruhlar uchun nisbatan qadr-qiyamatga egaligini aks ettiradi. Tarixiy-madaniy merosni ajdodlarning yashash muhitini hosil qilgan va

ko'p yoki oz darajada bizning kunlarimizgacha yetib kelgan moddiy va nomoddiy obektlarning, atributlarning majmui sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. TMM o'tmishdagi kishilar ijodiyotining ham buyuk namunalarini, ham moddiy va nomoddiy madaniyatning tipik ashyolarini, shuningdek, atrofdagi olamni o'z ichiga qamrab oladi. O'z rangbarangligi bilan madaniy-tarixiy meros o'tmishda yashagan ajdodlarimizning hayoti haqidagi yagona xolisona axborot manbai hisoblanadi. TMM ijtimoiy boylkdir, uni jamiyat manfaatlari yo'lida asrash va o'rganish kerak.

Tarixiy-madaniy merosning soni o'ta ko'pdir. Ayni paytda yuridik jihatdan e'tirof etilgan TMMning statistik nazorat qilinadigan sektorining juda cheklanganligi munosabati bilan uning soni va turlari haqidagi to'liq statistik ma'lumotlar mavjud emas. Obektlar soni bo'yicha mavjud statistika faqat TMM obektlarining umumiy sonini ifodalashi mumkin bo'lgan sonlar tartibi haqida tasavvur hosil qilishga imkon beradi³.

Xizmat ko'rsatish sohasining turli korxonalarida tarixiy-madaniy merosni boshqarish amaliyoti bo'yicha o'tkazilgan tahlil TMM korxonaga jiddiy moliyaviy foyda keltirishga qodirligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Tarixiy-madaniy merosning axborot yetkazib beruvchilik xususiyatini bu holatning asosiy sababi sifatida ko'rsatish mumkin, agar uning potensial iste'molchisi u haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmasa, meros ijtimoiy boyluk sifatida mavjud bo'la olmaydi. Yana shuni ta'kidlash zarurki, TMMning axborot yetkazib beruvchilik xususiyati tashkilotning faoliyatigi bog'liq bo'lmagan holda qo'shimcha xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyatini ta'minlaydi. Mahsulot iste'molchilariga yoki ta'lim muassasalari o'quvchilariga sayr-sayohat xizmati ko'rsatishni tashkil qiluvchi, TMMga tegishli sanoat korxonalarini, binolar va inshootlar bunga misol bo'lib xizmat qilishi mumkin.

TMM tushunchasining ko'p aspektlilikligi merosni bir necha mezonlar

³ Гордин В.Э., Сущинская М.Д. Яцкевич И.А. Теоретические и практические подходы к развитию культурного туризма. // Культурный туризм: Конвергенция культуры и туризма на пороге XXI века: Уч. пособие. Глава 5. – СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2001. – С. 144-145.

bo'yicha tasniflash zarurligini taqozo etadi. Amaliyotda tasniflashning asosiy mezonlari sifatida ko'proq quyidagilar ajratiladi: merosning turi (uning jismoniy mohiyati), merosning qadrlilik darajasi. Merosning tur belgisi doirasida ko'pincha tabiiy va madaniy (tarixiy-madaniy) meros ajratiladi; madaniy meros o'z navbatida moddiy va nomoddiy merosga bo'linadi. Tasniflashning shunga o'xshash qoidalari merosning muayyan turi ichida ham qo'llaniladi, masalan, Britaniya qonunchiligiga muvofiq, ko'chmas tarixiy-madaniy meros binolar va tuzilmalarga, arxeologik yodgorliklarga bo'linadi.

Boshqarishning o'ziga xosligi va ekologik omillarni keng qamrab olganligi tufayli mazkur ishda tabiiy merosni boshqarish ko'rib chiqilmaydi. Jahon va guruhlar (jamoalar) darajasidagi TMM ham moddiy, ham nomoddiy ko'rinishda iqtisodiy boshqarish obekti bo'lishi mumkin, bunda jismoniy tashuvchining bo'lishi shart. TMMdan iqtisodiy foydalanish salohiyati uning quyidagi tasnifini tuzishga imkon beradi.

TMM ni turi va qadrliligi bo'yicha tasniflash

Tasniflash belgisi	Meros turlari	Misollar
Meros turi	Tabiiy meros	Insonning ishtirokisiz yaratilgan obektlar, landshaft, tabiiy yodgorliklar, shuningdek, biologik turfa xillik
	Moddiy tarixiy-madaniy meros	Kishilarning o'tmishdagi avlodlari tomonidan yaratilgan, vaqt sinovidan o'tgan va bugungi avlod tomonidan o'z manfaatlari va kelgusi avlodlar manfaatlari nuqtai nazaridan qadrlanadigan va e'zozlanadigan moddiy obektlar
	Jismoniy tashuvchisi bo'lgan nomoddiy tarixiy-madaniy meros	Yo'qotilishi merosning yo'qolishiga olib kelishi mumkin bo'lgan u yoki bu asboblari, ashyolar, artefaktlar yoki madaniy makonlar bilan bog'liq axborot, urf-odatlar, tasavvur shakllari va ifodalar, bilimlar va ko'nikmalar
	Jismoniy tashuvchisi bo'lmagan nomoddiy	Mavjud bo'lishi jismoniy tashuvchi bo'lishini taqozo etmaydigan og'zaki an'ana, folklor va nomoddiy tarixiy-madaniy merosning shunga o'xshash

	tarixiy-madaniy meros	unsurlari
Merosning qadrilik darajasi	Jahon	Merosning qadriligi jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etiladi
	Guruh (jamoaviy)	Insonlar guruhi uchun qadr-qiyamatni ifodalovchi meros
	Yakka	Faqat yakka inson uchun qadri bo'lgan meros

TMM o'zi bilan bog'liq maxsus mahsulotlar va xizmatlarni yaratishga xizmat qiladi, bu korxonalar, tashkilotlar va hamjamiyatlarning iqtisodiy barqarorligini oshiradi, tabaqalashtirilgan raqobat ustunliklarini shakllantiradi. Yevropada mehmonnavozlik korxonalarining alohida turi – “tarix mehmonxonasi” (ingl. Historic hotel), ya'ni boy o'tmishga ega mehmonxona paydo bo'ldi, unda mehmonxona faoliyatida “tarixiylikka”, tarixiy-madaniy merosni asrash va namoyish qilishga alohida urg'u beriladi.

Moddiy (jismoniy) madaniy meros tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. 1972-yilda qabul qilingan YUNESKOning Butunjahon madaniy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiyasi bilan belgilangan ta'rif tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi⁴. Mazkur konvensiyaning 1-moddasida madaniy meros tushunchasi quyidagi uchta toifa bo'yicha tasniflangan:

- yodgorliklar: me'moriy inshootlar, mahobatli haykaltaroshlik yoki rangtasvir ishlari, arxeologiyaga oid elementlar yoki tuzilmalar, qoyatoshlardagi rasmlar, g'orlardagi makonlar, shuningdek, bu qirralarni o'zida mujassamlashtiruvchi va tarix, san'at yoki ilm-fan nuqtai nazaridan olamshumul yaxlit qadriyatlarni ifodalovchi obektlar;
- binolar (inshootlar) guruhi: o'z me'moriy yechimi, landshaftiga ko'ra tarix, san'at yoki ilm-fan nuqtai nazaridan olamshumul

⁴ The impact of culture on tourism/ OECD. – 2009. – P. 36. – [www.em.gov.lv/images. OECD_Tourism_Culture.pdf](http://www.em.gov.lv/images/OECD_Tourism_Culture.pdf)

yaxlit qadriyatlarni ifodalovchi alohida turgan yoki o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq binolar guruhi;

- obektlar: inson tomonidan yaratilgan yoki tabiat va insonning birgalikdagi ijodi mahsuli bo‘lgan obektlar, tarixiy, me‘moriy, etnologik yoki antropologik nuqtai nazardan shubhasiz qadriyat hisoblanuvchi arxeologik obektlarni o‘zga qamrab oluvchi hududlar.

Bu ta’rif merosning ichki tarkibini aniqlashtirish uchun hamda huquqiy va mulkiy munosabatlar bilan bog‘liq utilitar maqsadlar uchun juda yaxshi “xizmat qiladi”, ammo zamonaviy dunyodagi uning roli va o‘rnini aks ettirmaydi.

Muallifning fikricha, moddiy madaniy meros (ma’naviy meros kabi) o‘zida, avvalo, sinergetik qonunlarga bo‘ysunuvchi, muhit va zamon bilan faol hamjihatlik qiluvchi, zamon va makonda o‘zgarib turadigan muayyan axborotni tashuvchi murakkab ijtimoiy-madaniy tizimni ifodalaydi. Meros, bir tomondan, madaniyatning ta’riflaridan va ko‘rib chiqish usullaridan, ikkinchi tomondan, uning o‘ziga xos “xotirasi” hisoblanadi. Insoniyat madaniyatida axborotni “ishlab chiqarish”, jamlash va uzatishni ta’minlaydigan axborot kodlari asosida aynan meros yotadi. Shu tariqa, madaniyat, meros va axborot o‘rtasida o‘zaro aloqalar tizimi hosil bo‘ladi, uning amal qilishi bashariyatning yangi avlodlari uchun madaniyat yutuqlarini ishlab chiqarishga va takomillashtirishga imkon beradi.

M.E.Kuleshova ham merosni tashkil qiluvchi axborotga to‘xtalgan: “merosni holatlarda, voqealarda, moddiy obektlarda muhrlangan hamda insoniyatga o‘z rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan, shuningdek, kelgusi avlodlarga yetkazish uchun asraladigan axborot salohiyati sifatida ko‘rib chiqish mumkin”. Meros tushunchasini ta’riflashdagi axborot-vaqt jihatini D.S.Lixachyov ham o‘zining Madaniyat huquqlari deklaratsiyasi loyihasida ta’kidlagan edi⁵. U bu tushuncha ostida insoniyatning jamlangan

⁵ Лэндри Ч., Грин Л., Матарассо Ф., Бьянчини Ф. Возрождение городов через культуру. – СПб.: Нотабене, 1999.

ma'naviy tajribasini mustahkamlash va uzatish shaklini tushunadi. U bunda ikki tarkibiy qismni aniq ajratib ko'rsatadi: ma'naviy (til, orzu-umidlar, an'analar) va moddiy (muzey, arxiv, kutubxona fondlari, arxeologiya, arxitektura, fan va san'at yodgorliklari, xotira belgilari, inshootlar, ansambllar, diqqatga sazovor joylar va tarixiy o'tmishning boshqa shohidliklari, noyob landshaftlar inson va tabiatning birgalikdagi mahsullari, tarix, san'at yoki fan nuqtai nazaridan alohida qiymatni ifodalovchi zamonaviy inshootlar).

Madaniyat ko'pincha jamiyatning barqaror rivojlanishi asoslaridan biri sifatida ko'rib chiqilayotganligi sababli madaniy merosga ham bunday yondashuv butunlay mantiqqa egadir. Shundan kelib chiqqan holda, mintaqaviy, federal va xalqaro madaniy siyosatning vektorlaridan biri sifatida uning roli tobora o'sib bormoqda.

Bizning mamlakatimizda juda ko'p hollarda moddiy madaniy meros tushunchasi amalda "yodgorlik" terminiga sinonim sifatida qabul qilingan. Hozirgi vaqtda esa yodgorlik asosan meros obektining sinonimi sifatida qo'llaniladi.

Shu bilan birga T.M.Mironova mutlaqo adolatli ravishda ta'kidlaganidek, "yodgorlik", avvalo, xotirani, esdaliklarni saqlashga yo'naltiriladi; u faol xo'jalik faoliyatidan istisno qilingan; meros ajdodlarimiz bizga qoldirgan narsadir, ammo uni shunchaki asrashga emas, balki talqin qilish va ko'paytirish uchun qoldirishgan⁶. Binobarin, aniq va o'zgarmaydigan tushuncha hisoblanuvchi yodgorlikdan farqli o'laroq, meros obekti yaxlit va rivojlanayotgan meros tizimining qismi hisoblanadi.

Rossiya madaniy va tabiiy meros ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassislari ham turli tomonga yo'nalgan ikki vaqt vektori bo'lgan merosning ikkilanma mohiyati haqidagi nuqtai nazarga qo'shiladilar, ular uchun "madaniy va tabiiy meros – Rossiya xalqlarining o'tmishdagi hayoti

⁶ Richards G. Cultural tourists or a culture of tourism? The European cultural tourism market// Innovations in Cultural Tourism: Proceedings of the 5th ATLAS International Conference, Rethymnon, Crete, 1998. – 2001.

haqidagi xotiradir, jamiyatdagi zamonaviy madaniy jarayonning asosidir, busiz uning rivojlanishi mumkin emas”.

Bundan tashqari ham global, ham milliy, ham mintaqaviy darajalarda meros menejmenti va madaniyat resurslari menejmenti nazariyotchilari va amaliyotchilarining professional doiralarida (masalan, Rossiya Federatsiyasida) YUNESKO va u bilan bog‘liq global darajadagi boshqa tashkilotlar mutaxassislarining amaliy ishida ishlab chiqilgan ta‘riflar va tushunchalar keng qo‘llanilmoqda. Butunjahon banki buyurtmasi bo‘yicha bajarilgan “Barqaror rivojlanishdagi madaniyat” tadqiqotida madaniyat va madaniy meros bilan bog‘liq ko‘p tushunchalarga aniqlik kiritilgan va u quyidagilardan iboratdir”.

Madaniyat: jamiyatni yoki ijtimoiy guruhni tavsiflovchi muayyan ma‘naviy, moddiy, intellektual va emotsional qirralarning majmui. Ular nafaqat san‘at va yozuvni, balki yashash usullarini, inson turmushining fundamental huquqlarini, qadriyatlar tizimlarini, an‘analar va e‘tiqodlarni o‘z ichiga oladi.

Madaniy meros: u odamlar asraydigan, ko‘paytiradigan, o‘rganadigan va keyingi avlodga beradigan o‘tmish jihatlaridan iboratdir. Bu yutuqlar binolar ko‘rinishidagi moddiy shakllarda, ijrochilik san‘atining turli xillari kabi nomoddiy shakllarda ifodalanadi. Madaniy meros – bu o‘tmishda qadriyatga aylangan va kelajakda ham qadriyat bo‘lishi kutilayotgan ashyodir.

Madaniy boylik: arxeologik, tarixiy, diniy, estetik yoki boshqa madaniy qiymatga ega bo‘lgan joylar, tuzilmalar, obektlar va tabiiy landshaftlar.

Madaniy landshaftlar: madaniy qiymatga ega bo‘lgan tabiat landshaftlari, ongli ravishda barpo etilgan hududlar kabi (bog‘lar, qo‘rg‘onlar, dala bog‘lari); ma‘lum faoliyat turiga yoki odamlarning mashg‘ulotiga jalb qilingan landshaftlar va shuning natijasida shakllangan hududlar (qishloq tarixiy okruglari yoki qishloq xo‘jaligi landshaftlari);

tarixiy voqea yoki shaxsning faoliyati bilan bogʻliqligi tufayli qiymatga ega boʻlgan hududlar (jang joylari yoki buyuk shaxslarning uylari).

Madaniy ahamiyatga moliklik: obekt yoki joyning qiymatini baholash uchun ishlatiladi. U estetik, tarixiy, ilmiy, ijtimoiy yoki iqtisodiy qiymatni oʻz ichiga oladi.

Madaniy erkinlik: odamlar guruhining oʻz turmush usulini tanlash va unga amal qilish, oʻz ona tilida gaplashish, oʻz diniga eʼtiqod qilish va madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda oʻz tanloviga koʻra ishtirok etish huquqiga tegishlidir.

Barqaror taraqqiyot: boʻlgʻusi avlodlarning oʻz ehtiyojlarini qondirish imkoniyatidan mahrum qilmasdan bugungi kun ehtiyojlarini qondiruvchi rivojlanish.

Asrash: obektning madaniy ahamiyatga molikligini asrash uchun obektning yoki uning qismlarini himoya qilishga qaratilgan barcha jihatlar. U foydalanishni ham oʻz ichiga oladi va madaniy artefaktning ahamiyatga molikligiga yoki tegishli holatlarga bogʻliq boʻladi, u konservatsiya, taʼmirlash, rekonstruksiyalash, moslashtirishni oʻz ichiga oladi.

Konservatsiya: joy strukturasi mavjud holatda saqlab turish va uning holati yanada yomonlashuvini sekinlashtirish. Bu usul saqlashning boshqa yoʻllarini qoʻllab boʻlmaganda yoki obekt alohida madaniy qiymatga ega boʻlmaganda qoʻllaniladi.

Taʼmirlash: obektning mavjud strukturasi u ilgari mavjud boʻlgan asl holatga qaytarish, bunda keyin qoʻshilgan qoʻshimchalar bartaraf etiladi, yangi zamonaviy materiallar qoʻllanilmaydi. Bu yondashuvni faqat quyidagi holatlarda qoʻllash mumkin: obektning ilgari asl qiyofasi haqida yetarlicha maʼlumot boʻlganida va uni asl holatga qaytarish obektning ahamiyatini yanada oshirganda hamda obekt ichki tuzilmasining qismlariga zarar yetkazmaganda.

Rekonstruksiya: obektning imkon qadar ilgari maʼlum boʻlgan holatga qaytarish. Struktura ichida eski yoki yangi materiallarni qoʻllash uning

farqli jihati hisoblanadi. Rekonstruksiya shikastlanish yoki ko‘chish natijasida obekt to‘liq yaroqsiz holatda bo‘lgan va kelajakda busiz mavjud bo‘lolmaydigan joydagina qo‘llanilishi mumkin. Rekonstruksiya obektning yo‘q qismlarini yakunlash bilan cheklanadi va uning strukturasi asosiga ta’sir qilmasligi kerak.

Moslashtirish: obektdan yanada kengroq foydalanish uchun modifikatsiyalash. U obektning madaniy ahamiyatga molikligini kamaytirmaydigan va obektning iqtisodiy ahamiyatga molikligini oshiradigan holatlarda qo‘llaniladi.

Qo‘llab-quvvatlash: uzoq muddatli qo‘riqlash choralari majmui. U ta’mirlash yoki rekonstruksiyani nazarda tutuvchi remondan farq qilishi kerak.

Bundan tashqari mazkur ro‘yxatga “iqtisodiy rivojlanish”, “inson taraqqiyoti”, “ijtimoiy omillarning yetakchiligi” kabi defnitsiyalar kiritilgan. V.A.Kvartalnov tomonidan namoyish qilingan meros tarkibi ta’rifiga yondashuv qiziqarlidir:

“Madaniy, tarixiy va tabiiy merosni quyidagi toifalarga bo‘lish qabul qilingan:

- asosan turistlar tomonidan foydalaniladigan boylik (festivallar, tomoshalar, yodgorliklar va h.);
- aralash foydalaniladigan boylik (ahamiyati kam tarixiy yodgorliklar va muzeylar, teatrlar, qo‘riqxonalar va h.);
- asosan mahalliy aholi foydalanadigan boylik (fuqaroviy inshootlar, sig‘inish inshootlari, kinoteatrlar, kutubxonalar va boshqalar)”.

Bu holatda meros obektlari o‘zining tarkibi emas, balki turistik oqimning turli toifalari orqali ularni tasniflash usuli, hamjamiyat hayotiga qo‘shilganlikning turli darajalari orqali qiziqish uyg‘otadi. Ammo bu toifalarning har birini ahamiyatlilik darajasi bo‘yicha aniq ajratish amalda ko‘pincha qiyin bo‘ladi.

Shunday qilib, taklif qilingan yondashuvlar asosida moddiy madaniy

meros bilan bog‘liq terminolgik doiraning quyidagi tasnifini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- birinchi guruh – merosga jamiyatdagi huquqiy va mulkiy munosabatlar nuqtai nazaridan qarashni namoyish qiluvchi “maishiy-amaliy”, “ichki” yondashuv⁷. Ta’riflarning bu guruhi uchun merosning ichki tarkibini batafsil tadqiq qilish xosdir, ammo bunda uning ijtimoiy-iqtisodiy hayot omili, siyosat obekti, barcha tashqi o‘zaro aloqalarning tizimi sifatidagi rolining tavsifi mavjud bo‘lmaydi;

- ikkinchi guruh – “axborot” yoki “sinergetik” yondashuv. Terminologiyaga bunday yondashuv yuqorida ta’kidlab o‘tilgan madaniyat, meros va axborot o‘rtasidagi o‘zaro aloqa hamda merosga axborot-madaniyat fenomeni sifatida yondashuv bilan bog‘liq;

- uchinchi guruh – “iqtisodiy” yondashuv. Bu yerda tushunchalar apparati merosdan iqtisodiy rivojlanish, turizm va h. uchun resurs sifatida foydalanish muammolari va istiqbollari bilan aniq bog‘langandir;

- to‘rtinchi guruh – “ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar” yondashuv. Muayyan qirralarning avvalgi guruh bilan o‘xshashligiga qaramasdan ta’kidlash zarurki, bu o‘rinda yondashuv keng tusedir va merosni umuman jamiyat uchun rivojlanish resursi sifatida ko‘rib chiqish bilan bog‘liqdir, bunga nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va gumanitar jihatlarning keng doirasi, jumladan, ta’lim, qashshoqlikka qarshi kurashish, hayot sifati, barqaror taraqqiyot va h. kiradi.

Zamonaviy jamiyatda merosning rolining o‘zgarishi bilan bog‘liq bugungi jarayonlarni ko‘rib chiqishda, uni o‘rganish, tadqiq qilish va undan foydalanishda aynan keyingi yondashuv bizga eng samarali bo‘lib ko‘rinadi. Meros konsepsiyalarini ko‘rib chiqishga o‘ta turib, shuni aytish kerakki, ko‘p davrlarni boshdan kechirgan yodgorliklar va o‘tmishning boshqa reliktlarini qo‘riqlash haqida shunchaki g‘amxo‘rlik qilish ularning

⁷ Linty P. European cultural tourism network . - <http://www.culturaltourism.net/cardiff> 2005ECTNPPaolo2.pdf

ilk asosi bo'lgan edi.

T.P.Mironova adolatli ravishda ta'kidlaganidek, "...madaniy va tabiiy merosni asrash jarayoniga yondashuvlar, avvalo, u yoki bu tarixiy davrda mazkur tushunchaga nimalar yuklatilishiga bog'liq". Shu munosabat bilan dastavval ko'chmas yodgorliklarga qiziqish eski substansiyaning yo'qolishini keltirib chiqargan "o'tmishni sog'inish", an'analarni saqlab qolishga intilish yoki noodatiy, noyob ashyolarga qiziqish ko'rinishida namoyon bo'ldi. Yaqin vaqtlargacha mazkur jamiyatning buyuk madaniy yutuqlari "yodgorlik" sifatida belgilandi. Binobarin, ilgari yaratilgan predmetlarda aks etgan xotirani saqlash bunday yondashuvning mazmuniy asosi bo'ldi, ashyo qanchalik eski bo'lsa, u o'zini kashf etgan avlodlar ko'z o'ngida shunchalik katta qiymatga ega bo'ldi. Ammo madaniyat faktlariga bunday yondashuv shunga olib keldiki, "obekt" ilgari o'zi uchun o'ylangan o'z muhitidan, o'zi aks ettirgan zamondan ajralib chiqdi. Atrofdagi olam bilan makoniy-zamoniy aloqani yo'qota borib, "yodgorlik" "mazmunsiz shaklga" aylandi. U yoki bu ashyoga yuklatilgan mohiyatni soxtalashtirish, uning ijtimoiy hayotdagi roli va o'rnini bir tomonlama baholash ko'p hollarda "yodgorlik"ning jamiyat tomonidan esdan chiqarilishiga, ba'zan esa halokatiga olib keldi".

Shu o'rinda ta'kidlash juda muhimki, pirovard mahsulot bo'lmish meros o'ziga xos mazmunga ega bo'ladi, bu saqlanadigan moddiy madaniy resurslar va artefaktlar emas, bu biz talqindan keyin olgan narsadir. Iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan qandaydir milliy mahsulot sifatida meros mahsuloti mavjud bo'lmaydi, ammo mahalliy darajada meros mahsulotlarining aniqlanmagan rangbarangligi va yig'indisi bor, ularning har biri muayyan "iste'molchilar guruhlarining", ular sinflar, mahalliy jamoalar yoki siyosiy guruhlar bo'lishi mumkin, ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan. Bundan tashqari, ta'kidlab o'tilganidek, bu ikki tomonlama tizimdir. Bu jarayonga iste'molchining nigohi bilan nazar tashlab, ta'kidlash zarurki, har bir alohida inson merosdan foydalanish

lahzasida alohida olingan har bir meros tarkibiga albatta ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur nazariyada meros iste'molchisiga ham muhim o'rin ajratiladi. Aniqlaganimizdek, meros mantiqan olganda merosning iste'molchisiz mavjud bo'la olmaydi, endi quyidagi muammo paydo bo'ladi: "meros kimga tegishli?" degan savol merosning o'zi nimaligini belgilamaydimi? Agar u iste'molchining o'zi tomonidan belgilanadigan bo'lsa, bunda boshqa ayon muammo paydo bo'ladi, bu talqin qilingan meros mahsuloti va tarixiy haqiqat o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasi sifatida paydo bo'luvchi ishonchlilik muammosidir. Uni hal qilish uchun mahsulotni va taxmin qilinayotgan tarixiy reallikni qiyoslash zarur. Ammo natijada biz baribir turli iste'molchilar tomonidan belgilanadigan ishonchlilikning turli versiyalaridagi nomuvofiqlikni olishimiz mumkin. Agar meros iste'molchi tomonidan belgilanadigan bo'lsa, uning ishonchliligini ham u belgilaydi: iste'molchi uning manbaiga, resursiga ishonch hosil qiladi. "Ishlab chiqaruvchi" uchun muayyan murakkabliklar ham, ularni yechish imkoniyatlari ham ana shundan iborat.

G.Eshvort modelni qo'llashning ikki usulini ko'radi. Birinchidan, meros mahsulotining mohiyati resurslarning mavjud bo'lishi bilan emas, balki barcha modellarda bo'lgani kabi bozor yordamida ilgari suriladigan iste'molchining talablari bilan belgilanadi. Shunga qaramasdan mumkin bo'lgan mahsulotlar assortimentini cheklanmagan yoki noaniq moslashuvchan deb aytish mumkin emas, u juda kengdir, pirovard mahsulotning mohiyati faqat muqarrar ravishda o'tmish voqealarini aniq faktologik qayd qilishdan iborat emas. O'tmishning butunlay aniqlangan kesimi bilan qandaydir "uzil-kesil" bog'langan geografik nuqta, joy mavjud emas⁸. Bundan tashqari "meros" mahsuloti olish jarayonining har bir bosqichida maqsadga yo'naltirilgan tanlov zarurati taqozo etiladi. O'tmishdayoq qaysi moddiy yoki ma'naviy resurslarning jisman yoki

⁸IPK international: Preliminary World travel monitor results: Global travel trends, 2005. – <http://www.hospitalitynet.org/file/152002499.pdf> 23

insonlar xotirasida yashab qolishi belgilangan edi, ammo ularning keyingi taqdiri, ularning umuman bo‘lish-bo‘lmasligi, bugunda va kelajakda ulardan qanday foydalanilishi hayot maromining kechishiga bog‘liq. Shunday qilib, mahsulotning “to‘ldirilishi” tasodifiy emas, u ishga solingan resurslar tabiati va mahsulotni talqin qiluvchilar tomonidan belgilanadi. Mohiyatan, bu marketing nuqtai nazaridan, to‘la rejalashtiriladigan tizimdir.

Ammo meros nafaqat mahalliy darajadagi siyosat uchun muhimdir. Ko‘pincha mahalliy hokimiyat idoralarining harakatlari fundamental tadqiqotlar va yondashuvlar bilan mustahkamlanmaydi, yodgorliklarni shunchaki qo‘riqlash doirasidan, va hatto, aniq-ravshan zarur bo‘lgan holda ham aniq hududiy tuzilma chegarasidan tashqariga chiqmaydi. Bunday vaziyatda meros obektlarini barpo etish, qo‘riqlash va ulardan foydalanish bo‘yicha mahalliy yondashuvlarga milliy yoki milliydan yuqori turuvchi tegishli manfaatdor tashkilotlarning aralashuvi zarurligi ancha ortadi. Meros sohasidagi samarali mahalliy siyosat, mahalliy rejalashtirish meros obektlarining jozibadorligini yanada oshirishi yoki rangbarang real iqtisodiy faollikdan meros obektlari uchun qo‘shimcha ustunliklar olinishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ishlab chiqarishning postsanoat tizimi hozirdayoq instrumentlar sifatida tarixiylikni qo‘shgan holda mahalliy ustunliklardan samarali foydalanmoqda. Ular nafaqat ishlab chiqarish tizimidagi muhim resurslar, balki o‘z tabiatiga ko‘ra barcha joyda amalda mavjud bo‘ladigan va mahalliy menejment uchun qulay resurslar hisoblanadi.

Maqsadlar muammosi merosni “tovarga aylantirish” nazariyasida yana bir muhim o‘rinni egallaydi, ularga mazkur meros mahsuloti yordamida erishiladi. Ilgaridan rejalashtirilgan meros mahsuloti ko‘plab iste’molchilarga ega bo‘lishi mumkin, uning maqsadlarining aksariyati maqsadlarning ikki guruhi yordamida qat’iy tavsiflanishi mumkin.

Birinchisi — bu siyosiy maqsadlar va vazifalar guruhidir, ularga parallel ravishda, ammo ko‘pincha boshqa maqsadlar guruhi – iqtisodiy maqsadlarga erishish bo‘yicha kuch-g‘ayratlar bilan birgalikda erishiladi. Shunday qilib, turli bozorlar uchun merosning ikki turli mahsulotini olishda ayni bir xil moddiy tarixiy resurslar qo‘llanilishi mumkin.

Maqsadlarning iqtisodiy guruhini siyosiy guruhga nisbatan tushunish, tavsiflash va o‘lchash osondir, bunda hech qanday ziddiyat yo‘qligi tufayli tarixiy-madaniy resurslar Yevropaning anchagina mintaqalari va shaharlarini iqtisodiy rivojlantirish siyosatini shakllantirishda instrument sifatida o‘ta faol ishlatilmoqda. “Saqlangan, ta’mirlangan yoki rekreatsiyaga kiritilgan voqealar, shaxslar, uyushmalar, butun qolgan obektlar yoki tuzilmalar turizm sanoatining mavjud bo‘lishini qo‘llab-quvvatlovchi resurslar sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu sanoat ham ijtimoiy, ham xususiy sektorlardagi faollikning rangbarang kolleksiyasini ifodalaydi, u bu resurslardan olinadigan va zamondosh iste’molchilar uchun mo‘ljallangan meros sohasidagi mahsulotlar bozorini shakllantiradi”⁹.

Moddiy madaniy resurslar bo‘lgan meros, masalan, arxeologik va tarixiy hududlar va obektlar o‘z atrofida shakllangan tarixiy nuqtai nazardan qimmatli va sog‘inch muhiti tufayli jamoatchilikning tan olishiga sazovor bo‘ldi, u muayyan guruh, milliy yoki milliydan yuqori aynanliklar va siyosiy mafkuralar bilan tasdiqlandi. Meros jamoatchilik e’tiborini o‘ziga tortadi, chunki “har bir mahalliy jamoat yoki hudud uchun joy tuyg‘usini, farqlanish tuyg‘usini, noyoblikni yaratadi”. Ammo meros obektlari ham tadqiqotlar natijalari, yaqqol ifodalangan tajriba va ko‘ngilochish shakllari yordamida ta’limga hissa qo‘shadilar, bu odatdagidan farq qiladi va ko‘pgina turistlarning e’tirofini qozonadi.

Afsuski, K.Xoltorf adolatli ravishda ta’kidlaganidek, “kasblari yoki hayotining maqsadi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, ko‘pchilik individuumlar faqat bir yoki ikki avlodning yaqin o‘tmishiga, masalan,

⁹ The impact of culture on tourism./ OECD, 2009. – P. 26. - www.em.gov.lv/images.../OECD_Tourism_Culture.pdf

o'g'illar va qizlar o'z ota-onalarining yoki muayyan avlod a'zolari o'tmishiga e'tibor qaratadilar".

Shu bilan birga, bu holatga qaramasdan, "o'tmish haqidagi xotira, meros – insonning ijtimoiylashuvining juda muhim qismidir, bu uning aynanligining shakllanishiga hal qiluvchi hissa qo'shadi". Bu fikrni kanadalik tadqiqotchi ayol K.Kameron yaxshi ifodalab, milliy moddiy madaniy meros haqida shunday degandi: "Kanadaning tarixiy joylari millat ruhini ifodalaydi. Ular bizni kanadaliklar sifatida birgalikda bog'lab turuvchi to'qima hisoblanishadi. Bizning tarixiy joylar bilan o'zaro munosabatlarimiz bizga kimligimizni aniqlashga yordam beradi.

Jamoaviy aynanlik juda ko'p hollarda uzoq o'tmish merosiga tayanadi. Ko'p tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, meros obektlari va o'tmish haqidagi boshqa eslatmalar mahalliy, mintaqaviy, milliy, milliydan yuqori yoki hatto global darajada guruhlarining madaniy aynanligini yaratadi, qo'llab-quvvatlaydi va yaxshilaydi.

O'ziga xos "mo'ljal", "vaqt belgisi" sifatida merosning moddiy obektlari nafaqat bugungi kunning olis o'tmish bilan, balki olis kelajak bilan ham aniq va mustahkam aloqa yo'lini yaratadi.

Meros obektlariga tashrif buyuruvchilardan kimdir o'zlari mansub bo'lgan jamoatning merosi va kelib chiqishi haqidagi, o'z ildizlari haqidagi eslatma, o'z avlodi va jamoatining makon va zamonda ajdodlar bilan aloqasini ta'minlovchi o'ziga xos ramz sifatida tosh bo'laklarini, bir hovuch tuproqni olib ketadi.

Tarixiy-madaniy va arxeologik obektlar hamda majmualar nafaqat turli jamiyatlarda tarixiy madaniyatning qismini va tarixiy xotirani shakllantiradi, balki milliy g'ururni tarbiyalaydi. Shu munosabat bilan taniqli nemis jamoat arbobi Robert Belts shunday deb yozgan edi: "Ular (meros obektlari – mual.) mamlakatimizning xazinasini hisoblanadi va biz bu bilan g'ururlanishimiz kerak. Buning ustiga olis o'tmishning sokin va mahv etuvchi tili bizlar bilan hukmronona gaplashadi".

G.Eshvort ta'kidlaganidek, “meros va u joylashgan joy o'rtasida o'zaro aloqaning mavjudlik holati nafaqat aniq yoki isbot talab qilmaydigan holati bo'lishi mumkin. Meros ham joyning o'ziga xos tavsifini bildiruvchi bosh determinantlardan biridir.”¹⁰.

Bugungi kunda Yevropada madaniyat sohasida 170 tadan ortiq tarmoqlar faoliyat ko'rsatmoqda va ularning soni o'sishda davom etmoqda. “Madaniy meros bo'yicha tarmoqlar” deb ataluvchi tarmoqlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin, ularning soni bugunda 25 tadan ortiqdir. Ushbu toifaga “madaniy meros tarmog'i”, “milliy meros bo'yicha tarmoq”, “madaniy va tabiiy meros bo'yicha tarmoq” va “meros bo'yicha tarmoq”ni (yoki “milliy madaniy va tabiiy meros bo'yicha tarmoq”) kiritish mumkin. Yevropa tarmoqlari forumining ustavida¹¹ (1999-yil) ularning o'ziga xosligi va vazifasi quyidagicha belgilangan: tarmoqni rassomlar, vositachilar va omma o'rtasida kommunikatsiyaning barcha usullari va vositalaridan foydalanuvchi va mustaqil tashkilotlarning yig'ini sifatida belgilash mumkin.

Tarmoqni o'zaro almashinish, namoyish qilinayotgan katta imkoniyatlar va dunyoqarash kengligi nuqtai nazaridan ham aniqlashtirish mumkin. Forum doirasida ularning faoliyatining quyidagi asosiy tamoyillari ifodalandi:

- har bir tarmoqqa boshqa tarmoqlarni, o'zlarining vakillarini va ularning ish usullarini ochish imkoniyatini berish;
- tarmoqlarning yo'nalishiga, maqsadlari va faoliyatining mazmuniga tegishli axborotni almashinishga yordam berish;
- Yevropada madaniy rivojlanish bilan bog'liq amaliy muammolarni va falsafiy masalalarni aks ettirish;
- bu sohada birgalikdagi nazorat loyihalarini amalga oshirish.

¹⁰ Малявин В. Постмузейная эпоха // Русский Журнал www.russ.ru/columns/poison/20040812.html

¹¹Князева Н.Р. Информационное общество и сфера культуры //Экология культуры Информационный бюллетень. № 1 (21). Архангельск, 2001. С.173.

Bundan tashqari, tarmoqlar doirasida boshqa qo‘shimcha vazifalarni ham amalga oshirish mumkin: “bugungi kunda madaniy meros haqidagi axborot turli shakllarda, turli tashuvchilarda, jumladan qog‘ozda ifodalangan. Bebaho madaniy axborotni o‘zida mujassamlashtirgan katta hajmdagi rangbarang matnli hujjatlar, ma‘lumotlar bazalari, foto, kino, video, audioyozuvlardan, qoida tariqasida, tadqiqotchilar ham, keng omma ham bebahra qolmoqda. Zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari bu muammoni hal qilishga imkoniyat beradi. Internet tarmog‘ining va u bilan bog‘liq telekommunikatsiya va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli ko‘p qirrali madaniy axborotni yaratish, to‘plash, qayta ishlash va tarqatish bo‘yicha noyob imkoniyatlar vujudga keldi. Madaniy axborotning haddan tashqari katta multimedia saqlovxonalarini katta o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lgan aloqaning o‘ta tezkor vositalari yordamida birlashmoqda. Bunday saqlovxonalarining foydalanuvchilari qulay ko‘ptilli interfeys, yaxshi o‘ylangan navigatsiya va boshqarish vositalari bilan ta‘minlanadilar. Bir vaqtning o‘zida madaniy meros haqidagi axborotni tavsiflash andozalari (standartlari) va taqdim etish muammolari hal qilinadi. Standartlar standartlashtirish bo‘yicha turli xalqaro tashkilotlar, milliy institutlar, madaniy va ilmiy tashkilotlar o‘rtasida rasmiy kelishuvlar yo‘li bilan ishlab chiqiladi.

2002-yildan beri amalga oshirilayotgan Yevropa Hamjamiyati Komissiyasining “Axborot texnologiyalari jamiyati” — IST (Information Society Technologies) (2002 - 2006) 6-oraliq dasturi Yevropa darajasidagi ko‘plab tarmoq loyihalari uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda. U axborot jamiyatidan bilimga asoslangan jamiyatga o‘tishga qaratilgandir, unda bilimlarni ishlab chiqarish, bilimlarni egallash, tarqatish va amalda qo‘llash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning bosh harakatlantiruvchi kuchiga aylantiradi.

Dasturda “...axborot jamiyati texnologiyalari, madaniyat, fan va ta‘lim muassasalarining tarmoqdagi hamjihatligi, elektron axborot resurslarining

barpo etilishi va uyg'unlashuvi hamda ulardan ochiq bahramand bo'lishning ta'minlanishi bosh rollardan birini o'ynaydi. Dasturning yangi ustuvorliklariga muvofiq madaniy merosni saqlash va uning rolini kuchaytirish bo'limi paydo bo'ldi (Preservation and Enhancement of Cultural Heritage).

Tadqiqotlarning natijalaridan global foydalanishni va o'zaro bog'liq texnologik yechimlarni ta'minlash uchun Yevropa mamlakatlari va unga kirmaydigan mamlakatlar tadqiqotchilik jamoalari o'rtasidagi hamkorlik IST dasturi bilan bog'liq ko'pgina sohalarda o'ta muhim hisoblanadi. Bu Yevropa sanoatning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi va xavfsizlik, mustaqillik va raqamli notenglik kabi jiddiy ahamiyatga molik global masalalar bo'yicha murosaga erishish vositasi hisoblanadi". 2002-yildagi loyihalar tanloviga "Texnologik kuchaytirilgan ta'lim va madaniy merosdan bahramandlik" bo'limi kirdi, uning tayyorlanishi uchun madaniy merosni saqlash va uning rolini kuchaytirish bo'limi javob beradi. Uning bosh maqsadi quyidagidan iborat bo'lgandi: "Yevropa bilimlari bazasiga ta'lim uchun resurslarga (madaniy va ilmiy meros) kirib borishni yaxshilovchi hamda ta'lim va madaniyat sohasida faoliyatning yangi shakllarini paydo qiluvchi rivojlangan tizimlar va xizmatlarni ishlab chiqish"¹².

Yevropa meros tarmog'i yana bir boshqa istiqbolli loyiha hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi bu loyihaning rasmiy ta'sischisi hisoblanadi, 1949-yilda Strasburgda tashkil topgan vaqtidan beri Yevropaning barcha umumiy qadriyatlari asosida demokratik Yevropani birlashtiruvchi iplarni mustahkamlash uchun katta kuch-g'ayrat sarfladi. Oltmishinchi yillardan boshlab meros sohasida sarflanayotgan birgalikdagi kuch-g'ayratlar ayniqsa ilg'or sur'atlarda rivojlandi, katta miqdorda qabul qilingan va imzolangan hujjatlar natijalarning isboti bo'ldi: konvensiyalar,

¹² Richards G. The scope and significance of cultural tourism.// Cultural attractions and European tourism / edited by G. Richards. – CAB International, 2001. – P. 22.

tavsiyanomalar, qo‘llanmalar va boshqalar.

Madaniy meros uchun mas’ul bo‘lgan vazirlarning to‘rtinchi Yevropa konferensiyasi (Xelsinki, 1996-yil) Yevropa Ittifoqiga “Yevropada arxitektura merosi sohasida siyosat bo‘yicha Yevropa Ittifoqining avvalgi hisobotiga tayangan holda boshqa mamlakatlardagi meros sohasida rivojlanish to‘g‘risida hokimiyat organlarini, professionallarni, tadqiqotchilar va mutaxassislarni muntazam ravishda axborot bilan ta’minlaydigan doimiy axborot tizimini (Yevropa merosni kuzatib borish tarmog‘i) barpo etish imkoniyatini ko‘rib chiqish”ni tavsiya qildi.

Dastlabki bunday birgalikdagi hamkorliklar natijasida Yevropa merosi tarmog‘i vujudga keldi. U Yevropa Ittifoqi ichida hukumatlarning madaniy merosni himoya qiluvchi xizmatlarini birlashtiruvchi doimiy axborot tizimidir. Quyidagi asosda amalga oshiriladigan faoliyat kontekstida madaniy meros, ayniqsa, me’moriy va arxeologik meros Yevropa merosi tarmog‘ining manfaatlar sohasida turibdi: Yevropa madaniyat konvensiyasi (1954-yil); Yevropaning arxitektura merosni himoya qilish bo‘yicha konvensiya (1985-yil); Yevropa arxeologiya merosini himoya qilish bo‘yicha konvensiya (1992-yil); Yevropa landshaftlar bo‘yicha konvensiyasi (2000-yil).

1999-yilda YUNESKO va Butunjahon Turistik tashkiloti hamkorligida o‘tkazilgan Xalqaro konferensiyada «Turizm – xalqaro merosni asrovchi va yangi ming yillikka asrab-avaylab yetkazuvchi oliy maqsadimiz garovidir» shiori ilgari surilgan bo‘lsa, 2002-yilda Butun Jahon Turistik tashkiloti tevarak atrofni muhofaza qilish mavzusini tanlab, ushbu yilni «Ekologik turizm – taraqqiyot yuksalishining kalitidir», deb nomladi. 2005-yil Xitoyning Guayne shahrida ekomuzeylar faoliyatiga bag‘ishlangan «Kommunikatsiya va ilmiy-tadqiqotlar» mavzusida xalqaro anjuman tashkil etildi. 2010-yilda Shanxayda Xalqaro muzeylar Kengashining navbatdagi Bosh konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda «Xitoy muzey ishi amaliyotidagi yutuqlar va zamonaviy jarayonlar» mavzusida

ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

Ekomuzeyda «muzeylik» va «hayotiy tiriklik» oʻrtasidagi muvozanatga erishish mumkin. Uning belgilovchi ahamiyati mintaqadagi ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan chambarchas bogʻliqligidir¹³. Muzeyshunoslikning ijtimoiy-madaniy va tabiatni asrashga qaratilgan bu yoʻnalishida ekomuzeylar muayyan hudud uchun ahamiyatli boʻlgan hayotiy qadriyatlar va madaniy udumlarning oʻzini-oʻzi tiklashini taʼminlashi mumkin. Urf-odatlarining tiklanishi jamiyatning talab va istagidan kelib chiqib, anʼanaviy madaniyatga xos boʻlgan qadriyatlarni shakllantirishi mumkin. Shuningdek, bugungi kunda ekomuzeylarda atrof muhitni oʻrganish, xoʻjalik faoliyati shakllari, bolalar tarbiyasi, oilaviy munosabatlar va boshqa masalalarni oʻz ichiga olgan umumlashma (sintetik) va milliy udumlar yaxlitligini yaratish imkoniyatlari vujudga kelmoqda.

Hozirgi kunda ayrim anʼanaviy muzey-qoʻriqxonalar bosqichma-bosqich ekomuzey yoʻnalishida rivojlanib, muzeylarning oʻtish, oraliq shakllari vujudga kelmoqda. Ekomuzeylar yaratishda muzeylashtirilayotgan obektning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli usul va yoʻnalishlardan foydalaniladi.

Ekomuzeylarda mahalliy aholining turmush tarzi va hayotiy faoliyati uni oʻrab turgan tabiat bilan uygʻunlashgan holda namoyon boʻlishi milliy madaniyat bilan tanishayotgan turistlar eʼtiborini tortmay qolmaydi. Ekomuzey tashkil qilishning quyidagi bosqichlarini koʻrsatib oʻtish mumkin: a.) ekomuzey tashkil qilish uchun ilmiy-amaliy koʻrsatmalar ishlab chiqish; b.) hududiy xoʻjalikning rivojlanish imkoniyatlari va faoliyat turlarini aniqlash; v.) hududga muvofiq boʻlgan, salbiy taʼsirlardan xoli faoliyat turlarini ajratib olish; g.) mahalliy aholi bilan suhbatlar oʻtkazish; d.) ijtimoiy tashviqotlar olib borish; e.) maxsus oʻquv dasturlari

¹³ Maggi M., Falletti V. Ecomusems in Europe/ What they are and what they can be. Istituto riserche economico – sociali del Piemonte, 2000. p 7.

yaratish.

O‘zbekistonda xorijiy sayohatchilarni jalb qiluvchi, ekoturizm bilan bog‘liq bo‘lgan betakror go‘zal tabiat, landshaftlar, dunyoga mashhur qadimiy shaharlar, tarixiy yodgorliklar, arxeologik topilmalar, paleontologik qoldiqlar, tabiiy yodgorliklar mavjud¹⁴. Ular jumlasiga Ayoq qal‘a, Dev qal‘a, Teshik qal‘a, Tuproq qal‘a, Jonbos qal‘a, Qo‘yqirilgan qal‘alarni kiritish mumkin. Antik davr arxeologik yodgorliklarini ekomuzeylashtirish maqsadida 2010-yildan boshlab Jonbosqal‘a arxeologik yodgorligi yaqinida turistlar uchun o‘tovlardan qurilgan manzilgohlar (lagerlar) tashkil etila boshladi. Mazkur ekomuzeyda turistlar arxeologik obektlar bilan tanishish, ular bo‘ylab sayohat qilish bilan bir qatorda o‘tovlarda yashab, milliy marosimlar, qoraqolpoq va xorazmcha raqslarni tomosha qilib madaniy hordiq chiqarishlari mumkin. Bugungi kunda muzey-qo‘riqxonalarda milliy, an‘anaviy hunarmandchilik va nomoddiy obektlar, jumladan, folklor, etnografik manbalardan foydalanish zamonaviy turizm sohasidagi xaridorgir xizmat turlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston muzeyshunosligida ekomuzeylar tashkil etish orqali ekoturizmni rivojlantirish nafaqat ilmiy-madaniy taraqqiyot, tabiatni muhofaza qilish va ko‘paytirish muammolarini hal qilish, balki aholining ijtimoiy - iqtisodiy hayotini yaxshilash, yangi ish joylarini yaratishga ham xizmat qiladi.

Mahsulot modelidan ko‘rinib turibdiki, turizmning madaniy mahsulotidan foydalanishning daromadlari (yoki foyda) uning konsepsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm sayyohlik mahsulotlarini sotib olish va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy xarajatlarni potensial imtiyozlar bilan taqqoslaydi - ehtiyojlarni qondiradi, muammolarni hal qiladi va yaratilgan istaklarni amalga oshiradi. Bu taqqoslash natijasida, madaniy obidalarga tashrif buyuradigan madaniy sayyohlarning oxirgi tanlovi namoyon bo‘ladi.

¹⁴ Бердиёров Б. Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантириш. Жамият ва бошқарув. № 3 2008.Б. 125-126

Koʻzda tutilgan foydalar madaniyat turizmi uchun asosli sabablar hisoblanadi. Turizmدا sayyohlarning va madaniy mahsulotlarni yetkazib beruvchilarning “oʻzaro tushunishi”ni shakllantirish nuqtai nazaridan madaniy sayyohlik motivlarining quyidagi xususiyatlarini yodda tutish muhimdir.

1. Sayyohlik gʻoyalari tizimi - istaklar shaklida namoyon boʻlgan ehtiyojlarning subektiv ifodalanishi shakli, individual, fiziologik va psixologik xususiyatlarga, qadriyatlar, havas, taʼlim va hokazolar asosida shakllanadi.

2. Sayyohlarning xatti-harakatlarida oʻzini namoyon qiladigan sabablar tizimi oʻz mohiyatini tashkil etadigan ehtiyojlarning ijtimoiy-psixologik jihatlaridan koʻra boyroq. Bundan tashqari, bu sayyohlarning oʻziga xos xususiyatlariga, ularning sayyohlikning murakkab ichki motivatsiyasiga muvofiqligi jihatidan jozibadorligiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Shuning uchun sayyohlarni maʼlum bir tadbir yoki diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurishga undaydigan ikkita omil mavjud:

- madaniyatga joy nomini aniqlash (masalan, “borish yoki bormaslik” degan savolga javob beradigan) dam olish faoliyati shaklini aniqlash kabi turizmni tanlash sabablarini belgilaydigan ehtiyojlarini oʻz ichiga olgan va ularning istaklarini aks etadigan *ichki omillar*.

- *tashqi omillar* - bu sayyohlik safarining "tortish kuchi" turidir; Sayyohlik maqsadi alohida oʻrin tanlash sabablari oʻsha joyning jozibadorligi bilan bogʻliq. Shunday qilib, muayyan bir maqsad-ziyorat qilish qarori ichki va tashqi sayohat motivatsiyasining qoʻshma harakatlari natijasidir. Amaliy nuqtai nazardan oladigan boʻlsak, sayyohlarning aniq destinatsiyalarini tanlashlarida ularning ichki motivatsiyalari va maqsadlarini qondirishda ichki tuygʻulari muhim ahamiyat kasb etadi. Va aynan shu omillar boshqariladi. Shuning uchun, muhim boshqaruvchili vazifa qoʻyiladi: foyda beradigan, istakni amalga oshiradigan, oʻziga tortadigan maʼlum bir destinatsiyaga nisbatan ichki motivatsiyani,

jozibadorlik uygʻotadigan, ierarxiyaning murakkab tizimini oʻzgartira oladigan madaniy mahsulotlarni yaratish.

3. Amaliyot shuni koʻrsatmoqdagi, sayyohlardagi tabiiy yarim motivatsiya, yaʼni, sayyohlik mahsulotlarini tanlashda ichki motivlarning ustunlik qilishi istagi turli toifadagi isteʼmolchilarning ierarxiyasi jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Baʼzi bir ilmiy izlanishlarning koʻrsatishicha, sayyohlarning tajribasi oshgan sari, ularning tanlovi va jamlangan tanlov vajlari murakkablashadi va bu sayyohlik faoliyatining asosini keltirib chiqaradi. Boshqa tomondan, qiziquvchanlik, ijtimoiy hamkorlik hamda maroqli dam olish sayyohlik faoliyatida ichki motivatsiyaning shakllanish bazasini yaratadi¹⁵.

Sayyohlik motivlari turistik faoliyat turlarini birlashtiradigan yirik tizimli sinflarining shaklini taqdim etish mumkin. Bunday tizimlashtirish uchun asos sifatida, odatda, inson ehtiyojlari qoʻllaniladi.

1. Hayot ritmini oʻzgartirishda ruhiy-fiziologik ehtiyojlar manbasiga asoslangan tizimlashtirish.

Ushbu foyda har qanday madaniy mahsulot uchun keng tarqalgan va zaruriy vosita. Hayotning kundalik ritmidan qochish istagi insoniy ehtiyojlardan biridir. Turizmda bu ehtiyoj allaqachon tan olingan, bu reklama uchun “parvoz” soʻzining keng tarqalgan shaklda qoʻllanilishida aks etadi.

Dam olish insonning mehnat va turmush tashvishlari natijasida yigʻilgan horgʻinlikni tarqatib, jismoniy va ruhan quvvatini tiklashga qaratishga asoslangan sayyohlik shaklidir. Dam olishning mohiyati charchoqdan qutulishdir. Madaniy turizm esa passiv darajadagi dam olish shakli, jismoniy va ruhiy charoqlardan qutilish imkoniyatlarini bermaydi, masalan, madaniy tadbirlar va tomoshabop joylarga tashrif buyurish, piyoda sayr qilish, istirohat bogʻlarini ziyorat qilish, shahar boʻylab

¹⁵ Tourism: principles, practices, philosophies / Charles R. Goeldner, J. R. Brent Ritchie. – Eleventh ed. – 2009. – P. 263.

ekskursiya ko‘rinishidagi sayohatni uyushtirmaydi, aksincha, madaniy yodgorliklarni borib ko‘rish hamda taassurotlarni shakllantirishga asosiy e‘tiborni qaratadi.

Sayr-tomosha – vaqtni maroqli o‘tkazishga qaratilgan o‘yin shaklidir, shuningdek, hayotiy quvvat va dam olishga yaqinroq bo‘lgan vazifalarni qamrab oladi. Ammo avvalgi shakldan farqli tomonlari bor, u o‘z o‘rnida hayot uchun zarur inson zerikishdan holi qiladi, ongini shakllantirishda xizmat qiladigan axborot va taassurotlar bilan to‘ldiradi. “Charchoq-zerikish” hammada ham mavjud emas. Chunki, sayohatchilar ichidan ish bilan band va ishlaymaydigan, shuningdek, mehnat bilan mashg‘ul va bo‘sh vaqtlari ko‘p bo‘lgan aholi toifasi mavjud. Shuning uchun bu yondashuvga nihoyatda e‘tiborli bo‘lish talab etiladi.

Iztirob insonning hayotiy quvvati – madaniy turizm kontekstida ruhiy mobilizatsiyasi bilan bog‘liq (intellektual va emotsional) bo‘lgan faoliyat shaklidir. O‘yin shakli, tahlikali imitatsiya vaziyatlarida (masalan, mistik turizm), yangi madaniy faoliyat shakllari bilan tanishuv va ularda ishtirok etilganda turli xildagi achinish hissining uyg‘onishi va kechinmalar, umumiy iztirobga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlar, stereotiplarga haddan ortiq baho berish va boshqa tahlikali vaziyatlar natijasi – bular hayotiy faollikni tezlashtiradi.

Sayyohning bilimga chanqoqligi, ilmiy faolligi, insoniyatning qiziqishini qondirishga va dunyoqarashini kengaytirish va madaniy va ma‘rifiy darajasini oshirish istagini ifoda etgan bilimlarning kengayishiga nisbatan intilishni aks ettiradi. Safar chog‘ida ko‘plab chuqur ruhiy ehtiyojlar diqqatga sazovor madaniy joylarni ziyorat qilish vaqtida ta‘lim olish hamda ma‘lumotlar to‘plash imkoniyatlarini ham yaratadi.

Yarim motivlashtirilgan sayyohlik muomalasi amalda bu motivlarning turli xil ko‘rinishlarini o‘zida namoyon etadi. Shunday qilib, ba‘zi sayyohlar dam olishni xohlashadi, shu bilan birga, yangi ma‘lumot va tasavvurlar bilan boyitiladi; boshqalar o‘yin-kulgini afzal ko‘rishadi,

qiziqarli va iztirobli jihatlarni uyg'unlashtirishni afzal ko'rishadi. Turli sharoitlarda potensial sayyohlar maqsad va madaniy mahsulotlarni tanlab olish uchun motivatsiyani o'zgartirishi mumkin.

1. Jamiyat va shaxsning mavjud boyliklar tizimini amalga oshiradigan ijtimoiy jihatdan shartli ehtiyojlar asosida tizimlashtirilishi.

Zamonaviy davrda *oilaviy rishtalar, ya'ni*, oilaga intensiv e'tibor qaratish (masalan, er va xotin, ularning ish sohasiga) g'amxo'rlikning asosiy shaklidir: hozirgi vaqtda oilaviy qadriyatlar ahamiyatini oshirishga alohida qaralmoqda. Bunday sharoitda kattalar oilaning mustahkamligini va inoqligini ta'minlash maqsadida oilaviy safarlarga chiqishni ma'qul ko'rishadi. Afsuski, oilalar uchun odatda taqdim etiladigan dam olish dasturlari turlicha hamda alohida ko'rinish olgan: kattalar va bolalar uchun.

Ijtimoiy hamkorlik. Ilgari tanish bo'lmagan insonlar yoki yaqin do'stlar bilan uchrashish, muloqot qilish imkoniyati – bu motivatsiya uchun kuchli omil.

Shuni esda tutish lozimki, bu holatda madaniy yodgorliklarning mohiyatini etkazish maqsadiga yetarlicha ta'sir ko'rsata olmaydi.

O'zini namoyon qilish, dunyoqarashini ifoda etish va o'zini kashf etish - turmush tarzini global birlashtirish tobora muhim ahamiyat kasb etish ehtiyoji shu kunning dolzarb vazifasi bo'lib bormoqda. Inson uchun o'ziga yagona "Men kimman?", degan savol berib, u madaniy va ijodiy shaxs, diniy jamiyat vakili, shuningdek, hayotning mustaqil insoni sifatida shu savolga javob topishga harakat qiladi.

Omnia orasidagi nufuz - madaniy turizmni rivojlantirishning eng faol unsurlaridan biri. Destinatsiyaning boyligi ramzi va alohida madaniy mahsulotlar ijtimoiy mavqega ega bo'lgan ayrim toifadagi sayyohlarning imkoniyatini ko'rsatadi va ommaviy bozorda qobiliyatlarni namoyish etish uchun sharoitlar yaratib beradi. Shuni e'tiborga olish muhimki, sayyohlarning ko'rgazmali qobiliyatlarini namoyish etishi tashrif buyuruvchilarning haqiqiy madaniy mahsulotlardan bahra olish

imkoniyatini zaiflashtiradi.

Madaniy turizmning tizimli baholash tashrif buyuruvchilarning hozirgi va potensial auditoriyasini rag'batlantirishning shaklini belgilaydi. Shu orqali yarim motivatsiyali oddiy sayyohlarning imkoniyati va hamkorlikda amalga oshirilgan tadbirlar orqali ularning sayohatdan maqsadini belgilashda xizmat qiladi.

Turizm sektorining iqtisodiy rivojlanishi, shubhasiz, mos keladigan qonunchilik bazasining yaratilishi bilan mustahkamlanib turishi kerak. Turizm sohasining rivojlanish dinamikasi hali mavjud qonunchilik tizimda aks ettirilmagan. Qulay iqtisodiy va investitsion muhit yaratish maqsadida korxonalarining ro'yxatdan o'tkazishni soddalashtirishni, litsenziyaga ega faoliyat turlari ro'yxatini qisqartirishni va tashkilotlarni tekshirish holatlarini kamaytirishni taqozo etadigan iqtisodiyotni byurokratlashtirish choralar kompleksini amalga oshirish lozim. Chet ellik sarmoyadorlarni jalb etish uchun buxgalter hisobi va audit tizimining jahon standartlarini tadbiq etish ishlari olib borilishi kerak. Chet ellik va mahalliy tadbirkorlar faoliyati uchun raqobatli muhit yaratish va nazorat choralariining optimal uyg'unligini ta'minlaydigan, turizm sohasini nazorat qilish rejimining bundan keyingi shakllanishiga ehtiyoj O'zbekiston Jahon bozoriga chiqishida ayniqsa yaqqol sezila boshladi. Chet el sarmoyasi kelishi sababli turistlik biznes rivojlanishi uchun juda zarur bo'lgan moliyaviy resurslar, ilg'or texnologiyalar, xizmat va boshqaruvni amalga oshirishning samarali usullariga ega bo'ladi va ish yuzasidan munosabatning hamda mijozlarga xizmat ko'rsatishning yuqori madaniy saviyasiga qo'shiladi. Turizm sohasining liberallashtirish tomonga qarab harakati keltiradigan foydalarni tushunish bilan bir paytda turizm sohasida xizmatlarning obektiv sabablarga ko'ra darajasi hali chet ellik ta'minotchilardan pastroq bo'lgan oqilona olib boriladigan turistik yangiliklardan davlatimizning qatnashishini doimiy nazorat qilib turish talab etiladi. O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida turizmning tutgan o'rni hali to'la

aniqlanmagan. Biroq, oxirgi paytlarda O'zbekistonda aynan ichki turizmga bo'lgan qiziqish kuzatilmoqda. Bunga ma'lum sabablar mavjud. Ehtimol, aynan turizm mamlakatimiz iqtisodiy o'sishining tez suratlarini ta'minlay oladigan soha bo'lishi mumkin. Hali ham chiquvchi turizm kiruvchi turizmdan ustunroqdir. Valyuta kelib tushushining muhim manbasi va eksport savdosining foydali shakli bo'lgan kiruvchi turizm yaxshi rivojlanmagan. Kiruvchi turizmning ahvoli boshqacha bo'lib, uni oddiy sabablar uchun rag'balantirish lozim: u juda katta foyda keltiradi. O'zbekistonda kiruvchi va chiquvchi turizmlar asosida rivojlanayotgan turistlik biznes nafaqat turizm sanoati, balki ishlab chiqarish sohasiga tegishli bo'lmagan bir qator boshqa sohalarning rivojlanishini ham taqozo etadi. Shu tarmoqlarda hamda turistlik infrastrukturasi tegishli korxonalarda ishchi o'rinlar soni o'sishining stimulyatori turistlik biznesidir. Turizm rivojlanishi ijtimoiy muammolarni yechishda katta ahamiyatga ega. Ko'pgina mamlakatlarda aynan turizm evaziga yangi ishchi o'rinlar yaratiladi, aholi yashash sharoitlarining yuqori darajasi saqlanib turadi, davlatning to'lov balansi yaxshi tomonga o'zgarishi uchun shart-sharoit yaratiladi. Turizm sohasini rivojlantirishga bo'lgan zaruriyat ta'lim sifati darajasi ko'tarilishi, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi takomillashuvi, axborot tarqatishning yangi vositalarini tadbiq etish va h. k. uchun zamin yaratadi. Turizm madaniy salohiyatini saqlab qolib, uni rivojlantirishga ta'sir o'tkazadi, turli davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlar uyg'unlashuviga olib boradi, hokimiyat, jamoat tashkilotlari va savdo strukturalarini atrof muhitni himoya qilish ishlarida qatnashishga majbur qiladi. O'zbekistonda davom etayotgan turistlik o'zgarishlarga qaramasdan, turizmning davlat iqtisodiyotiga ko'rsatgan ta'siri hali unchalik sezirarli emas. Bu ta'sir miqdori davlatning mazkur soha rivojlanishiga sarflagan mablag' miqdoriga teng. Turizmning keng qamrovligi va muhimligi uning davlat iqtisodiyotining strategik tarmoqlar qatoriga kirishidan dalolat beradi. Bu esa hududiy va tarmoqlararo halq

xo'jaligi komplekslarining mutanosibligini ta'minlash, aholi bandligi siyosatini asoslab berish, byudjet daromadlari o'sishini hamda to'lov balansi holatni boshqarishni ta'minlash maqsadida uning bevosita davlat tomonidan rejalashtirilishini talab etadi. Shunday qilib, turizm iqtisodiyotning daromadli sohasi bo'lib, turizm biznesida muvaffaqiyatga erishish uchun iste'molchilarning turistik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlariga asoslangan holda turmaxsulotni ishlab chiqarib uni sotishni tashkillashtirish, xalqaro huquq normalari va qoidalari, turistik menejmenti va marketingi sohalaridagi amaliyot, hamda turizm xizmat bozori konyukturasi haqida yaxshi bilim talab etiladi. Yaqin kelajakda turizm xizmatlar bozorining quyidagi rivojlanish strategiyasi kutilmoqda: - turistlar tashrif buyuradigan malakatlarning turistik (tabiiy, madaniy va tarixiy) resurslari holatini hisobga oladigan mavjud bo'lgan turistik xizmat va bozorlarini rivojlantirish hamda yangilarini yaratish; - turistik faoliyatni rejalashtirish va rivojlantirishga mahalliy jamoatchilik va mahalliy hokimiyatni jalb qilish hamda uning xavfsizligini ta'minlash; - har bir tomonning ehtiyojlari va ularni qondirishga erishish maqsadida sayohat tashkilotchilari bilan mahalliy strukturalar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish; - mahalliy aholi farovonligi oshishi, soliq, bojxona va boshqa turizm rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan qiyinchiliklarni yengib o'tish, bunda asosiy diqqatni turizm sohasidagi xizmatlar narxini turistlar uchun ma'qul va turistik sanoat uchun foyda keltiradigan darajada saqlab qolishga qaratish; - mablag'larni investitsiya qilishda atrof-muhit himoyasi masalalarini (qurilish, arxitektura, antropogen yuklamalar) hisobga olish; - aniq marketingni amalga oshirish va xizmatlarni yurgizish uchun ko'proq miqdorda resurslar ajratish, muayyan guruhlariga kiruvchi turistlarni izlash va ular uchun taklif qilinayotgan xizmatlarning manzili bo'yicha ma'lumotni tashkil etish; - turizm sanoatida faoliyat yurituvchi xodimlarning kasbiy saviyasini o'stirish; - guruh-guruh bo'lib dam olish (taymsheer) turini egallash tizimini rivojlantirish.

Turistik faoliyatni litsenziyalash. Turoperatorlik va turagentlik faoliyati, shuningdek sayohatlar tashkil etishga doir boshqa faoliyat turistik faoliyatdir. Turistik mahsulotni shakllantirish, targʻib etish va realizatsiya qilish yuzasidan yuridik shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati turoperatorlik faoliyatidir. Turistik mahsulotni targʻib etish va realizatsiya qilish yuzasidan yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati turagentlik faoliyatidir. Turoperatorlar va turagentlar turistik faoliyatni vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Turoperatorlar va turagentlarga turistik faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun litsenziya amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi. Bunda ekskursiya xizmatlari koʻrsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkor boʻlgan jismoniy shaxslarga turistik faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun litsenziya olish talab qilinmaydi. Ekskursiya faoliyati yigirma toʻrt soatdan oshmaydigan va joylashtirishga (tunab qolishga) doir xizmatlar koʻrsatishni nazarda tutmaydigan, madaniy meros obektlari, diqqatga sazovor joylar va boshqa obʻektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yoʻnalishlar boʻyicha ekskursiya yetakchisi hamrohligida ekskursiyalar tashkil etishga doir turistik faoliyatning elementidir. Turoperatorlar va turagentlar faoliyatini amalga oshirishda litsenziya asosiy talablari va shartlari quyidagilardan iborat:

— turistik mahsulot buyurtmachisi bilan turistik xizmatlar koʻrsatish shartnomasi tuzilganidan keyin turistik xizmatlar koʻrsatish;

— har bir turistga va ekskursantga turistik sayohat vaqtida Oʻzbekiston Respublikasiga hamda chet davlatlarga kirish, ulardan chiqish va ularda boʻlishning oʻziga xos xususiyatlari toʻgʻrisidagi axborotni yetkazish;

— turistga va ekskursantga oʻz ishi tartibi, joylashgan yeri (pochta manzili), litsenziyaning mavjudligi, turizmning muayyan turlarini yuritish uchun masʼul boʻlgan mutaxassislar toʻgʻrisidagi axborotni taqdim etish,

shu jumladan mazkur axborotni o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirgan holda taqdim etish.

Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish. Turoperator xizmati, joylashtirish vositalari, tog‘ chang‘isi trassalari va plyajlar majburiy ravishda sertifikatlashtirilishi lozim.

Turoperator xizmatlarini, joylashtirish vositalari, tog‘ chang‘isi trassalari va plyajlarni sertifikatlashtirish vakolatli davlat organi huzuridagi akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish bo‘yicha tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish ularning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi nuqtai nazaridan amalga oshiriladi hamda ushbu xizmatlarning xavfsizligi va sifatini ta‘minlashga qaratiladi.

Vakolatli davlat organi Sertifikatlashtirilgan turistik xizmatlarning reestrini yuritadi.

Turizm sohasida standartlashtirish. Turistlar va ekskursantlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida turoperatorlik va turagentlik faoliyatini, shuningdek turistik industriya obektlarini standartlashtirish amalga oshiriladi.

Vakolatli davlat organi turistik xizmatlar sohasidagi standartlashtirishga doir ishlarni tashkil etishni, muvofiqlashtirishni, ularning bajarilishini ta‘minlashni amalga oshiradi.

Gidlarning (gid-tarjimonlarning), ekskursiya yetakchilarining va yo‘riqchi-yo‘l boshlovchilarning malakasini sertifikatlashtirish. Gidlar (gid-tarjimonlar), ekskursiya yetakchilari va yo‘riqchi-yo‘l boshlovchilar vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan tegishli sertifikat olinganidan keyin yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar sifatida yoxud yuridik shaxslar bilan tuziladigan mehnat shartnomalari asosida mustaqil ravishda xizmatlar ko‘rsatishi mumkin.

Turizm sohasidagi yagona reestrlar.Vakolatli davlat organi Turizm sohasidagi yagona reestrlarni shakllantiradi va yuritadi.

Turizm sohasidagi yagona reestrlar turoperatorlarga, turagentlarga, gidlarga (gid-tarjimonlarga), ekskursiya yetakchilariga va yo‘riqchi-yo‘l boshlovchilarga nisbatan, joylashtirish vositalariga, tog‘ chang‘isi trassalariga va plyajlarga, shuningdek turistik yo‘nalishlar va turistik obektlarga nisbatan yuritiladi.

Turizm sohasidagi yagona reestrlar vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Savol va topshiriqlar

1. Zamonaviy turizmning asosiy tarkibiy qismlarini asoslab bering
2. Xalqaro sayyohlik yo‘nalishlarini rivojlantirishda tarixiy-madaniy merosning o‘rni qanday muhim ahamiyatga?
3. Ekoturizmning rivojlanish tamoyillari?
- 4.Xalqaro turizmni rivojlantirish mexanizmlari bosqichlarini xronologik asosda keltirib bering
- 5.Xalqaro turizmnda sertifikatlash, standartlashtirish va litsenziyalash tartiblari nimalardan iborat?

2-mavzu. XX asrda turizmning industrial rivojlanish omillari

Reja:

1. Turizm industratsiyasi va infratuzilmasi tushunchasi.
2. Xalqaro sayyohlik bozori va rivojlanish istiqbollari.
3. Turizm sohasidagi xalqaro hamkorlik.
4. Xizmat ko'rsatuvchi provayderlar.
5. Turistik joy: tipologiyasi va xususiyatlari.

Kalit so'zlar: turizm industriyasi, turizm infratuzilmasi, xalqaro sayyohlik, turist, turmahsulot, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar, tipologiya

Infrastruktura umumiy tuzilmasini iqtisodiy yoki siyosiy hayot tashkil etadi. U butun bir iqtisodiy va siyosiy xarakterdagi bir maromda kechadigan hayot faoliyatini ta'minlashga qaratilgan. Iqtisodiy infratuzilmaga transport, aloqa, kommunikatsiya, maishiy xizmat, ta'lim va kommunal xo'jalik, turar – joy, turmush tarziga o'rgatish, aholining birgalikda hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarini qondirish majmui kiradi. Boshqacha aytganda, infratuzilma aholi hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan xo'jalik va madaniy obektlar, uning xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarini tashkil qiluvchi (yo'llar, ko'priklar, kanallar, omborlar, transport, aloqa, energetika, suv ta'minoti, kommunal xo'jaligi, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliyaviy tashkilotlar va h.k.) mahalliy boshqaruv majmuasi bo'lib hisoblanadi. Infratuzilma xususan ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarga bo'linadi. Keyingisi o'ziga sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va boshqalarni qamrab oladi – barcha korxonalar, muassasalar binolari, tarmoqlari va texnologik tizimlar, odamlar ijtimoiy hayotidagi moddiy asoslarni shakllantirishga qaratilgan. Infratuzilma elementlari turli xil belgilariga qarab klassifikatsiyalanishi (turlanishi) mumkin. Infratuzilmani keng miqyosli mezonlari bo'yicha xalqaro, milliy, hududiy, shahar, qishloq infratuzilmalariga ajratiladi. Faoliyat sohasi

mezonlariga ko‘ra, infratuzilma ijtimoiy, boshqaruv, va texnologik sohalar bilan chegaralanadi.

Turizm infratuzilmasi - u turistik mahsulotlar ishlab chiqarish umumiy shartlarining birlashgan mohiyatidir. «Ishlab chiqarish umumiy shartlari» tushunchasi mohiyatini ochishda mutaxassislarning fikrlari va qarashlari turlicha bo‘lib, ular bir-biridan farqlanadi. Ayrimlari turizm infratuzilmasi — bu asosiy texnologik jarayonlarni ta‘minlovchi obektlar yoki faoliyat turlari deb tushunsalar, boshqalari esa - bu butun texnologik jarayondir, uchinchi birlari - turistik mahsulotlarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan texnologik jarayonlar va unga qo‘shimcha (plyus) boshqaruv ta‘siri deb tushunadilar. Aynan ana shu keyingi murakkab mazmunga ega «turistik mahsulot» tushunchasi infratuzilmaning asosiy mazmuni va mohiyatini tashkil etadi. Shunday qilib, turizm infratuzilmasi deyilganda turistik mahsulotlarni shakllantirishda (ishlab chiqarishda) ishtirok etuvchi tarmoqlar (transport, aloqa, axborot vositalari, kommunikatsiya tarmoqlari, energetika, suv ta‘minoti, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi, kommunal xo‘jaligi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, joylashtirish vositalari, savdo xizmati ko‘rsatish, ovqatlanish korxonalari, madaniy va sport inshootlari, moliyaviy tashkilotlar, huquqni himoya qiluvchi idoralari va boshq.) va unga qo‘shimcha turizm sohasini boshqaruvchi majmua tushuniladi. Turizm infratuzilmasi parallel ravishda tegishli tashkiliy va huquqiy tashkil etish shakllarida namoyon bo‘ladi. Infratuzilma turizm tizimida umumiy, ijtimoiy-iqtisodiy shartlarning tarkibiy qismi sifatida ko‘zga tashlanadi. Hozirgi davrda turizm aholidning ehtiyojini to‘liq va sifatli qondirish uchun yuqori pirovard nisbatiga qaratilgan progressiv texnologiyalar va infratuzilmani samarali boshqarish zarur. Turizm infratuzilmasi fanining obekti bo‘lib, turistik mahsulotni shakllantirishda ishtirok etadigan xo‘jalik, madaniy obektlar, xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar, hamda mahalliy boshqaruv tashkilotlari hisoblanadi.

Turistik mahsulotlar tarkibida turistlarni tashish xizmati yetakchi

o‘rinlardan birini egallaydi. Buning boisi shundan iboratki, barcha turistik yo‘nalishlarda (piyodalardan tashqari) sayohatchilarni dam olish yoki ekskursiyaga eltish va ularning uyga qaytishi uchun transport vositasi bo‘lishini taqozo qiladi. Turizm - faoliyat turi sifatida turistlarni doimiy yashash joyidan tashqariga chiqishi va qaytishi bilan uzviy bog‘langan. Uni transport ta‘minotisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Transport vositasi turistik infratuzilmaning muhim elementi hisoblanadi va turistik mahsulotlar tarkibiga kiritilgan asosiy kompleks xizmatlarni tashkil qiladi. Transport vositalari - turizm tizimini shakllantiruvchi turistik korxonalarining alohida ko‘rinishlari sifatida qarab chiqiladi. Butunjahon turistik tashkiloti (BTT) turizm maqsadlarida qo‘llaniladigan transport vositalarini uch turga klassifikatsiyalaydi: quruqlikda, suvda va havoda harakatlanuvchi. Quruqlikda harakatlanish vositalaridan turizm maqsadlarida ko‘proq avtomobil va temiryo‘l transportlaridan foydalanish maqbul hisoblanadi. Avtomobil transporti turizmga eng ko‘p va keng miqyosda foydalaniladi. Chunki u turistlarni «eshikdan eshikkacha» eltib qo‘yishni ta‘minlaydi. Ushbu maqsadlarda muntazam yo‘lovchi tashish uchun reys avtobuslari va nomuntazam – turistik korxonaning xususiy transporti va turistning shaxsiy transporti qo‘llaniladi. Temir yo‘l transporti o‘rta masofalarga turistlarni maqbul narxlarda tez va qulay sharoitda yetib borishlarini ta‘minlaydi. Alohida hollarda temiryo‘l transporti turistik sayohat maqsadlarida ham foydalanishi mumkin. Suv transporti vositalari orasida suv osti (ekskursiya suv osti qayiqlari) va suv usti (teploxodlar, sayohat kemalari, dengiz paromlari, sayr kemalari, yaxtalar, katerlar) transportlari farqlanadi. Turizmga suv transporti vositalari ta‘minoti bilan bog‘liq masalalari asosan dengiz va daryoda turistik maqsadlarda muntazam va nomuntazam yo‘lovchi tashish misolida qarab chiqiladi. Paromda suzib o‘tish va asosiy turistik sayohat turi – sayohat kemasi, dengiz va daryo kemalari turistlarni belgilangan joyga yetkazib borishni maqsad qilib qo‘yadi. Boshqa suv transporti vositalaridan odatda alohida dasturli (programmali) tadbirlarni

amalga oshirishda foydalaniladi (masalan, suv osti ekskursiyasi) yoki qo‘shimcha xizmatlar (katerlarda sayohat) va boshqalar.

Havo transporti vositalari tarkibi xilma-xil transport vositalarini qamrab oladi va u fuqaro aviatsiyasidan tortib, to ekzotik hisoblangan havo sharlari, deltaplanlarni o‘z ichiga oladi. Turizmda havo transportining qo‘llanilishi avvalo aviatsiyada yo‘lovchi tashishdan foydalanish sifatida ko‘rib chiqiladi. U reysli va charterga klassifikatsiyalanadi, ya’ni buyurtmalar asosida bajariladi. Havo transportining muhim xususiyati shundan iboratki, u nisbatan juda qimmatligiga qaramay, bu yuqori tezligi, shinam va qulayligi bilan turistlarni olis masofalarga tashishda so‘zsiz yetakchi o‘rinni egallaydi. Transport vositalarini tanlash chog‘ida safarning maqsadli yo‘nalishi katta rol o‘ynaydi. Turistik sayohat maqsadiga bog‘liq holda uning tarkibiga u yoki bu transport xizmatlari kiritiladi.

Misol uchun, Toshkentdan Moskvagacha 5 kunlik ekskursion guruh safari tarkibi standart transport xizmati ko‘rsatishda quyidagilarni o‘z ichiga oladi: turistlarni Toshkentdan Moskvaga olib borish va qaytib olib kelishi; aeroportdan mehmonxonagacha guruhni olib borish va jo‘natib yuborish; dasturdagi tadbirlarni ta‘minlash, masalan, shahar bo‘ylab ekskursiya (avtobus va teploxodda sayyor) tashkil etish. Transport vositasini tanlashga ta’sir etadigan yana bir muhim omil bu sayohatchilar soni hisoblanadi.

Turistik guruhdagi sayyohlar soniga bog‘liq holda safarni ta‘minlashda qaysi transport vositasi zarurligi ham muhim rol o‘ynaydi: samolyotmi, temiryo‘lmi, avtobus yoki yengil avtomobillarmi va boshqalar. Safarni ta‘minlash uchun transport vositasini tanlashda yana bir hisobga olinadigan omil - bu transportda tashishning uzoqligidir. Bu omilni qarab chiqish chog‘ida odatda turistlarni bir joydan, ikkinchi joyga ko‘chirishda shinamligini ta‘minlash talablari ko‘zda tutiladi. Shuning uchun qoidaga ko‘ra butun safarni tashkil qilishda kompleks transporti ta‘minoti bo‘yicha qarab chiqiladi. Transport vositasini tanlashni

aniqlashda, shuningdek safar dasturlari ham muhim omil hisoblanadi. Qaysikim unga bogʻliq ravishda eng xilma-xil transport xizmatlari koʻzda tutiladi. Bular yuqorida eslatib oʻtilganidek ekskursiyalar, turistlarni dasturlarida koʻzda tutilgan tadbirlarga olib kelish va boshqalar boʻlishi mumkin. Odatda tartibga koʻra, guruh turizmida safar dasturini taʼminlash uchun turistik avtobuslardan koʻproq foydalaniladi. Chunki, odatda tadbirlar dasturlar butun guruhga moʻljallangan boʻlib, safarning belgilangan maqsad joyidan boshqa yerga borishi koʻzda tutilmaydi.

Turistik joy: tipologiyasi va xususiyatlari. Turistlarning sayr-tomosha industriyasi oʻz oldiga koʻngil ochishlar uchun sharoit yaratish, yaʼni koʻngil ochish natijalari xuddi shunday holatlar mavjudligiga bogʻliq maqsadlarni qoʻyadi. Sayr-tomosha qilar ekan kishi (yoki odamlar guruhi) oʻzining maʼnaviy ehtiyojlarini qondiradi, oʻz shaxsiyatiga baho beradi, turli xil ijtimoiy tizimlar koʻlamida oʻz-oʻzini, rolini tahlil qiladi. Sayr-tomosha jarayonlari ham tabiiy, ham sunʼiy yaratadigan vaziyatda amalga oshiriladi. Ruhshunoslar sayr-tomoshani insonning maʼnaviy dunyosiga taʼsir mexanizmini quyidagi tarzda tushuntirishadi. Sayr-tomoshaga tugʻma ehtiyoj insonda jismoniy harakatni uygʻotadi. Inson sayr-tomosha orqali ehtiyojini qondirish, yaʼni uni «isteʼmol» qilishga undaydi. Ehtiyoj dinamikasi hissiyotlarning almashinishi bilan kechadi. Inson sayr-tomosha turlarini izlaydi. U sogʻinch, zerikish, bezovtalikni his etadi. Sayr-tomosha qiladigan narsani uchratganda esa uni quvonch hislari chulgʻab oladi. Koʻngildagidek sayr-tomosha hotirjam boʻlish hissiga mos keladi. Shuni taʼkidlash joizki hissiyotlar olami hali yetarlicha oʻrganilmagan. Ammo sayr-tomoshaning juda koʻp funksiyalari inson ruhiyati, uning harakatchanligi hissiyotlariga taʼsir etishi hisoblangan.

Masalan, sayr-tomoshaning ommaviy koʻngil ochish turlaridan biri oʻyinlarga eʼtiborni qaratamiz. Oʻyinlar qadimgi Misrda maʼlum va mashhur boʻlgan. Oʻyinlar koʻngil yozish, muloqot va dam olish vositasi hisoblanadi. Oʻyinda inson zavq oladi, charchagan asablarini tinchlantiradi

va hordiq chiqaradi. Go'dak hali bolalar o'yinlaridayoq, olamni bila boshlaydi, hayotiy tajriba ortira boradi, bu keyinchalik unda real hayotiylikni takomillashtiradi. O'yinlar tarbiya, o'qitish, insonda olamni his etishni shakllantirish vositasidir. O'yin muloqat vositasi sifatida ayniqsa bebahodir. O'yinlar ichida shubhasiz sport o'yinlari alohida ahamiyat kasb etadi va amalda undan foyda ko'proq. Sayr-tomosha infratuzilmasi ijtimoiy taraqqiyoti yo'nalishlari shunda aks etadiki, ular yangi shaxsiy va jamiyat ehtiyojlarini shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek ehtiyoj paydo bo'lishi va rivojlanishida tarkib topgan tamoyillarni boyitadi. Sayr-tomosha infratuzilmasi ko'p qirrali vazifalarni bajaradi, (eng avvalo, tarbiya, optimistik kayfiyatni shakllantirish, ta'lim, dam olish, inson madaniyatini rivojlantirish), o'z mohiyatiga ko'ra, shaxsni shakllantiradi va rivojlantiradi. Inson o'zining bo'sh vaqtini sayr-tomosha bilan to'ldirib, ham o'zini, ham mehnat birligini tiklaydi. Hozirgi hayot shiddatli kechayotgani, ruhiy, asabiy-iztiroblar girdobida odamlarning hissiy muvozanatiga salbiy ta'sir etayotgani bilan harakatlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, asrimizda asab tizimi kasalliklari gipodinamiya xavfi borgan sari oshmoqda. Insonda asab tarangligining oldini olish, ortiqcha energiya zo'riqishidan xolos etish sayr-tomosha - ko'ngil ochishning boshqa faoliyatlarida ham keng foydalanishni taqozo etadi. Kundalik hayot charchoqlaridan holi bo'lish, insonni nafas rostlashini ta'minlash sayr-tomosha industriyasining muhim qimmatli yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ommaviy va individual tartibdagi sayr-tomoshalarni farqlash maqsadga muvofiq. Sayr-tomosha, ko'ngilxushlik maxsus tashkil etilishi yoki stixiyali ravishda paydo bo'lishi mumkin. Taklif etilayotgan sayr-tomosha doirasida, uning progressivligini tahlil qilish ma'quldir. Sayr-tomosha ro'yxatini tuzishdan turli ko'ngilxushlik ahamiyatini taqqoslashga o'tish kerak, so'ngra alohida sayr-tomoshalar shaxs rivojlanishiga qo'shadigan hissasiga qarab, baholanadi. Sayr-tomosha jarayoni asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: sayr-tomosha turini inson ixtiyoriy tanlaydi; sayr-

tomosha turlari ro'yxati chegaralanmagan; sayr-tomoshani iste'mol qilishga shaxsni oldindan tayyorlanligi; boshqa mashg'ulotlar bilan sayr-tomoshani, ko'ngilxushlikni aralashmasligi (misol uchun, dam olish va ko'ngil yozish, sport va ko'ngil ochish va o'qitish va boshq.); sayr-tomosha iste'molining davriyligi (inson hayoti sikli, yillik, haftalik, sutkalik faoliyatiga maqbullashtirilgan).

2. Sayr - tomoshalar va ko'ngil yozish korxonalarini turlari Sayr-tomosha, ko'ngil ochish industriyasi faoliyatiga talab, korxonalar faoliyati xususiyatlari va ko'lami bo'sh vaqtdan foydalanish shakli va kattaligiga bog'liq. Insonni aniq ko'ngil ochish turini tanlashiga juda ko'p omillar ta'sir qiladi. Ularga aholining umumiy vaqt byudjetidagi bo'sh vaqti ulushi, ijtimoiy-guruhlar, demografik o'sish, inson xulq-atvori, uning turmush tarzi, sayr-tomosha industriyasi taraqqiyot darajasi kabilar kiradi. Sayr-tomosha, ko'ngilxushlik va hordiq olish muhitini shakllantirish omillari ichida eng muhimi aholining daromadlari hisoblanadi. Sayr-tomosha industriyasi mahsulotlarini iste'mol qilish qonuniyatlari insonning oldingi hayot tarzi bilan taqqoslangan holda o'rganilishi zarur. Sayr-tomosha sohasida tarkib topgan tendensiyalar dam olishning uzoq evolyutsiyasi, milliy an'analar, jins rollari, yosh va diniy farqlari mahsulidir. Bir qator mamlakatlarda ko'ngil ochish komplekslari taraqqiyoti tez, qisqa muddatda o'zini qoplaydigan qulay mablag' qo'yish sohasiga aylangan. Ammo statistik amaliyotda ko'ngil ochish bilan band odamlar faoliyati sohasini ajratish mezonlari yo'q. Bu hol, eng avvalo, zarur turlar klassifikatsiyasi yetarli emasligidadir. Tegishli xo'jalik sohasida ishlab chiqarishga mo'ljallangan juda ko'p sohalar tashkil etilgach bir qator hollarda asosiy bo'lmagan, yordamchi yoki duch kelgan faoliyat bilan shug'ullanadi. Sayr-tomosha korxonalariga (tashkilotlar, muassasalar) vaholanki, insonni ko'ngil ochishi bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirish faoliyati kiradi. Bunday birlik bo'lib, faoliyat xarakteri ko'ngil ochishda yorqin aks etgan korxonalar - sirkalar, zooparklar, attraksionlar, o'yinlar maydonchasi, dam olish istirohat

bog‘lari, ko‘chma shaharchalar va h.k.lar hisoblanadi. Turli tomoshabop korxonalar-statsionar va ko‘chma teatrlar, kinoteatrlar izostudiyalar, konsert zallari (saroylari) va jamoalari (filarmoniyalar, orkestrlar, ansambllar, myuzik-xollar, televideniya va radio eshittirishlar musiqa va badiiy jamoalari) shuningdek ko‘ngil ochishni ta‘minlovchi boshqa xizmatlar xilma-xildir. Jismoniy madaniyat bilan shug‘ullanish (sun‘iy suv havzalari, kotoklar, sport zallarida, klublarda, monejlarda), shuningdek tomoshabop sport korxonalariga tashrif ham ko‘ngil ochishga xos. Madaniy qadriyatlarga xos tanishuvlar (kutubxonalar, muzeylar, ko‘rgazmalar, har xil klub muassasalari) ham ko‘ngil ochish turlari sirasiga kiradi. Jahon tajribasida aholi ko‘ngil ochar xizmatlar ko‘rsatish sohasiga, shuningdek turizm korxonalari, turistlarni joylashtirish vositalari ham kiradi. Bir qator korxonalar, tashkilotlar, muassasalar ko‘ngil ochishni o‘zlarining asosiy bo‘lmagan faoliyati shaklida ta‘minlaydilar. Turistning quvonchli hissiyoti turistik sayohatning har qanday momenti bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Mehmonxonalardan tashqari, aholiga ko‘ngil ochar xizmatlar ko‘rsatish sohasiga davlat dam olish zonalari, tarixiy, madaniy va diqqatga sazovar joylar ham kiradi. Tegishli uskunalar va jihozlar ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari ham ko‘ngil ochish industriyasi tarkibiga kiritiladi.

3. Teatr binolari, klublar. Sayr-tomosha industriyasi sezilarli mehnat, moliya, material resurslarini jalb etgan holda, iqtisodiy tizimning asoslangan bo‘g‘ini sifatida mustaqil ishlashi bilan maydonga chiqadi. Bu borada sayr-tomosha industriyasi spetsifik texnologiyalari, boshqaruv tizimlari, faoliyat natijalari, xodimlar mehnatini tashkil etishi bilan xarakterlanadi. Teatr binolari teatrdagidek umumiy sharoit teatr binosida zarur uskunalar va xizmat ko‘rsatuvchilarga qulaylik yaratish bilan amalga oshiriladi. Teatr binosi ikki kompozitsion qism tomoshabinlar va namoyish etishdan iborat. Tomoshabinlar qismi vestibyul, garderab, foye (hordiq jihozlari bilan), bufetlar, hojatxona va chekish binolar tuzilgan. Bu guruhlarning funksional xususiyatlari shundan iboratki, qisqa vaqt

oralig'ida tomoshabinlar uchun katta hajmda (spektakl boshlanishi va tugagandan keyin, 87 antrakt chog'ida) xizmat ko'rsatadi. Ayrim teatrlarda tomoshabinlar qismida boshqa (muzey, doimiy ko'rgazmalar uchun) binolar ham bor. Namoyish kompleksiga zal, sahna, shuningdek sahna jihozlari binolari kiradi. Ya'ni sahnaga chiqish uchun kutilayotgan joy, repetitsiya binolari, ombor, sahnaga xizmat ko'rsatish binolari, artistlar hojatxonasi shular jumlasidandir. Shuningdek almashtiriladigan va yumshoq dekoratsiyalar, poyafzallar, kostyumlar, pariklar tayyorlanadigan ustaxona mavjud. Teatr kengliklarini tashkil etish turlicha bo'lib, tomoshabinlar sahna maydonining uch tomonida joylashishlari yoki sahnani to'liq qurshab olishlari mumkin. Jahon tajribasida partol (chuqurlikda) sahna keng tarqalgan. Bunga sahnaning noana'naviy-halqali, uch tomonlama, markaziy, disper tiplari misol bo'la oladi. Sahnaning turli xil oraliq tiplari variantlari ham mavjud. Teatr kengligini muvaffaqiyatli tashkil qilish dekoratsiyalardan unumli foydalanish, spektaklni tomoshabinlar tomonidan kutib olinishini kuchaytirish imkonini beradi. Musiqiy, musiqali - dramatik, dramatik spektakllarni sahnalashtirish sahnaga o'zlariga xos spetsifik talablarni qo'yadi, zalga, zalning akustik xususiyatiga qarab ish ko'riladi. Musiqiy teatrlar sig'imi 1200-1300 o'ringa yetadi. Zal akustikasi qo'shimcha ovozi, musiqa asboblari tovushiga jarangdor aks-sado berishga mo'ljallanadi. Dramatik spektakllar ko'rsatadigan teatr zallariga o'rtacha 600-1200 tomoshabin sig'imi mo'ljallangan. Teatr harakatlari aylanib turadigan sahna uskunalari, so'zlashuv nutqini yaxshi eshitalishini ta'minlovchi akustikaga, kichik sahnalarga orkestr, binosiga mo'ljallangan talablar qo'yadi. Ko'pchilik teatr binolarida teatr tomoshasi turli bo'lishi mumkin. Odatda teatrlarda o'yin maydoni hajmi chuqurligi bo'yicha 10 m, eni bo'yicha 14 m. dan oshmaydi. Balet spektakllarida o'yin maydoni hajmi 12x12 m.ni tashkil qiladi. Spektaklning qanday qabul qilinishi tomosha zalining shakli, kengligi, o'yin maydoni hajmiga bog'liq. O'yin maydoni eni, yon kengligi,

ayrim yordamchi texnik vositalar uchun joy va aktyorlar to'planishi sahna kengligini hosil qiladi. Sahna chuqurligi odatda partol kengligidan 1,5-2 marta ziyodroq bo'ladi. Asosiy sahnadan tashqari, yon sahnalar, tryum, sahna binosi (arersahna) ko'zda tutiladi. Ularning hammasi asosiy sahnaga xizmat ko'rsatish vazifasini bajaradi. Sahna balandligi gumbazlari bilan chegaralanadi. Orkestr binosi sahna oldida joylashadi. Sahna jihozlari turli-tuman, ko'p hollarda juda noyob bo'ladi. Sahna yuqorigi uskunalari sahna ko'targichi, pardalar, gorizont, uchish qurilmasi mexanizmlari manzaralaridan iborat. Sahna maydoni sahna doirasi, sahnani aylantiruvchi kulis mashina, to'siqlar, lyuklar, furkalar, transporterlar, ko'tarish-tushirish qurilmalari va boshqalar bilan jihozlangan. Tomoshabin uchun ko'rinish, sahnada bo'layotgan voqealarning yaxshi eshutilishi, zal ichkarisi va shinamligi muhim kasb etadi. Ko'rish parametrlari sahnadan uzoqlikka bog'liq. Tomoshabin aktyor mimikasini ko'rish zarur, bu esa shartli ko'rinish ixchamligi 27 m. dan ko'proq (dramatik spektakllarda) 30 m. (opera, balet spektakllarida) bo'lishni talab etadi. Buning oqibatida ushbu parametrga rioya etish teatr sig'imini ancha cheklab qo'yadi. Yana ikki shart tomosha zali shakliga ta'sir qiladi. Birinchidan, tomoshabin nigohi nuri oldinda o'tirgan tomoshabin bosh uzra bemalol sahna tomon yo'nalishi ta'minlanishi zarur. Ikkinchidan, tomoshabin holati hayolan zal o'qi bo'ylab (tik va yopiq tekislikda) joylashmog'i kerak. Gumbazli teatrda tomoshabin nigohi og'ish burchagi 260° (gorizontal bo'yicha) va 300° (vertikal bo'yicha) bo'lishi talab qilinadi. Sahnada bo'layotgan voqealarning ko'inishi bo'yicha joyning bir tekisda emasligi, amfiteatrlar uchun ma'lum yetishmovchilik hisoblanadi va qulay sharoitda atigi 600 kishi bo'lishi mumkin. Italiyada XVII asr boshlarida tijoriy teatr faoliyati sifatida amfiteatrga qarama-qarshi ko'p qavatli (ko'p yarusli) zal paydo bo'ladi. Bunday zal tarxi (plani) har xil bo'lishi mumkin: doira, oval shaklida va h.k. Ko'p yarusli-zalga misol qilib «La-Skala» teatri (Italiya, Millan) ni olish mumkin. Uning sig'imi 3500 o'rin. Ko'p yarusli zallar

ajoyib akustik xususiyatga ega. Ammo ular uchun ham shinam shakldagi yuqori qavatlarida tomoshabinlar uchun noqulayliklar mavjud. Zal yechimi yana bir varianti - parter yoki amfiteatrga qo'shimcha sifatida balkonlarning mavjulligidir. Teatr zali akustik xususiyatlariga baho berish uchun vaqtning tovush tebranishi ko'rsatgichlaridan foydalaniladi. Tovush tebranishi vaqti erta va kech tovush to'lqinlari o'rtasidagi energiya nisbatiga ko'ra aniqlanadi. Tovush tarqalishi mo'tadil vaqti 2 s. hisoblanadi (simfonik tovushlar), 1 s (nutq). Tovush tarqalishi vaqtiga ta'sir etuvchi omillar bino kattaligi hajmi, aks-sado qaytaruvchi maydon, yuqori chastotalarda havoda tovushning so'nishi darajasi, tovush yutish koeffitsienti hisoblanadi. Misol sifatida «Metropoliten opera» (AQSH, Nyu-York) binosiga e'tiborni qaratamiz. «Metropoliten opera» eski binosi faqat kuchli ovozi bilan taasurot qoldiradi. Loyihachi yangi binoda o'rinlarning sonini ko'paytirish va qulayligini ta'minlash topshirig'ini oldi. Yangi bino qurilishi 1966-yilda tugallandi. Bino hajmi 30500 m, bino umumiy maydoni - 1220 kv. metrni tashkil etdi. Zalda 3800 o'rin mavjud, orkestr chuqurligi maydoni 105 kv. metr. Eshitilish loyihasi 1:10 modelida, keyin tayyor zalda tekshirib ko'rildi. Mutaxassislar fikricha, opera teatri ajoyib akustikasi sahna gumbazi, yoyilgan shift shakli, balkon yuzalari holati uyg'unlikda muvaffaqiyatli ishlab chiqilgani bilan bog'liq. Yon va orqa devorlar yog'och panellar bilan qoplangan, shift suvalgan. Tomosha zali tipi (qavatli, amfiteatrli), o'rindiqlar joylashishi, yo'laklar tomoshabinlar va aktyorlarni aloqada bo'lishiga buysundirilgan, ko'rinish va eshitilish ta'minlangan, shuningdek yong'inga qarshi himoya talablariga rioya etilgan. Teatr binolari taraqqiyoti asosiy yo'nalishlari eng avvalo, zal va sahnaning o'zaro shaklini uyg'un holda kengaytirishni qamrab oladi. Harakatlar tomosha zaliga «singib» borganda, tomoshabin harakatlar ishtirokchisiga aylanadi. Zamonaviy spektakllar harakatlari dinamik, sahna yechimlari bo'yicha rang-barang, orkestr chuqurligi va yon sahna, an'anaviy sahna modernizatsiyasi, uni jihozlashning usullari o'zgarganligi

bilan bir-biriga mos uyg'unlashib ketgan. Teatr zallari sun'iy yoritish vositalariga ega. Ularga yong'in xavfsizligi bo'yicha yuksak talablar qo'yiladi. Zallarda havo almashinishini ta'minlovchi ventilyatsiya uskunalari, havoni mo'tadillovchi konditsioner tizimlar o'rnatiladi. Tomosha zalida ular havo haroratini yozda - 23 - 25°, qishda - 19-21° darajada bo'lishini ta'minlaydilar. Standart havo muhiti spektakl boshlanguncha ta'minlanishi va butun spektakl davomida meyorida saqlab turilishi kerak. Zalni yuvish, yig'ishtirish har kuni bajariladi, agar kun davomida bir necha spektakllar namoyish etilsa, har bir tomoshadan keyin albatta yig'ishtiriladi. Mobellar, gilam buyumlar changini tozalash har kuni bajariladi. Zal har oyda albatta dezinfeksiya qilinib turilishi shart. Teatr zalini o'z vaqtida ko'zdan kechirib turish, ta'mirlash, rekonstruksiya ishlarini bajarish zarur. Shift holati har bir mavsum oldidan registratsiya qilinadi. Teatr binosi rekonstruksiyasi xususiyatlari shundan iboratki, zal birlamchi qiyofasiga qaytariladi, chunki bir qator tashqi sabablar oqibatida o'zining ko'rkini yo'qotgan bo'lishi mumkin. Bino elementlari yemirilishi, texnologik jihatdan orqada kelganlik muhandislik uskunalari almashtirish zarurati, binoni qayta rejalashtirish kabi omillar rekonstruksiya qilishga ehtiyoj tug'diradi. Universal zallarda teatr binolari bilan taqqoslanganda sahnalar va tomosha zali ko'proq sezilarli transformatsiyani - o'zgartirishni talab qiladi. Bu eng avvalo tegishli zal kompozitsion usullari va konstruksiyalarga muvofiq ta'minlanadi. Rejalashtirish informatsiyasi imkoniyatlari g'oyat katta: sahnani, tomoshabinlar o'rinlar sonini o'zgartirish, sahna va zalni navbatdagi tadbirga moslashtirish mumkin. Zal ko'rinishini qayta o'zgartirish ko'chma potoloklar - shiftlar, to'siqlar, tomoshabinlar o'rinlarini qayta jihozlash va boshqalar yordamida bajariladi. Tarixan ilgariroq alohida tomosha ko'rsatish vazifasini bajarishga mo'ljallangan zallar - konsert, teatr, kino zallar paydo bo'ldi. Bunda tomosha funksiyasi bir xil emas, misol uchun, kichik konsert zali kamer ansambillari, qo'shiqchilar, musiqachilar, yakkaxon xonandalar

konsertlariga xizmat qiladi. Katta konsert zallarida opera qo‘shiqchilari, simfonik orkestrlar, ansambillar san’atlarini namoyish qiladilar. Tomosha funksiyalarining keyingi integratsiyalashuvi konsert zallarini teatr va kino zallari bilan qo‘shiluvda namoyon bo‘ldi, teatr zallari esa kinozallar bilan qo‘shildi. Zallarni integratsiyalashning kuchayishi XX asrning 50 - yillaridan boshlab ko‘p maqsadli zallar barpo etishda ko‘zga tashlanadi. Ko‘p maqsadli zallar taraqqiyotida ularni bir markazga to‘plash evaziga investitsiyalarni jalb etib, ulardan samarali foydalanish, obektlarni universallik ahamiyatini oshirishga intilmoqda. Ijtimoiy - madaniy hayot dinamikmi rang-barang tomoshalar tashkil etishni va jamoatchilikka mo‘ljallangan binolar qurilishini talab qiladi. Ko‘p maqsadli zallar barpo etish universal obektdan tig‘izroq foydalanish hisobiga joyni, maydonni tejashga olib keladi. Zallarda tomoshabop funksiyani jamoat va sport tadbirlari bilan uyg‘unlashuvi ro‘y beradi. Konsert - jamoat tipidagi singari (turli tadbirlar va konsertlar o‘tkazishga mo‘ljallangan), konsert-raqs, banketkonsert, tomoshabop - sport zallari vujudga keladi. Zallar sig‘imi har xil va 100 dan o‘nlab ming kishigacha. Odatda ko‘proq universal bo‘lgan zallar sig‘imi kattaroq. Katta sig‘im ko‘pincha sport funksiyalarini bajaruvchi zallarga xosdir. «Kabuki» (Tokio, Yaponiya) milliy teatri universal zallarga misol bo‘la oladi. Uning sig‘imi 1746 va 630 o‘ringa ega ikki zaldan iborat va har qanday tomosha qo‘yilishini ta‘minlaydi. Geveksauz (Leypsig, Germaniya) dunyoda eng yaxshi konsert zallaridan hisoblanadi, sig‘imi 1920 o‘rin. Bino hajmi 21560 m³ ni tashkil etadi.

Zal uch qavatli binoda joylashgan. Uning uzunligi 85 metr, eni 100 m, balandligi 26 m. va geksagonal planda. Binoda yana 495 tomoshabinga mo‘ljallangan universal zal ham mavjud. Zal atrofida foye garderob va tashrif buyuruvchilar uchun tomoshaxona guruhlangan. Bino biqinida restoran bor. Moskvadagi «Rossiya» mehmonxonasi konsert zalida ham o‘zgartirish variantlari ko‘zda tutilgai. Zal 1971-yilda barpo etilgan. Zalda simpoziumlar, yig‘ilishlar o‘tkazish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda 2512

kishi joylashadi. Konsertlar, estrada, teatrlashgan kinotomoshalarda 2224 o‘rin tomoshabinlarga mo‘ljallanmagan. Sirk, teatrlashtirilgan tomoshalar chog‘ida 1800 tomoshabin yig‘iladi. Ballar maskaradlar, raqslar va ommaviy kechalar o‘tkazish mumkin. Polni to‘nkarish seksiyasi yordamida zal bal zaliga aylanadi. Qirolicha Yelizaveta (Buyuk Britaniya) kinokonsert zali 95 nafargacha musiqachisi, 50 nafargacha qo‘shiqchisi bo‘lgan xor va orkestr tomoshalarini ta‘minlay oladi. Zalda bir vaqtning o‘zida kinofilmlar namoyish qilish mumkin. Buning uchun u barcha zarur uskunalar bilan jihozlangan. Shuningdek unda ko‘pkanalli so‘zlashuv qurilmasi, konferensiyalarda foydalanishi uchun mikrofon apparaturalari mavjud. Radio-televizion yozuvlarni tezkor uzatishni ta‘minlovchi uskunalardan artistlar va tomoshabinlarga halaqit bermasdan bemalol foydalanish mumkin. Qirolicha Yelizaveta kinokonsert zalida sahna 13 qismdan iborat. Ular tomosha zali old qismida poldan 2 m. ga ko‘tarilishi mumkin. Sahnadagi hamma jihozlari avtomatik qurilma yordamida almashtirilishi va shu tariqa kamer operalari ijro etilayotganida orkestr uchun joy yaratilishi mumkin. Universal zallarni ana shunday o‘zgara olishi sahnadagi voqealar ko‘rinishini maqbul darajada yaxshilaydi.

Zallar qurilishida xarajatlarning 10 % ga yaqini ventilyatsiya texnikalariga mo‘ljallangan. Ventilyatsiya uskunalarining quyidagi turlari farqlanadi: tashqi havoni tayyorlash, sovutish, havoni isitish, umumiy almashtiruvchi va chiqarib yuboruvchi ventilyatsiya, yong‘in ro‘y berganda tutunli gazni so‘rish, taftni qaytarish uchun markazlangan ventilyatsiya tizimlari mavjud. Tinglovchilar uchun havo oqimini o‘rindiqlar suyanchiqlari orqali o‘tkazish bir vaqtdagi xarajatlarni 25-30 % ga, ekspluatatsion xarajatlarni - 40 % ga tejashga olib keladi va zalda havoni bir meyorda taqsimlanishini ta‘minlaydi. Ko‘p maqsadli zallar taraqqiyoti asosiy tendensiyalariga kiradi: tomoshabop markazlar shakllanishi, mo‘ljallangani bo‘yicha turli xillarda iborat zallar, ko‘p maqsadli zallarni dam olish profilidagi muassasalar bilan qo‘shilishi, universal zallar

bazasida nufuzli tadbirlar o'tkaziladigan markazlar shakllanishi, ko'p maqsadli zallarni universallashtirishni takomillashtirish rejaviy yechimlari. Klublar. Klub o'z a'zolari ijtimoiy faolligini rivojlantirish, ijodiy izlanishlarini ruyobga chiqishiga ko'maklashish, madaniyat va bilim darajasini ko'tarish maqsadida tashkil qilinadi. Klubga tashrif buyuruvchilar birgalikda dam oladilar, ko'ngil ochadilar. Klub hamjamiyati uchun tashabbuskorlik, havaskorlik, jamoatchilik fikri va ongliligiga xosdir. Klubda turli maqsadli, intizomli, irodali, qat'iyatli va boshlagan ishni oxiriga yetkazish kabi belgilarga qarab, shaxslararo aloqalar o'rnatiladi va rivojlanadi.

Muloqat chog'ida odamlarda ijtimoiy faollik namoyon bo'ladi. Klub bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish markazi bo'lib maydonga chiqadi. Klub rahbarlar va mutaxassislar tomonidan boshqariladi. Xodim pedagogik bilimlarni egallagan bo'ladi. O'z vazifasini bajarish jarayonida xodim bo'sh vaqtni o'tkazishni tashkil etish usullari va nazariyasiga amal qiladi, odamlarni o'zaro hamkorligini tashkil qilish usullari va yo'llaridan faoliyatida izchil foydalanadi. Hissiy axborot berishning xilma-xil vositalari (jonli 92 nutq, matnlar, ko'rgazmali vositalar, turli - tuman san'at turlari) qo'llaniladi. Klub faoliyati hamisha ko'p funksiyali xarakterga ega. Kompleks va ixtisoslashgan klublarga ajratiladi. Kompleks klublar keng qiziqish doirasiga ega odamlarning muloqatlarini tashkil qilish uchun mo'ljallangan. Bunday klublarning madaniy oqartuv faoliyati ijodkorlikni rivojlantirish, madaniy dam olishni ta'minlash, ko'ngil yozishga qaratiladi, bunda tashrif buyuruvchilarning qiziqishlari bir xil emasligi hisobga olinishi zarur. Ixtisoslashgan klublar qiziqishlari aralash, nisbatan tarqoq tashrif buyuruvchilar kontingentiga mo'ljallangan. Ular bir kasbdagi odamlar, har xil yoshdagi ijtimoiy guruhlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Klubning vazifalaridan biri kuchaytirish chog'ida madaniy-oqartuv, dam olish, muloqat, yoshlar, ekologik, fizkultura-sog'lomlashtirish, texnik ijodkorlik va boshqa ixtisoslashuvlar xarakterlidir. Ayrim hollarda klub

faoliyati maishiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish bilan qo'shib olib borilishi mumkin.

Klub inshooti bo'sh vaqt faoliyatining turli xillarini amalga oshirishga mo'ljallangan bo'lishi lozim. Klub binosi tipik tarkibi tomosha kompleksi, namoyish va klub komplekslari, ma'muriy xo'jalik va texnik binolarni o'z ichiga oladi. Tomosha kompleksi binolariga vestibyul, foye kiradi. Namoyish kompleksi tomosha zali (zallari) sahna (yoki estrada) bilan bir butunlikni tashkil etadi. Binoning klub kompleksi leksiya-axborot ishlari, studiya va to'garaklar, dam olish, ko'ngil ochish, muloqat uchun binolarni hosil qiladi. Klubning tomosha zali ko'p maqsadli foydalanish uchun mo'ljallangan. U tez va oson o'zgartirilishi kerak. Bino poli bir sathda tekis bo'lishi zarur. Mebellar mobil yoki statsionar bo'lishi ko'zda tutilishi, lekin yengilgina ko'chirish mumkin bo'lmog'i lozim. Zalni tabiiy yoritilishi maqsadga muvofiq. Klub ichki kengligi muloqat uchun qulay, ixcham va shinam bo'lishi zarur. Individuallashtirilgan interer klubda alohida xushkayfiyat bag'ishlovchi muhitni yaratishga qaratilgan. Klubdagi binolarda integrallashgan foydalanishga ularning o'rni bosadigan binolar va maydonlar hisobiga erishiladi (ko'ngil ochish, o'yin, oqartuv va boshqalar xonalari). Hatto har bir faoliyat turi uchun alohida material - texnika bazasi yaratish zarur bo'lsa ham, ularning binolari to'liq foydalanishi kerak. Shuningdek bir maqsadga mo'ljallangan aralash binolarni birlashtirish va ulardan boshqa faoliyat turi uchun (masalan, klubning ikki binosini birlashtirib teatr tomoshaxonasiga aylantirish) foydalanish mumkin. Klublarning komplekslik darajasi turlicha va amalga oshirilayotgan faoliyat turlarini integratsiyalash darajasiga, bino maydoni, egiluvchanlik darajasi va ulardan foydalanishni ko'p funksiyaligiga bog'liq.

Savol va topshiriqlar

1. Turizm industratsiyasi va infratuzilmasi tushunchalarini izohlang.

2. Xalqaro sayyohlik bozori va rivojlanish istiqbollarini tahlil qiling.
3. Turizm sohasidagi xalqaro hamkorlik jarayonlari dallillang.
4. Xizmat ko'rsatuvchi provayderlar.
5. Turistik joy: tipologiyasi va xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Sayr tomosha infratuzimasi qanday vazifalarni bajaradi?
7. Sayr-tomoshaning ommaviy ko'ngil ochish turlaridan biri nima?

3-mavzu. O‘zbekistonda madaniy turizmning rivojlanish omillari (1960-1990 y.y)

Reja

- 1.O‘zbekistonda 1960-1990-yillarda madaniy turizm tarixi.
- 2.O‘zbekistonda madaniy turizmni rivojlantiruvchi asosiy tendensiyalar.
- 3.O‘zbekistonning turistik salohiyati.
- 4.O‘zbekistondagi mavjud turistik byurolar faoliyati.
- 5.O‘zbekistonda “Inturist” faoliyatining rivojlanishi.

Kalit so‘zlar: madaniy turizm, “Inturist”, infratuzilma, maxsus nizom, sayyohlik byurolari, xalqaro yoshlar turizmi byurosi, turistik komplekslar

XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib transport va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining rivojlanishi natijasida sayyohlik borasida keng imkoniyatlar ochildi. 1929-yil 12-aprelda Butunittifoq «Inturist» aksiyadorlik jamiyatining tashkil qilinishi turizm sohasidagi deyarli barcha faoliyat turlarini birlashtirishga sabab bo‘lgan edi. «Inturist» xalqaro turizmni rivojlantirish sohasidagi monopol tashkilot bo‘lib, u tomonidan sayyohlarga sobiq Ittifoq bo‘ylab 150 ga yaqin yo‘nalish (marshrut)lar taklif qilingan.

Tadqiqotlarga ko‘ra, 1929–1934-yillar oralig‘ida ushbu tashkilot doirasida 100 000 ga yaqin xorijiy sayyoh tashrif buyurgan, 1934–1937-yillarda esa ularning soni 700 000 kishiga yetgan. Yildan-yilga turistlar soni oshib borgan. Har uch turistning biri AQSH fuqarolari bo‘lib, sayyohlar asosan mavjud sotsialistik voqelikni o‘rganishga yoki madaniy turizm, ya’ni tarixiy yodgorliklar va muzeylar bilan tanishish maqsadida tashrif buyurganlar. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda «1947-1968-yillarda Butunittifoq «Inturist» tashkiloti turizm infrastrukturasini rivojlantirishda va malakali kadrlar tayyorlashda bir qancha yangiliklarni amalga oshirdi.

1955-yilda tashkilot tarixida tarixiy voqea sodir bo'ldi, ya'ni mahalliy fuqarolarni xorijga sayohat qilishlari borasida maxsus nizom qabul qilindi»¹. Ichki va tashqi turizm rivojidadagi o'zgarishlar 1956-yilga kelib yaqqol sezila boshladi. Aynan shu davrda markaziy turistik hududlarga o'tgan davrlarga nisbatan besh barobar ko'p xorijiy sayyohlar tashrif buyurgan.

1958-yilda «Sputnik» xalqaro yoshlar turizmi byurosi tashkil etilgan bo'lib, u orqali O'zbekistonga har yili 4 mingga yaqin chet ellik turistlar kelgan. Bu byuro 28 ta yoshlar markazini birlashtirgan va u orqali talabalar va yoshlarning turistik sayohatlari amalga oshirilgan. Bu byuro orqali mahalliy va xorijiy davlat yoshlarining madaniy aloqalari yo'lga qo'yilib, Butunittifoq bo'yicha yigirmaga yaqin turistik markazlar bo'ylab turmarshrutlar tashkil etgan. Bularning orasida Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi sayyohlik markazlari bo'yicha uyushtirilgan ekskursiyalar ham talabgir marshrutlardan sanalardi.

1958-yilda chet mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy aloqalar O'zbekiston jamiyati tashkil etildi. Bu ommaviy ko'ngilli jamoat tashkilotining asosiy vazifasi O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan do'stlik va madaniy aloqalarini rivojlantirish hamda mustahkamlashga qaratilgan. Aslida 1925-yilda asos solingan bu tashkilot 1958-yillargacha chet ellar bilan madaniy aloqalar Butunittifoq jamiyatining Markaziy Osiyo, so'ngra O'zbekiston bo'limi deb yuritilgan. Jamiyat va uning bo'limlari me'morchilik, tasviriy san'at, huquq, tibbiyot va boshqa yo'nalishlarda ish olib borib, har yili 350 ga yaqin tadbirlar o'tkazgan.

1960-yillarga kelib O'zbekistonda turizm taraqqiyotida aloqa, transport va axborot vositalarining rivojlanishi muhim omil bo'lib xizmat qildi. Mazkur vositalar dam olish va sayohat qilish istagida bo'lgan mahalliy aholi va chet elliklar uchun katta qulaylik hamda imkoniyatlar yaratdi. Turistlarning 60–70 foizi asosan tarixiy-madaniy yodgorliklar bilan

¹ Путь Ю.С. История туризма. – М.: Профиздат, 2014. – С. 202.

tanishish ishtiyoqida tashrif buyura boshladi. 520 o‘rinli «Toshkent» mehmonxonasining 400 ta o‘rni, 100 o‘rinli «Samarqand» mehmonxonasining hamma o‘rinlari, 100 o‘rinli «Buxoro» mehmonxonasining 70 ta o‘rni Butunittifoq «Inturist» tashkilotining O‘zbekiston bo‘limiga tegishli bo‘lib, xorijiy turistlar tashrifi uchun alohida tartibda jihozlangan edi².

1960-yil 11-sentabrda O‘zbekiston SSR Kasaba uyushmalari kengashining Turizm va ekskursiyalar bo‘yicha turistik ekskursiya boshqarmasi tashkil etildi. Boshqarma asosan mahalliy aholi uchun turistik xizmat dasturlarini ishlab chiqish va yo‘llanmalar tayyorlash bilan shug‘ullanar edi. Ushbu boshqarma 1960–1973-yillarda turli nomlarda faoliyat yuritdi.

Mazkur tashkilot 1962-yil 11-sentabrdan O‘zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari Kengashi Prezidiumi qarori bilan Turizm bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Kengashi, 1969-yil 8-sentabrdan Turizm va ekskursiyalar bo‘yicha O‘zbekiston Kengashi deb atala boshladi³. Uning faoliyati mahalliy aholini turizm bilan shug‘ullanishga ommaviy jalb qilish, turistlarni «yuksak axloq tamoyillari» ruhida tarbiyalash, respublikada turistik loyihalarni amalga oshirish, mehmonxona, turistik bazalar qurilishiga rahbarlik qilish, mahalliy turistik marshrutlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, soha rivoji bo‘yicha tajriba almashishni tashkil qilishga qaratildi.

Biroq jamiyatning barcha sohalarida bo‘lgani kabi, turizmda ham milliy mutaxassislar kamchilikni tashkil etar, asosiy lavozimlarga rahbarlar markaz, ya’ni Moskva tomonidan tayinlanar, o‘zbek xalqi madaniy merosini asrash, uni keng targ‘ib etish ishlari e’tibordan chetda qolgan edi. Maqsadli sayohat yo‘nalishlari o‘ta tor doirada bo‘lib, O‘zbekistonning tarixiy shaharlaridan Buxoro, Samarqand, Xiva va Toshkentnigina o‘z

² ЎЗР МДА, Р-2753-жамғарма, 1-рўйхат, 47-иш, 2-варақ.

³ ЎЗР МДА, Р-2776-жамғарма, 1-рўйхат, 43-иш, 230-варақ.

ichiga olgan edi.

Mavjud turistik komplekslar faqat xorijiy sayyohlar uchun mo'ljallangan bo'lib, mahalliy aholining ulardan foydalanishiga imkon berilmagan edi. Turistlarning tarixiy obidalar va muzeylarni borib ko'rish jarayonida mahalliy aholi bilan suhbatlashishlari, milliy qadriyatlarni o'rganishlariga to'sqinlik qilinar, ularning jamiyatdagi voqeliklar haqidagi fikr-mulohazalarini o'zgartirmaslik yo'lida barcha chora-tadbirlar ko'rilar edi. Umuman, bu davrda muzeylashtirilgan yodgorliklarning tarixi soxtalashtirilib, kommunistik mafkura manfaatlari nuqtai nazaridan yoritildi.

1965-yilda O'zbekistonga 92 mamlakatdan turistlar tashrif buyurgan⁴. 1966-yilgi Toshkent zilzilasidan so'ng, 26 apreldan avgust oyigacha shaharga turistlar tashrifi to'xtatilgan. Toshkent aylanma yo'li asosiy turistik marshrutlarga olib boradigan asosiy trassa bo'lib, poytaxt tranzit shahar vazifasini o'tar edi. Shaharga turistlar tashrifining vaqtinchalik to'xtatilganligi tufayli sayyohlar aeroportdan to'g'ri Buxoro va Samarqand mehmonxonalariga olib borib joylashtirilgan⁵.

Turizm va ekskursiyalar bo'yicha O'zbekiston kengashi respublika Jurnalistlar uyushmasi bilan birgalikda har yili turizm hamda ekskursiya masalalarini matbuotda keng yoritish yuzasidan respublika tanlovini tashkil qilgan. Tanlovni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad sohada erishilayotgan «sotsialistik» muvaffaqiyatlarni targ'ib qilish, mehnatkashlarning bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazish, dam olishning faol shakli hamda muhim vositasi bo'lgan turizm va ekskursiyalarni ommalashtirishga yordam berishdan iborat edi. E'lon qilingan materiallarda sobiq Ittifoqda turizmning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari, sayyohlik, uni keng yoyish, turistik-ekskursiya tashkilotlarining ish tajribalari haqidagi ma'lumotlar berib borildi. Shuningdek, Turizm va ekskursiyalar bo'yicha respublika

⁴ ЎЗР МДА, Р-2753-жамғарма, 1-рўйхат, 29-иш, 7-варақ.

⁵ ЎЗР МДА, Р-2753-жамғарма, 1-рўйхат, 28-иш, 26-варақ.

Kengashining Turistik ekskursiya byurosi tomonidan mahalliy aholi uchun turli turistik yoʻnalishlar tashkil etildi.

1966-yildan boshlab rangli illyustratsiyalar bilan boyitilgan oylik «Turist» jurnali chop etila boshladi. Jurnalda Turizm va ekskursiya Markaziy Kengashining maʼlumotlari, turistik komplekslar va ularning faoliyati haqidagi axborotlar yoritildi.

Turizm sohasida sobiq Ittifoq hududida birinchi plastik kartochkalar 1969 yildan boshlab ishlatila boshladi. Aynan shu vaqtdan xalqaro toʻlov tizimida Diners Club, keyinchalik American Express kartalarida xizmat koʻrsatish boʻyicha kelishuvlar imzolandi. Bu shartnomaga koʻra xizmat koʻrsatish doirasi chegaralangan boʻlib, undan faqatgina «Inturist» mehmonxonalari va maxsus doʻkonlar tizimidagina foydalanish mumkin edi. Shuni taʼkidlash mumkinki, «Inturist» Butunittifoq aksionerlik jamiyati sobiq SSSRda xalqaro kredit kartalar tizimida ish olib borgan birinchi kompaniya sifatida tarixga kirdi⁶. Oʻzbekistonda esa faqat Toshkentdagi «Inturist» mehmonxonasida bu tizimdan foydalanish imkoniyati bor edi, xolos. Buxoro, Xiva, Samarqand shaharlarida xorijlik mehmonlarga xizmat koʻrsatish asosan naqd pul bilan amalga oshirildi. Bu esa turistlar uchun qator noqulayliklarni keltirib chiqarar edi.

1969–1970-yillarda turistlarga xizmat koʻrsatish darajasining birmuncha yaxshilanishi xorijiy turistlar tashrifining 20–30 foizga ortishiga olib keldi. Natijada Oʻzbekiston xorijlik sayyohlarni qabul qilish boʻyicha sobiq Ittifoq davlatlari ichida Rossiya, Ukraina va Gruziyadan soʻng toʻrtinchi oʻrinni egalladi⁷. Ammo turizmdan keladigan daromadning markaz tomonidan tasarruf qilinganligi oqibatida Oʻzbekistonda tarixiy-madaniy obidalarni tiklash, taʼmirlash va muhofazalash, muzeylar fondidagi noyob eksponatlarning toʻlaqonli ekspozitsiyasini tashkil etishda mablagʻlar yetishmovchiligiga duch kelindi.

⁶ <https://ru.wikipedia.org/nn.ntk-intourist.ru:8080/company/about>.

⁷ ЎзР МДА, Р-2753-жамғарма, 1-рўйхат, 60-иш, 1-варак.

1964-yildan boshlab respublika gazetalarida «Chet el kishilari O‘zbekiston haqida» rukni ostida maqolalar chop etila boshladi. Avstraliyaning «Tribyun» gazetasi muxbiri Alfred Uott O‘zbekiston bo‘ylab ikki haftalik sayohatini maqola tarzida chop etdi. Uning maqolasi «Avstraliyalik bo‘lsam ham o‘zbek bo‘lgim keldi», – degan so‘zlar bilan boshlanib, muallif O‘zbekistonning hayoti va o‘tmishi haqida ma’lumotlar berish bilan chegaralanmasdan, uning kelajak rejalari haqida ham so‘z yuritgan.

Polsha Xalq Respublikasi «Belostok» gazetasi xodimi Kristina Marshalek va shu gazetaning fotomuxbiri Virmelush Mlinchik O‘zbekiston haqida fotosuratlar bilan boyitilgan o‘nta reportaj e’lon qildilar. Bu reportajlarda respublikadan olingan taassurotlar bayon etilgan edi. Shu yili may oyida tashrif buyurgan Yevropa va Lotin Amerikasining bir qancha davlatlari delegatsiyasi a’zolari ham O‘zbekistonning tarixiy obidalari bilan tanishib, o‘z ijobiy fikrlarini bildirdilar.

1964-yil 13-iyunda maxsus obektlar, umumturistik ko‘rsatkichlar va ekskursiya xizmati bo‘yicha tayyorlangan raqamli hisobot materiallar rejasi asosida O‘zbekiston SSR MS huzurida Chet el turizmi boshqarmasi tashkil etildi⁸. 1973-yilda esa Turizm va ekskursiya markaziy Kengashi tomonidan yangi, sayyohlarning xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan «Nazorat-qutqaruv» bo‘limi ochildi. Turizm sohasida bunday bo‘limlar Yevropa davlatlarida 1950-yillardayoq o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lib, ular bevosita sug‘urta agentliklari bilan hamkorlikda ish olib borar edilar.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida 1975-yilda Ittifoq bo‘yicha 300,2 ming xorijiy turistlarga xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, 1980-yilga kelib bu ko‘rsatkich 358,3 ming kishiga yetdi⁹. Turistik xo‘jaliklarda xizmat ko‘rsatish sohalari rivojlandi, yangi qulayliklarga ega mehmonxonalar qurila boshlandi.

⁸ ЎЗР МДА, Р-837-жамғарма, 41-рўйхат, 4169-иш, 92-варак.

⁹ ЎЗР МДА, Р-837-жамғарма, 41-рўйхат, 4169-иш, 114-варак.

Turizm dasturining asosiy tarkibiy qismi mamlakat tarixi, hayoti, madaniyati bilan tanishish boʻlib, bunda muzeylar ekspozitsiyasi yetakchi vosita hisoblanadi. 1977-yil may oyida Moskvada 60 ta mamlakat ishtirokida boʻlib oʻtgan Xalqaro muzeylar kengashining XII bosh assambleyasi qaroriga muvofiq, Xalqaro muzeylar kuni nishonlana boshladi. Bu qaror madaniy va tarixiy boyliklar xazinasini boʻlgan muzeylarning turizmni rivojlantirishdagi roli hamda xalqlar oʻrtasidagi aloqalarni mustahkamlashdagi ahamiyatini oshirdi. Shu davrdan boshlab, sobiq Ittifoqdagi barcha muzeylar xalqaro hamkorlikning madaniy aloqalar dasturida faol qatnasha boshladilar. Muzeylarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, madaniyat, sanʼat kolleksiyalarining almashinuvi, turistlar eʼtiborini jalb etish uchun xorijiy mamlakatlarda koʻrgazmalar tashkil qilinishiga koʻproq ahamiyat qaratildi.

Jumladan, sobiq Ittifoqdagi eng yirik muzeylardan hisoblangan Ermitaj muzeyi va Pushkin nomidagi Tasviriy sanʼat muzeyi, Fransiyaning Luvr, Amerikaning Metropoliten kabi mashhur muzeylari bilan muntazam kolleksiya almashib turdi. 1971–1977-yillar davomida tarixiy, madaniy yodgorliklar va sanʼat durdonalaridan tashkil topgan 250 dan ortiq koʻrgazma chet ellarga yuborildi. «Muzeylar fondidan 100 durdona» nomli koʻrgazmaga Oʻzbekiston muzeylarining yodgorliklari ham kiritilib, Yaponiyada katta muvaffaqiyat qozondi. Bunday koʻrgazmalar tufayli chet elliklar oʻzbek xalqining boy madaniy merosi, isteʼdodi va yuksak didi bilan vujudga kelgan moddiy hamda maʼnaviy boyliklari haqida tasavvurga ega boʻldilar.

Davlatlararo koʻrgazmalar almashinuvi xalqlarning bir-birini yaxshi tushunishi, yaqinlashishi va milliy madaniyatlar boyib borishiga ijobiy taʼsir koʻrsatsa-da, xalqaro koʻrgazmalarda Oʻzbekiston ishtiroki sanoqli boʻlganligi, moddiy madaniyat va sanʼati durdonalarini yetarli darajada namoyish etish imkonini bermasdi. Oʻzbekiston muzeylari ilmiy tadqiqot markazlari boʻlib, eksponatlar jamgʻarish, ularni hisobga olish, saqlash va

ilmiy asosda o'rganish vazifalarini bajargani holda madaniy an'analarni avloddan-avlodga yetkazishda talay kamchiliklar mavjud edi. Bu esa respublikada xalqaro turizmning rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatardi.

Bu davrda O'zbekistonda 34 ta davlat muzeylari faoliyat yuritib, ular yarim milliondan ortiq eksponatga ega bo'lgan. Asosan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Andijon, Farg'ona muzeylarida turistlarga zamonaviy ekskursiyalar tashkil qilingan va ulardan ko'zlangan maqsad siyosiy, g'oyaviy tarbiyaga qaratilgan edi.

Respublikadagi Turizm va ekskursiya kengashining 1982-yil 14-mayda bo'lib o'tgan yig'ilishida favqulodda vaziyatlarda sayohatchilarga tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmatlarini tashkil etish va rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan¹⁰. Bunga ko'ra, mehmonxona xo'jaliklarida yangi shakldagi tibbiy yordam punktlari tashkil etish ishlari amalga oshirildi.

O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1983-yil 27-oktabrdagi farmoniga ko'ra, O'zbekiston SSR MS huzuridagi Chet el turizmi boshqarmasi tashqi turizm bo'yicha Butunittifoq Davlat Komitetiga qarashli O'zbekiston Chet el Bosh Boshqarmasiga aylantirildi. Ushbu boshqarma faoliyatida xorijiy turistik firmalar bilan shartnomalar imzolash imkoniyati paydo bo'ldi.

1985-yil 10-sentabrda O'zbekiston MS, Turizm va ekskursiyalar bo'yicha O'zbekiston kengashi hamda O'zbekiston Yoshlar kengashi Markaziy Komitetining «Turizmni rivojlantirish bo'yicha choralar va mamlakatda 1986–1990-yillarda hamda 2000-yilgacha aholiga turistik-ekskursiya xizmati ko'rsatishni amalga oshirish haqida»gi 473-sonli qo'shma qarori qabul qilindi¹¹. Qarorda turistik-ekskursion xizmat ko'rsatish rivojini ta'minlash, sohada ko'plab ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish nazarda tutildi. Madaniyat Vazirligi, viloyat boshqarmalari, barcha

¹⁰ ЎзР МДА, Р-2776-жамғарма, 1-рўйхат, 269-иш, 9-варак.

¹¹ ЎзР МДА, Р-2487-жамғарма, 3-рўйхат, 6269-иш, 93-варак.

yoʻnalishlardagi muzeylarga Oʻzbekiston MS bilan hamkorlikda 1985-yil 1-dekabrgacha turizm va ekskursiyalar boʻyicha qaror ijrosini taʼminlash topshirildi.

Turizm va ekskursiyalar boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi kengashi va Oʻzbekiston Madaniyat Vazirligining 1986-yil 15-iyuldagi 348-sonli «1986–1990-yillarda va 2000-yilgacha mamlakatda aholiga turistik-ekskursion xizmat koʻrsatishni takomillashtirish boʻyicha choralar haqida»gi buyrugʻida, jumladan, turizm va ekskursiyalar boʻyicha Respublika kengashi va Oʻzbekiston Madaniyat vazirligining hamkorlikdagi tadbirlarini tasdiqlash, Turizm va ekskursiyalar boʻyicha viloyat kengashlarining amalga oshirilgan ishlari haqida respublika kengashiga hisobot berish koʻrsatib oʻtilgan edi¹².

Turizm va ekskursiyalar boʻyicha kengash va Oʻzbekiston Madaniyat Vazirligining mamlakatda aholiga turistik-ekskursion xizmat koʻrsatishni takomillashtirish boʻyicha chora-tadbirlarida quyidagi vazifalar belgilandi:

– 1986-yil 1-maygacha viloyat boshqarmasi, Toshkent shahar madaniyat boshqarmasi, Turizm va ekskursiyalar boʻyicha Oʻzbekiston kengashi Oʻzbekiston turistik xoʻjaliklarini havaskorlar kuchi bilan tashkil etilgan tashkilotlar, vokal-cholgʻu ansambllari bilan mustahkamlash masalasini hal qilishi;

– xalq ijodiyoti va madaniy-oqartuv ishlar Respublika ilmiy-metodik markazi repertuar-redaksion kollegiya tomonidan madaniy ommaviy oqartiruv ishlari uchun repertuar tashkil qilish masalalari boʻyicha metodik hamda maxsus adabiyotlarni turizm va ekskursiyalar boʻyicha kengashga yoʻllashi;

– viloyat boshqarmasi, Toshkent shahar madaniyat boshqarmasi Madaniyat Vazirligi tashkilotlari vakillarini turistik tashkilotlar madaniy kengashi tarkibiga tavsiya etishi;

– Madaniyat Vazirligi Turizm va ekskursiyalar boʻyicha Oʻzbekiston

¹²ЎзР МДА, Р-2487-жамғарма, 3-рўйхат, 6430-иш, 98-варак.

kengashi madaniy-oqartuv tadbirlari senariysini ishlab chiqishda ilmiy-amaliy yordam ko'rsatishi;

– madaniyat Vazirligining muzeylar boshqarmasi, Turizm va ekskursiyalar bo'yicha O'zbekiston kengashi 1 iyulga qadar ekskursant va turistlar uchun marshruti bo'lgan ko'rgazma, kartinalar galereyasi, muzeylar ro'yxatini kengaytirish bo'yicha choralar qabul qilishi, ularda turist va ekskursantlar uchun qulay vaqtni belgilashi;

– muzey, kartina galereyalari, ko'rgazmalarda turist va ekskursantlarga ekskursion xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida muzey ekskursovodlarini attestatsiyadan o'tkazishi;

– muzey ekskursiyasini olib borish uchun muzeylarda yuqori malakali ekskursovodlar ishtirokida ekskursiya va sayohat byurosini tashkil etishi, ekskursovodlardan foydalanish ishini yaxshilashi, hisobotlarni Madaniyat Vazirligining muzeylar boshqarmasi, Turizm va ekskursiyalar bo'yicha O'zbekiston kengashiga topshirishi kerak edi¹³. Belgilangan ishlar ko'rsatilgan bandlar bo'yicha amalga oshirilmagan bo'lib, tadqiqot jarayonida arxiv hujjatlarida ham saqlanib qolmaganligi aniqlandi.

Turistlarga madaniy-oqartuv xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlash uchun Turizm va ekskursiyalar bo'yicha kengash respublikaning ijodiy tashkilotlari taqdim etgan ko'plab dasturlar bilan tanishib chiqib, «Moskva» turistik kompleksi hamda O'zbekiston Madaniyat vazirligi estrada - sirk san'ati respublika studiyasining hamkorligini maqbul deb hisoblagan va Madaniyat vazirligidan turistlarning bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazishni tashkillashtirish maqsadida «Moskva» turkompleksi va estrada-sirk san'ati respublika studiyasi bilan hamkorlik qilishga rozilik berishni so'ragan. Bundan ko'rinib turibdiki, bu davrda respublikadagi turistik xizmat komplekslari ham markazdan olib kelingan, O'zbekistondagi milliy ashula va raqs, folklor va etnografik ansambllar esa bu kabi tadbirlarga jalb qilinmagan.

¹³ ЎзР МДА, Р-2487-жамғарма, 3-рўйхат, 6430-иш, 93–94-варақлар.

1987-yilga kelib, Chet mamlakatlar bilan doʻstlik va madaniy aloqalar Oʻzbekiston jamiyati doirasida xalqaro miqyosda ijodkor yoshlar va talabalarni taklif etish dasturlari ishlab chiqildi. Dasturga koʻra, shu yili Fransiyaning Sorbonna universiteti talabasi Sofi Luaro va Madrid Chet tillar instituti talabasi Euxenno Sancheslar birinchilardan boʻlib Oʻzbekistonga tashrif buyurdilar va respublikaning tarixiy joylariga safar qilib, muzey va teatrlarda boʻldilar.

Bu davrga kelib yetakchi xorijiy davlatlarda turizm sezilarli darajada rivojlangan edi. Uning doirasiga iqtisodiy va madaniy aloqalar, oʻquv jarayonlari, chet davlatlarda bilim olish imkoniyatlari ham kira boshladi. 1980-yilda Filippin poytaxti Manila shahrida xalqaro turizm sohasidagi meyoriy hujjat – Manila deklaratsiyasi qabul qilindi¹⁴. Bu hujjatda xorijiy davlatlar turistik tashkilotlarining faoliyatiga oid tartib-qoidalar va turli darajadagi sayyohlarning huquqlari asoslab berilgan. Manila deklaratsiyasida xalqaro turizm faoliyati haqida «Turizm turli xalqlar orasidagi asosiy ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarni bogʻlab turuvchi asosiy omildir», – degan fikrlar bayon etilgan edi.

1985-yil 22-sentabrda Bolgariya poytaxti Sofiyada Xalqaro Turistik tashkilotlar Bosh Assambleyasining oltinchi sessiyasi rezolyutsiyasida «Turizm Xartiyasi»¹⁵ qabul qilindi va davlatlararo turizm mazkur Nizom asosida olib borila boshlandi. Turizm Xartiyasida har bir insonning dam olish va sayohat qilish huquqiga ega ekanligi, sayohat borasidagi erkinlik, meyoriy ish kunlari asosida yillik taʼtil talab qilish kabi asosiy tamoyillar qayd etilgan edi.

«Turizm Xartiyasi»ga yangi qism – Turistlar Kodeksi sharhi ham ilova qilindi¹⁶. Bu hujjatda turistik sayohat bevosita tabiat yoki tarixiy-madaniy yodgorliklar bilan bogʻliq ravishda tashkil qilinishi taʼkidlanib, u insoniyat taraqqiyoti natijasida shakllangan noyob tarixiy yodgorliklar bilan

¹⁴Биржаков М.В. Введение в туризм. – Санкт-Петербург: Герда, 2006. – С. 465.

¹⁵<http://tourismperspective.blogspot.com>

¹⁶http://tourlib.net/books_tourism/senin_pril05.htm

bogʻliqligi bois, sayyohlar ham oʻziga xos masʼuliyat his etishlari lozimligi qayd etildi. Shundan kelib chiqib, turistlarga sayohat davomida belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish zarurligi asoslab berildi

1986-yilda Oʻzbekistonda turizm masalalariga bagʻishlangan birinchi xalqaro seminar tashkil etildi. Mehmonlar Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylari bilan tanishdilar, folklor ansamblining maxsus konsertini tomosha qildilar.

1985–1990-yillarda turizmni rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirildi, xalqaro turizmning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, respublikaning yirik shaharlarida mehmonxonalar ishga tushirildi. Ekskursiya uyushtiruvchi muassasalar tarmogʻi kengaytirildi, 1000 dan ziyod malakali ekskursovodlar mahalliy va xalqaro turistlar uchun ekskursiyalar olib bordilar. Shunga qaramay, respublikada sayyohlarga turistik-ekskursion xizmatlar koʻrsatish sifati oʻz davri talablariga nisbatan past darajada edi.

Shuni alohida taʼkidlab oʻtish lozimki, turizmni rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan qarorlar deyarli bajarilmasdan, qogʻozlarda qolib ketar, ayrim qisman bajarilgan ishlar ham oxiriga yetmay qolar edi. Chunonchi, respublikaning tarixiy shaharlari, meʼmoriy yodgorliklari, muzeylarning noyob kolleksiyalarini targʻib qilish ishlari qoniqarsiz boʻlib, xorijiy sayyohlarni Oʻzbekistonga jalb qilish ishlari bilan faqat markaz shugʻullandi. Respublikada turizm sohasi reklamasi bilan bogʻliq ishlar Butunittifoq turistik ekskursiya byurosi nazoratida olib borildi.

1988-yil 26-iyunda Oʻzbekiston Oliy Kengashi va Oʻzbekiston MS qarori bilan Oʻzbekiston Chet el Bosh Boshqarmasining faoliyati tugatildi.

Oʻzbekiston MSning 1989-yil 20-oktabrdagi qaroriga koʻra, xoʻjalik hisobidagi «Sayyoh-intur» birlashmasi tashkil topdi¹⁷. Qarorda ushbu birlashmaning vazifalari belgilab berildi. Respublikada tashqi turizmni rivojlantirish va chet mamlakat xalqlari bilan aloqalarni kengaytirish

¹⁷ ЎзР МДА, Р-2753-жамғарма, 1-рўйхат, 77-иш, 18-варақ.

maqsadida chet elga sayyohlikni ta'minlash; davlat, xo'jalik, madaniy qurilish sohasidagi yutuqlarini ommalashtirish; vazirliklar faoliyati va chet ellik sayyohlarni qabul qilish hamda ularga xizmat ko'rsatishni tashkillashtirish bo'yicha boshqarmalarni birlashtirish; respublikaning turistik markazlari, e'tiborga molik joylarini reklama qiluvchi ma'lumotlar, loyihalar va bukletlarni chop etish; tashqi turizmning moddiy-texnikaviy bazasini ta'minlovchi va mustahkamlovchi obektlarning qurilishini amalga oshirish kabi ishlar shular jumlasidan edi.

1991-yil 1-sentabrdan e'tiboran birlashma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga qarashli bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-oktabrdagi qarori bilan ushbu birlashmaning faoliyati tugatildi.

1960–1980-yillarda butun dunyoda turizm sohasi rivojlanish yo'lidan bordi. O'zbekistonda turizm sohasi tashkiliy-xo'jalik jihatidan talablarga mos holda shakllantirildi. Bu davr mobaynida O'zbekistonga sayyohlar oqimining ko'payishi kuzatildi. Turistlar respublikaga sayohat qilishdan tashqari dam olish, davolanish, tadqiqotlar olib borish, madaniy uchrashuvlar o'tkazish uchun tashrif buyurur edilar.

O'zbekistonda turizm infratuzilmasi, zamonaviy turizm industriyasining davlat manfaatlariga bo'ysundirilishi respublikada ichki va tashqi turizmni rivojlantirish uchun muhim jihatlardan hisoblangan tabiiy iqlim sharoitlari, qadimiy me'moriy obidalar ko'lami, etnografik hamda tarixiy o'ziga xosligi, turli davrga oid madaniy yodgorliklarning mavjudligiga qaramay, bu sohani iqtisodiyotning muhim tarmog'iga aylanishiga to'sqinlik qildi.

O'zbekistonda turizmning rivoji uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lgani holda, markaz hukmronligi sharoitida ulardan o'zbek xalqi manfaatlari yo'lida foydalanish mumkin bo'lmadi. Sayyohlik va u orqali muloqot hamma davrlarda taraqqiyotning g'ildiragi sifatida xizmat qilib kelgan, turli bilimlar, g'oyalar, tajriba, kuzatishlar va shu asnodagi

taassurotlar bir mintaqadan boshqasiga, bir xalqdan ikkinchisiga o'tib, ularni boyitib kelgan bo'lsa-da, mazkur sohaga jiddiy qaralmadi. Natijada respublikada turizm rivojida intellektual va moddiy-predmet almashinuvi holatlari deyarli kuzatilmadi.

1960-yillarga kelib O'zbekistonda mahalliy va xorijiy turizmning shakllanishida muzeylashtirilgan yodgorliklar faoliyati va ularning saqlanish darajasi qiziqarli sayyohlik marshrutlarini belgilab bera boshladi. O'zbekistonning shaharlari bo'ylab tashkil etilgan turistik marshrutlar qisqa muddatli bo'lib, ular atigi 5–6 kunga rejalashtirilgan. Bu muddat O'zbekistonning tarixiy-madaniy yodgorliklari bilan tanishish uchun kamlik qilar edi. 1969-yildan boshlab «Markaziy Osiyo poytaxtlari bo'ylab» nomli 19 kunlik turistik marshruti joriy etildi. Mazkur sayyohlik marshruti O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston Respublikalari bo'ylab tashkil etildi¹⁸.

Turistik marshrutlarni tashkil etish va nazorat qilish sifatini oshirish maqsadida Turizm va ekskursiyalar markaziy Kengashi 1970-yil 27-oktabrda «Turistik marshrutlarni yagona tizimli raqamli kodlashtirish» haqida qaror qabul qildi. Unga ko'ra, respublikalar bo'yicha marshrutlar 7 ta sondan iborat (000-00-00) raqamlar bilan kodlashtirish asosida tuzila boshladi. Marshrutlarni raqamlashtirish tizimi mahalliy va xalqaro turizmda shakllantirilgan yangi yo'nalishlarni tartib bilan joylashtirish imkonini berdi. Koddagi birinchi uchta raqam – marshrut manzili, ya'ni qaysi hudud (respublika, viloyat)dagi turistik tashkilotga qarashli ekanligi, to'rtinchi raqam – marshrut turi (talabgir yoki aksincha), beshinchi raqam – marshrut ahamiyati (xalqaro yoki mahalliy), oltinchi va yettinchi raqamlar marshrut tartib raqamini ifoda etar edi¹⁹. Kodlashtirishning birinchi uchta raqamiga ko'ra, O'zbekiston to'rtinchi tartib raqami, marshrutlar ahamiyatiga ko'ra mahalliy marshrutlar 0 dan 8 raqamigacha,

¹⁸ ЎзР МДА, Р-2776-жамғарма, 1- рўйхат, 45-иш, 4-варак.

¹⁹ ЎзР МДА, Р-2776-жамғарма, 1- рўйхат, 71-иш, 199-варак.

xalqaro marshrutlar esa 9 raqami bilan belgilandi. Turistik marshrutlarni shu tartibda raqamlashtirish orqali respublika turizm kengashi va unga qarashli viloyat kengashlari nomi, marshrutlar tavsifi (o'n turdan bittasi – temir yo'l, aviatsiya, avtobus va boshqalar), marshrutning xalqaro yoki mahalliy turga mansubligi, tartib raqami kabi ma'lumotlar jamlandi.

Mazkur tartibda raqamlangan marshrutlar bir oy ichida rasmiylashtirilgan asosda to'ldirilgan holda Markaziy turizm Kengashiga jo'natilgan. Turistik marshrutlarni raqamli kodlashtirish ularni markaz tomonidan tekshirib, qat'iy nazorat qilinishiga xizmat qilardi.

Turistik komplekslarni rivojlantirish va yangi marshrutlar faoliyatini jonlantirish maqsadida 1970-yilda Toshkent shahri rejasiga o'zgarishlar kiritildi. Jumladan, O'zbekistonga sayyohlar oqimining ortib borganligi e'tiborga olinib, «Moskva» va «O'zbekiston» mehmonxonalari qurildi²⁰. Muzeylashtirilgan obektlarda turistik marshrutlarni tashkil etish borasida amalga oshirilgan ishlar qisqa vaqt ichida o'z samarasini bera boshladi. 1970-yillarda turizm sohasidan olinayotgan iqtisodiy daromad xorijda o'rtacha 6–8 foizni tashkil etgan bo'lsa, sobiq Ittifoqda bu ko'rsatkich 10 foizni tashkil etgan. Chet el sayyohlik guruhlarining tashrif sanalarini aniqlashtirish va belgilangan marshrutlarda turistlarning mehmon bo'lishi dasturlarini takomillashtirish vazifasi xalqaro turizm bo'yicha ish olib boruvchi boshqarmalar zimmasiga yuklatildi.

Mazkur qaror ijrosi sifatida turistik xarita va chizmalar, alohida yodgorliklar bo'yicha kichik bukletlar, turistlar uchun ommaviy ravishda nashr etiladigan kommunistik mafkura g'oyalarini targ'ib-tashviq qilishga yo'naltirilgan adabiyotlar o'rniga «Isskustvo» nashriyoti tomonidan alohida hududlar bo'yicha «Arxitektura yodgorliklari» seriyasi chop etila boshladi.

O'zbekistondagi tarixiy, madaniy yodgorliklarni ko'chmas eksponatlar sifatida muzeylashtirilib, ommaga namoyish qilinishi mahalliy va xorijlik

²⁰Сутягин С.М. Начало большого города // Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши. – 2000. № 4. – С. 25.

sayyohlarning Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent shaharlariga tashrifini yanada kuchayishiga olib keldi. Ammo turistik marshrutlar reglamentining cheklanganligi, ekskursiyalar davomida sinfiylik tamoyili asosida siyosiy-g'oyaviy mavzularni sayyohlarga singdirishga intilish asosida olib borilardi. Bu masalalar 1960–1970-yillardagi turistlarning ichki dunyosi va psixologiyasini o'rganishga bag'ishlangan ijtimoiy-demografik tahlillarda o'z aksini topgan²¹. Sotsiolog va psixolog mutaxassislarining sayyohlar axborotlarni qabul qilish xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlari O'zbekistondagi tarixiy, madaniy yodgorliklarga turistlarning qiziqishlari yuqori ekanligini namoyon qildi.

1973-yilda O'zbekiston hududida turistik marshrutlarni tashkillashtirish bo'yicha 1974–1980-yillarga mo'ljallangan istiqbolli reja ishlab chiqildi. Marshrutlarni ishlab chiqishda turistlarga ekskursiya obektlari sifatida qadimiy shaharlardagi tarixiy-«inqilobiy» hodisalarni aks ettiradigan yodgorliklar namoyishini hisobga olish qat'iy belgilab qo'yildi²². Natijada tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yodgorliklar e'tibordan chetda qolib ketdi.

Istiqbolli reja asosida 20 kunlik «O'zbekiston bo'ylab», 12 kunlik «O'zbekistonning arxeologik obektlari bo'ylab», 20 kunlik «O'zbekistonning qadimiy shaharlari bo'ylab» marshruti loyihalari ishlab chiqildi.

«O'zbekistonning arxeologik obektlari bo'ylab» deb nomlangan marshrut qadimiy Samarqand, Shahrisabz, Termiz shaharlari uchun tashkil qilingan bo'lib, unda turistlar Zarautsoy qoyatosh suratlari va Qarluq qishlog'i yaqinidagi Ko'hitangtog' g'origa ham sayohat qilishlari mumkin edi. Bu marshrut yo'nalishini sinovdan o'tkazish maqsadida 1973-yilning may oyida 40 kishidan iborat ikkita guruh tuzildi.

²¹Багдасарян В.Э., Орлов И.Б., Мазин К.А., Федулин А.А., Шнайден. Й.Й. Советское зазеркалье. Иностраный туризм в СССР в 1930-1980-е годы. М.: Форум, 2007. – С. 156.

²² ЎЗР МДА, Р-2776-жамғарма, 1- рўйхат, 97-иш, 18-варақ.

O‘zbekistonning janubiy hududlari bo‘ylab joriy etilgan turistik marshrutlar o‘z davri uchun nechog‘li ahamiyatli bo‘lmasin, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlaridagi eng qadimiy sivilizatsiyalar tarixi, o‘tmish ajdodlar madaniyatini o‘rganish uchun kamlik qilar edi. Aytish joizki, Surxondaryo bo‘yicha yangi tuzilgan turistik marshrutlarga Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepa, Kampirtepa kabi arxeologik obektlarni borib ko‘rish kiritilmadi. Mazkur holatni boshqa viloyatlar misolida ham ko‘rish mumkin. Buning asosiy sabablari tarixiy-arxeologik yodgorliklarga olib boradigan yo‘llar noqulayligi va bu hududlarda turistik infratuzilma shakllantirilmaganligi bilan bog‘liq edi.

1973–1980-yillarda xorijiy turistlarning O‘zbekistonda bo‘lishi dasturida sayyohlarning tashrif muddati Toshkent, Samarqand shaharlarida 3 kundan, Farg‘ona, Buxoro, Urganch (Xiva) shaharlarida 2 kundan, jami 12 kun qilib belgilangandi.

Ushbu turistik marshrutlarda:

– Toshkentda – Xalq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasi paviloni, «G‘alaba» madaniyat va istirohat bog‘i, Lenin muzeyi, Toshkent tekstil kombinati, Tekstilchilar madaniyat saroyi, Markaziy Sport saroyi, Amaliy san‘at muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik katta teatri bo‘ylab;

– Farg‘onada – 52-sonli Texnika bilim yurti, Yog‘-moy kombinati, Y.Oxunboboyev nomidagi To‘qimachilik fabrikasi, Y.Oxunboboyev muzeyi bo‘ylab;

– Samarqandda – Ulug‘bek rasadxonasi, Shohizinda majmuasi, Registon majmuasi, Bibixonim masjidi, Go‘ri Amir maqbarasi, Afrosiyob qadimiy shahar arxeologik obekti bo‘ylab;

– Buxoroda – «Zindon» – amir qamoqxonasi, Somoniylar maqbarasi, Chashmai Ayub maqbarasi, Abdulazizxon madrasasi, Kalon minorasi, Miri Arab madrasasi, Toqi Telpakfurushon savdo toqisi, Ko‘kaldosh madrasasi, Nodir Devonbegi madrasasi, Sitorai Mohi Xossa

saroyi, Zardo‘zlik fabrikasi, Qorako‘l paxta tozalash zavodi bo‘ylab;

– Urganchda – Irrigatsiya texnikumi, Bolalar musiqa maktabi, Narimonov nomidagi kolxoz, Xiva shahriga ekskursiya, «Ichan-qal’a» yodgorliklari majmuasi, viloyat o‘lkashunoslik muzeyi bo‘ylab ekspozitsiyalarni namoyish etish nazarda tutilgan edi²³.

Turistik marshrutlarga kiritilgan mazkur obektlarda avvaldan maxsus tayyorgarliklar amalga oshirilgan, ularning tarixi kommunistik mafkura maqsadlaridan kelib chiqib tushuntirilgan va barcha erishilgan yutuqlar davlatning «oqilona siyosati» natijasi, deb izohlangan.

O‘zbekiston hududida turistik marshrutlarni tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar respublikada mahalliy va xorijiy sayyohlikning kengayib borishiga turtki bo‘ldi. Jumladan, 1975-yilda O‘zbekistonga 60 dan ortiq mamlakatdan 92 000 ga yaqin, ittifoqchi respublikalardan esa 263 000 dan ortiq turistlar keldilar.

XX asrning 80-yillarida O‘zbekistonda turistik markazlar faoliyatini jonlantirish maqsadida turistik majmualar tarkibida maishiy savdo binolari loyihalarini yaratishga e’tibor kuchaydi. Sayyohlik bazalari yaratish ustida respublikaning turli ilmiy-loyihalashtirish markazlari ish olib bordi. Jumladan, Toshkent Ta’mirshunoslik va loyihalash ilmiy ishlab chiqarish instituti turistik obektlar faolligini ta’minlash, turizm xizmatlarini tashkil qilish, shaharsozlik bo‘yicha hududlar xaritasi orqali yangi marshrutlar tizimini yaratish ustida ish olib bordi. O‘zbekiston madaniy yodgorliklarini konservatsiyalash, ta’mirlesh va ilmiy loyihalash instituti esa Xiva shahridagi «Ichan-qal’a» majmuasida turizmni shakllantirish bo‘yicha turli ilmiy loyihalar taqdim etdi. San’atshunoslik va Arxeologiya ilmiy tadqiqot institutlarida viloyat, shahar va tumanlarning bosh rejalari hamda ularda joylashgan yodgorliklarning ahamiyati tadqiq etildi. Sayyohlarga maxsus marshrutlar orqali qadimgi O‘zbekistonning tarixiy va madaniy yodgorliklari hamda ulardagi zamonaviy jarayonlar bilan tanishish

²³ ЎзР МДА, Р- 2776-жамғарма, 1- рўйхат, 97-иш, 17-варак.

imkoniyati yaratildi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlar bo'ylab turistik marshrutlar ish boshladi.

Bu shaharlarning har biri turizm markazi sifatida alohida xususiyatga ega bo'lib, mahobatli yodgorliklar Yevropa obidalaridagi «sovuq» koloritidan farq qiluvchi «issiq» ranglar jilosi bilan ham sayyohlarni o'ziga jalb qilar edi. Mazkur harakatlar O'zbekistonning tarixiy yodgorliklarini targ'ib etish va ularni qadimiy an'analar asosida tiklash uchun yetarli emasdi. Turistik markazlar marshrutlari dasturini tuzishda tarixiy shaharlardagi yodgorliklar majmuasi, obidalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning hudud tadrijiy rivojlanishdagi o'rni, tashqi ko'rinishi, joylashuviga ko'ra ko'cha va binolarning bir-biriga uyg'unligi asosida shahar binolari hamda ansambllarini kuzatish imkoniyatlari inobatga olingani holda, loyihalar Moskva tomonidan tasdiqlanar edi. Eng achinarlisi, markaz keraksiz, deb hisoblagan jihatlar undan olib tashlanar, bir loyihani tasdiqlash uchun yillar kerak bo'lardi.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, «O'zbekistonning barcha tarixiy shaharlari ark, chorsu, registon, rasta, chaqar, daha, mahalla, guzar kabi unsurlardan iborat»²⁴. Bu unsurlar bugungi kunda madaniy turizmning noyob eksponatlari sanaladigan jome masjidi, bosh bozor, mahalla markazlari va boshqa jamoat maydoni hamda markazlarida shakllangan me'moriy ansambllar vositasida uyg'unlashgan. Mazkur unsurlar yaxlitligiga qancha ko'p putur yetkazilsa, shaharning badiiyligi shu qadar ko'p yo'qolib boradi. Shunday ekan, tarixiy shaharlar badiiyligini saqlab qolish uchun shaharsozlikda an'anaviylikning zamonaviy taraqqiyot yo'llarini izlab topish lozim. Buning uchun, turistik markazlar tizimida chorsu, guzar kabi ansambl tashkil etuvchi me'moriy unsurlarni aniqlash, ularni yodgorlik sifatida ta'mirlab, yangi shahar tarkibiy qismi bilan uyg'unlashuvini ta'minlash belgilandi.

²⁴Салимов А.М. Основные принципы организации охранной зоны памятников архитектуры // Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши. – 2010. № 2. – Б. 18.

«Tarixiy obidalar joylashgan shaharlarning bosh rejalarini ishlab chiqishda, ularni o'zgartirishda shaharsozlik g'oyasining asosi sifatida hududning iqlim sharoiti, tabiiy landshaftiga, yer osti suvlari va muhandislik tarmoqlarining joylashuvi, temir yo'l hamda avtotransport magistral tarmoqlarining mavjudligiga e'tibor qaratish muhim edi»²⁵.

XX asrda mazkur masalaning diqqat markazida bo'lmaganligi Samarqand, Shahrisabz, Andijon, Toshkentning Chorsu qismidagi an'anaviy me'moriy uyg'unlikning mazkur davr loyihalash mahsuli bo'lgan zerikarli arxitektura inshootlari bilan qorishib ketishiga olib keldi. Ayniqsa, markaz tomonidan loyihalardagi o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan xususiyatlar, milliylikni targ'ib etuvchi jihatlarning chiqarib tashlanishi qadimiy kentlarning an'anaviy hayoti va o'ziga xos muhitini saqlab qolishga qo'yilgan to'siq edi. Markaz tomonidan ajratilgan mablag'lar bu loyihalarni to'laqonli amalga oshirish uchun yetishmasdi.

Shunga qaramay, tarixiy shaharlarda zamonaviy shart-sharoitlarga ega bo'lgan turistik marshrutlarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan shahar xo'jaligi tizimini yaratish, madaniy-maishiy va kommunal xizmatning barcha turlarini qayta qurish, ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy muammolarni yechish loyihalari ishlab chiqildi. Turistlarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tarkibiga sayyohlarni joylashtirish, ovqatlantirish shoxobchalari, transport, ekskursiya xizmati ko'rsatish, madaniyat va sport tashkilotlari, suvenir mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar, savdo rastalari, kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish obektlari kirgan. Natijada, tarixiy yodgorliklar negizida yangi soha – turizm industriyasi yaratildi va mazkur shaharlarni qayta qurish uchun sarflanadigan mablag'lar iqtisodiy jihatdan o'zini oqlay boshladi.

O'zbekistonning turistik markazlarida tarixiy yodgorliklar, me'moriy majmua va ansambllar, dahalar, maydonlar, guzarlar, xonaqoh,

²⁵Максумов Т. А. Ўзбекистон тарихий шаҳарларидаги ютуқлар ва муаммолар // Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши. 2006. № 4. – Б. 9.

masjidlar, madrasalar, ko‘chalar, turar joylar, tabiiy muhit va arxeologik yodgorliklar tanlov asosida qisman umumlantirilib, sayyohlik marshrutlari shakllantirilgan. Har bir yo‘nalish uchun maxsus «Turistik marshrut kartochkasi» tuzilgan. Uning birinchi qismida marshrut nomi, turi, umumiy kilometraji, davomiyligi, turistik guruhlar soni, guruhdagi sayyohlar miqdori, kuniga necha kishiga xizmat ko‘rsatilishi, xizmat ko‘rsatishning boshlang‘ich va so‘nggi sanasi; kartochkaning ikkinchi qismida marshrutlar bo‘yicha harakatlanish dasturi, turistlarni qabul qilgan turistik bazalar va ekskursiya olib borilgan obektlar qayd etildi.

Mavjud ma‘lumotlarni o‘zlashtirgan holda ekskursiya senariysini belgilash, talabgir marshrutlar yaratib, sayyohlarni jalb etish turistik markazlarning asosiy daromad manbaini tashkil etar edi.

Turistik marshrutlar rejasini tuzishda sayohatchilarning talab va takliflari har doim ham e‘tiborga olinmagan. Turistik marshrutlar rejasini tuzish va u bo‘ylab harakatlanishda turistlarni guruhlarga bo‘lgan holda aniq vaqt birligi ichida yo‘nalish tizimi loyihalashtirildi. Bunda, ayniqsa, sayyohlarning har bir manzilda bo‘lish vaqtlarining maqbul va taxminiy rejasi, u joydan-bu joyga harakatlanish vositalari aniq belgilanishi muhim ahamiyat kasb etgan. Yo‘nalish tizimini ishlab chiqish ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, birinchi bosqichda turistik marshrut senariysi, dasturi variantlari ishlab chiqilar, keyingi navbatda esa sayyohlar oqimining tuzilishiga qarab, marshrut rejasining ijtimoiy-iqtisodiy samarasi o‘rganilar edi. Marshrut rejasida ekskursiya mavzusi, uning maqsadi, qisqacha izoh aks etgan. Ko‘chmas obektlar ekspozitsiyasiga ega marshrut ishlanmasida obektning joylashishi, uni tomosha qilish uchun yetarli imkoniyatlar mavjudligi, ekskursantlar xavfsizligi va transport xizmati bilan ta‘minlash holatlari ko‘zda tutilgan. Muzeylashtirilgan ko‘rgazma obektlari ana shu jihatlarni hisobga olgan holda turistik marshrutlar dasturiga kiritilishi zarur edi. Bu turistlarni bir joyga to‘planishi va mehmonxonalarga joylashtirishda qulayliklar yaratardi. Aynan shu omillarning birlashuvi

bilan marshrutlar bo'yicha sifatli ekskursiya ishlarini olib borish mumkin bo'ldi. «1981-yilga kelib, O'zbekistonda aviamarshrutlar soni 70 taga, avtobus marshrutlari 142 taga, temir yo'l marshrutlari 10 taga yetgan».

Fasllar almashinuvi ham turistik marshrutlar tashkillashtirishda asosiy omillaridan biri bo'lib, «xorijiy turistlarning deyarli 70–80 foizi O'zbekistonga bahor va kuz oylarida tashrif buyurgan»²⁶. 1982-yildan boshlab respublika radiosida turistik marshrutlar bo'yicha eshittirishlar tayyorlanishi yo'lga qo'yildi. Mahalliy turizmni rivojlantirish maqsadida davriy nashrlarda «Ekskursantlar burchagi» va «Turist» ruknlari ochildi. Korxonalar va tashkilotlarda «Turizm – eng yaxshi dam olish manbai»²⁷ mavzusida suhbatlar uyushtirildi.

Mazkur davrda tadbirkorlik faoliyatiga ruxsat berilmagani bois, turistlarning milliy suvenir mahsulotlariga bo'lgan talablari to'laqonli qondirilmagan edi. Faqatgina, maxsus suvenir do'konlari va kiosklarda ommaviy ishlab chiqarilgan sanoat suvenirleri, fotoalbom, markalar to'plami sotuvga qo'yilgan edi.

O'zbekistondagi Samarqand davlat birlashgan tarixiy-me'moriy va badiiy muzey-qo'riqxonasi, Buxoro davlat badiiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasi va Xiva «Ichan-qal'a» davlat muzey-qo'riqxonalarini turistik marshrutlarning muhim obektlari bo'lib, asosiy yo'nalishlar shular bo'ylab shakllangan edi. Har bir marshrutning uslubiy ko'rsatmasi ekskursiya byurolari tomonidan ishlab chiqilar, unda muallif, tasdiqlangan sana ko'rsatilar edi. Uslubiy ko'rsatmalar Muzeylar Kengashi tomonidan tasdiqlangan va rasmiy hujjat hisoblangan. Marshrutlardan o'rin olgan shaharlar me'moriy tarixini aks ettiruvchi ekspozitsiyalarda qisqacha annotatsiyalar o'rnatilgan bo'lib, ularda binoning tarixi, davlat muhofazasiga olinishi hamda muzeylashtirilishi bayon qilingan.

Muzeylashtirilgan tarixiy-madaniy meros obektlaridagi xalqaro

²⁶ ЎзР МДА. Р-2776-жамғарма, 1- рўйхат, 45-иш, 5-варақ.

²⁷ ЎзР МДА. Р-2776-жамғарма, 1- рўйхат, 263-иш, 29-варақ.

sayyohlikni rivojlantirishda «1982-yil Turizm va ekskursiyalar bo‘yicha O‘zbekiston kengashi bilan Belgiya xalq turistik tashkiloti, Avstriyaning «Solidaritet», Vengriyaning «Byurosotstur», Chexoslovakiyaning «Kon», GFRning «Ganza», «DTV», Italiyaning «Ekars» turistik firmalari o‘rtasida shartnomalar tuzilganligi katta ahamiyat kasb etdi». Natijada bu firmalar shartnomasi asosida tashrif buyurgan turistlar Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari bo‘ylab tashkil qilingan marshrutlarda erkin sayohat qila boshladilar. Xorijiy turistik firmalar bilan tajriba almashgan mahalliy turistik byuro faoliyatida ham ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. «1983-yilga kelib O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan o‘n bitta turistik bazadan yettitasi va to‘rtta ekskursiya byurolari sayyohlik yo‘nalishlari bo‘yicha rejani to‘liq bajarib, namunali xizmat ko‘rsatdilar»²⁸.

1982-yilga kelib, marshrutlar doirasi ham takomillashtirildi. Turistik marshrutlarning qayta ishlangan dasturiga ko‘ra, mahalliy va chet ellik sayyohlar uchun quyidagi marshrutlar ish olib bordi:

1. Xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun ikki kunlikdan olti kunlik avia tanishtiruv marshruti : Toshkent – Samarqand– Buxoro.

2. Chet ellik sayyohlar uchun sakkiz kunlik va mahalliy sayyohlar uchun o‘n kunlik marshrut: Toshkent (ikki kun) – avia – Samarqand (ikki kun) – avtobus – Buxoro (ikki kun) – avia – Xorazm (ikki-uch kun).

3. Xorijiy sayyohlar uchun sakkiz kunlik va mahalliy sayyohlar uchun o‘n ikki kunlik marshrut: Toshkent (ikki-uch kun) – avia – Farg‘ona (ikki-uch kun)– avia – Samarqand (ikki-uch kun) – avtobus, avtomobil – Buxoro (ikki kun) – avia – Xorazm (ikki-uch kun).

Ushbu marshrutlar ishlanmasi eng faol ish olib borgan dastur sifatida e’tirof etilgan. Turistik marshrutlar respublika poytaxtidan boshlangan. Toshkent shahri turistlarni O‘zbekistonning asosiy sanoat va madaniyat markazi sifatida jalb etib kelgan. Sayohatchilar asosan yetakchi sanoat korxonalarini, yirik ilmiy markazlar, madaniyat muassasalari, muzeylar,

²⁸ ЎзР МДА. Р-2776-жамғарма, 1-рўйхат, 275-иш, 113-варак.

zamonaviy maydon va ko'chalar ansambllari bilan tanishganlar. Turistik marshrutlar dasturida Toshkentning Eski shahar hududi bilan tanishtiruv qismi ham bo'lib, unda mahalliy aholining an'anaviy turmush tarzi aks ettirilgan. Umuman olganda, «Toshkent shahri bo'ylab tuzilgan turistik marshrutlar dasturi eski va yangi shahar qarama-qarshiligida tuzilgan». Unda, birinchi navbatda shaharni sanoatlashtirish jarayonlari ko'rsatilib, keyingi o'rinlarda muzeylar va tarixiy yodgorliklar bilan tanishtirish ko'zda tutilgandi.

Marshrut ish tartibiga ko'ra, sayohat Toshkentdan so'ng Samarqand shahrida davom ettirilgan. Marshrut dasturidan Samarqandning dunyoga mashhur yodgorliklaridan Afrosiyob arxeologik obekti, Registon maydoni, Shohizinda majmuasi, Go'ri Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi, Ulug'bek rasadxonasi va Temuriylar davrining boshqa me'moriy obidalari o'rin olgan edi. Shuningdek, markaziy muzey bazasida ekskursiya byurosi malaka oshirish kurslari tashkil etilgan bo'lib, xalqaro hamkorlik doirsida ham samarali ishlar tashkil etildi. «1977-yildan boshlab Samarqand muzeyi Xalqaro muzeylar Kengashining jamoaviy a'zosi sifatida faol xalqaro faoliyat olib bordi. 1981-yilda esa Samarqandda muzey bazasida Xalqaro muzeylar Kengashining regional konferensiyasi bo'lib o'tdi»²⁹. Unda muzeylashtirilgan obektlarni ko'chmas obekt sifatida konservatsiya qilish, tadqiqotlar olib borish, eksponatlarni tegishli tartib qoida normasi talablari darajasida saqlash tizimiga oid masalalar ko'rildi.

1982-yilda mazkur muzey negizida Samarqand Birlashgan tarixiy-me'moriy va badiiy muzey-qo'riqxonasi tashkil etildi. «Qo'riqxonalar tarkibiga O'zbekiston madaniyati tarixi Davlat muzeyi, Mirzo Ulug'bek va Sadridin Ayniy yodgorlik muzeylari, Kattaqo'rg'on shahar tarixiy-o'lkashunoslik, Ishtixon va Paxtachi tumanlari tarixi muzeylari, Amir Temur maqbarasi va Bibixonim majmualari, Hazrati Hizr masjidi, Nodir

²⁹Махмудов Н, Қаюмов Р. Самарқанд музей дурдоналари. Каталог. «Ўзбекистон маданият тарихи давлат музейи». – Тошкент: «Мозийдан садо» журнали таҳририяти томонидан нашрга тайёрланган. 2004. – Б. 39.

Devonbegi madrasasi, Hoji Doniyor maqbaralari kiritildi»³⁰.

Samarqanddagi turistik markaz marshrutlarini ishlab chiqish va joylashtirishda asosiy e'tibor shaharning zamonaviy hayoti bilan turistik majmua faoliyatini uyg'unlashtirish masalasiga qaratildi. Bundan tashqari, asosiy ko'rgazma obektlari bo'lgan Registon, Go'ri Amir va Bibixonim majmualarini to'liq kuzatish va idrok etish uchun eng qulay shart-sharoit yaratib berish vazifasi turar edi.

Turizm Samarqand va Buxoroning tarixiy me'morchilik yodgorliklarini saqlash, muhofaza qilish, ta'mirlashdagi muammolarni hal qilish uchun kerakli mablag'larni to'plash va sarflash imkoniyatini berar edi. Shaharni rivojlantirishning istiqbolli loyihasini ishlab chiqish uchun amaldagi shaharsozlik holatining tahlillari o'tkazildi. Ta'kidlash joizki, o'rta asr me'moriy yodgorliklari jamlangan Samarqandning tarixiy qismi yaxlit qiyofaga ega emas edi. Nodir me'moriy yodgorliklar ko'p qavatli turar joylar, sanoat korxonalari, jamoat binolari bilan bevosita yonma-yon joylashganligi shaharning me'moriy qiyofasini buzib ko'rsatardi.

Shuning uchun Samarqanddagi turistik marshrutlarni ishlab chiqishda asosiy e'tibor Registon maydonini o'rab turgan inshootlarning tarixiy-me'moriy qiyofasi, atrof bilan uyg'unligi, yodgorlikdagi tashqi ko'rinishni buzadigan binolarning salbiy ta'sirini bartaraf etishga qaratildi. Shuningdek, qadimiy me'moriy majmuani zamonaviy me'morchilik bilan uyg'unlashtirish uchun Registon maydonini o'zgartirish va uni o'rab turgan inshootlarning yaxlit me'moriy-badiiy kompozitsiyasini yaratish masalalariga e'tibor berildi.

Shaharsozlik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning tahlili asosiy turistik majmuani Registon va undan 150 m. oraliqdagi yodgorliklar qarshisidagi maydonga joylashtirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi. Bu yerda qadimiy me'moriy obidalar bilan bir qatorda, bir qancha ikki-uch qavatli

³⁰ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 7-жилд // Қаюмов Р. Самарқанд бадий музей-қўриқхонаси – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2004. – Б. 462–463.

ma'muriy binolar, to'rt-besh qavatli uy-joylar joylashgan edi. Majmuada mehmonxona, turli anjumanlar o'tkazish uchun 600 o'rinli kinokonsert zali, ko'rgazma galereyalari, kinozal, ma'muriy-axborot markazi, restoran, kafe, bar, suzish havzasi, suvenirlar sotiladigan do'konlar, maishiy xizmat binolari joylashgan bo'lib, turistik marshrutlar tizimini to'liq ta'minlash ko'zda tutilgan.

Samarqanddagi barcha inshootlar o'zaro bog'liq bo'lib, yo'lovchilar va transport harakati uchun qulay sharoit yaratilgan. Marshrutlarda qadimgi yodgorliklarning saqlanib qolgan qiyofasini ko'rish uchun maxsus yo'laklar ajratilgan bo'lib, Registonga olib boradigan qiya zinalar o'ziga xos amfiteatrni tashkil qilardi. Bu amfiteatr Registon maydonidagi yodgorliklar muhitida o'tkaziladigan teatrlashtirilgan va musiqiy tadbirlarda tomoshabinlarning joylashuvi, sayyohlarning majmua yodgorliklari bilan tanishuv chog'ida birdek qulaylik yaratgan.

Turistik kompleksning bevosita majmuaga yaqin joylashtirilganligi Bibixonim, Go'ri Amir, Ruhobod va boshqa asosiy yodgorliklarga ekskursiyalarning piyoda o'tkazilishini ta'minlar va bu hududda transport harakatini cheklagan edi. Shu bilan birga, hisobga olingan barcha yodgorliklarga ekskursiyalardan tashqari ham erkin kirib chiqish imkoniyati mavjud.

Ekskursiyadan tashqari, mustaqil turistlar oqimi ikki asosiy yo'nalish, ya'ni Registondan Bibixonim tomon Toshkent ko'chasi bo'ylab va Registondan Go'ri Amir, Ruhobod va Oqsaroy maqbaralari tomon yangi yo'nalish sifatida tiklangan, qadimda hunarmandlik markazi bo'lgan Ittifoq ko'chasi bo'ylab harakatlanar edi.

Marshrut dasturiga ko'ra, Samarqand shahridan so'ng sayohat Buxoroda davom etardi. Turistlar o'rta asr musulmon olamining markazi bo'lgan Buxoro shahridagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Mag'oki Attoriy masjidi (X–XII asrlar), chorraha ko'chalaridagi savdo gumbazlari (tim), Kalon masjidi va minorasi (XVI–XVII asrlar) bilan tanishtirilardi.

Qadimiy Buxoroning tarixiy qismida ko‘plab me‘moriy yodgorliklar – masjid, minora, madrasa, tim, toqlari qatorida qadimiy shahar rejasining unsurlari bo‘lgan tor va boshi berk ko‘chalar tizimi yaxshi saqlanib qolgan. Buxoroning eski shahar qismida qadimiy kentning asosiy yodgorliklar majmuasini birlashtiruvchi Shohrud kanali bo‘yidagi meridional o‘q – shahar darvozasidan ikki maydon – Labi Hovuz majmuasi va Ark qal’asidagi Registon maydoniga olib boruvchi nursimon yo‘nalish, qadimiy Shahristonning to‘rtburchak tarzi aniq kuzatiladi. Shaharning qadimiy asosi faqat markaziy qismidagina saqlanib qolgan.

1960–1970-yillarda Shahristondagi alohida ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy yodgorliklar qiyofasi sezilarli darajada o‘zgartirildi. Qadimiy Buxoroning markaziy qismida an’anaviy me‘moriy yodgorliklar atrofida ochiq makonlarning paydo bo‘lishi, qarovsizlik oqibatida vayron bo‘lgan tarixiy yodgorliklar yonida turar joylar qurilishining kengayishi bilan bog‘liq edi. «Ilgari savdo ko‘chalari chorrahalarini birlashtirib turgan Toqi Telpakfurushon va Toqi Zargaron, shahar savdo gumbazlari kabi ulkan fuqaroviy me‘morchilik yodgorliklari eski shaharning ichki ko‘rinishi nuqtai nazaridan erkin turuvchi obektlar sifatida qabul qilindi».

Tarixiy shaharlarda sayyohlikni rivojlantirishda yodgorliklardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish bilan birga, ularning tarixiy va badiiy qiymatini saqlab qolishga muhim masala sifatida qarash, nafaqat alohida yodgorliklar, balki yangidan tiklangan inshootlar turistik ko‘rgazmaning asosiy obektlaridan biri bo‘lishi kerak edi. Buni shahar hududini to‘ldirgan ko‘plab turar joy binolarining me‘moriy yechimlariga mos keluvchi yangi binolarni qurish yo‘li bilan qadimiy shahar qurilmasiga turizm infratuzilmasini olib kirish bilan hal qilish mumkin edi³¹.

«Savdo gumbazlaridan Toqi Telpakfurushon va Toqi Zargaron turistik marshrutlarning asosiy obekti sifatida qayta tiklandi. Bu yerda hunarmandchilik buyumlari ustaxonalari, suvenirilar, xalq amaliy san’ati

³¹Салимов А.М. Проблемы, условия и задачи охраны памятников Бухары // Маскан. 1993. № 5–6. – С. 15.

buyumlari rastasi, salonlar, milliy taomlar oshxonalari joylashtirildi. Bunday milliy an'analarni targ'ib etuvchi omillar turistlar e'tiborini jalb etuvchi ta'sirchan vositalardan biri bo'lib, mahalliy aholining estetik madaniyatini ochib berar edi». Bu tadbirlar shaharning qadimiy qismida savdoni jonlantirdi va asosiy ekspozitsiya obektlarini turistik markaz muassasalari bilan bir butun qilib bog'ladi. Amalga oshirilgan ishlar turistik marshrutlarga bo'lgan talabni orttirdi va marshrutlar davomiyligini ta'minladi.

Turistik infratuzilmaning muzeylar, ko'rgazma zallari, mehmonxona va milliy taomlar shahobchalari kabi obektlari Buxoro turistik markazida joylashtirildi. «Buxoro turistik markazi davlat me'moriy-badiiy muzey-qo'riqxonasi sifatida 1922-yilda tashkil etilgan. Muzey-qo'riqxonaning bosh idorasi va fond jamg'armasi Buxoro amirining davlat muhofazasiga olingan Ark qal'asi (mil. avv. IV asr – XX asrlar yodgorligi)da joylashgan. Ushbu maskan 1940-yilda Buxoro viloyat o'lkashunoslik muzeyi maqomini olib, 1945-yildan respublika ahamiyatidagi III toifali tarix-o'lkashunoslik muzeyiga aylantirilgan, 1983-yildan Buxoro tarixiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasi sifatida faoliyat ko'rsatib, 1988-yildan respublika ahamiyatidagi I toifali me'moriy-badiiy muzey-qo'riqxonasi maqomini olgan»³². Keyinchalik, marshrut doirasi kengayib Tarix va arxeologiya hamda xalq hunarmandchiligi muzeyi joylashgan Mag'oki Attoriy masjidi, Abdulazizxon, Ulug'bek madrasalari va boshqa yodgorliklar bo'ylab ekskursiyalar ham kiritildi.

O'zbekistonning asosiy turistik markazlaridan yana biri Xiva markazidagi «Ichan-qal'a» majmuasi sayyohlik marshrutlarining tugallanish qismi sanalgan. Ansambl tarzidagi yodgorliklar to'liq saqlanib qolgan shahar XVIII–XIX asrlardagi tarixiy muhitni o'zida aks ettiradi.

Xorazm vohasining janubi-g'arbiy qismi, Qoraqum cho'li

³²Альмеев Р. Бухоро давлат бадий-меъморий музей-қўриқхонаси бўйлаб саёҳат. Бухоронома. – Бухоро. 2000. – Б. 3.

chegarasida, Urganchdan 30 km masofada joylashgan Xiva, undagi Ichan-qal'a majmuasi turistlarda alohida qiziqish uyg'otib, hududning asosiy turistik obekti hisoblanadi.

«Xorazm tarixiy-inqilobiy muzeyi 1920-yil 27-aprelda Xorazm xalq vakillari 1-qurultoyi qatnashchilari ishtirokida Xiva xonlari qarorgohi bo'lgan Ko'hna ark binosining arxonasida ochilgan edi. Muzeyning ochilishiga Maorif va madaniyat ishlari noziri Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va yosh xivaliklar faol qatnashgan edilar. O'zbekiston MSning 1967-yil 30-noyabrdagi 616-sonli qarori bilan Xiva tarixiy-me'moriy qo'riqxonasi deb e'lon qilindi. O'zbekiston MSning 1969-yil 29-iyuldagi 343-sonli Qaroriga muvofiq, Xiva davlat tarixiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasi tashkil qilindi»³³.

Xiva «Ichan-qal'a» davlat muzey-qo'riqxonasi taxminan 30 gektar maydonni egallagan va xom g'isht hamda paxsadan qilingan mudofaa devori bilan o'ralgan. 1970-yillarda hudduda ilk tajribalar asosida «Turistik marshrutlar tashkil etish ishlari muzey, ko'rgazmali ekspozitsiyalar tarzida namoyish etish, mehmonxonalarda milliy taomlar dasturini taqdim etish, suvenirlar savdosini rivojlantirish va ko'ngilochar tomosha tadbirlarini tashkillashtirish bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borilgan». Dastlabki yillardan me'moriy yodgorliklarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish maqsadida aholining an'anaviy uy-joylaridan ham keng foydalangan holda Xiva «Ichan-qal'a» davlat muzey-qo'riqxonasida turistik marshrutlar tashkil etilgan edi. «1980-yillarga kelib, qo'riqxonasi maydonida 60 ta mahobatli me'moriy yodgorliklar va 440 ta an'anaviy uy-joylardan tashkil topgan turistik marshrutlar loyihasi ishlab chiqildi». Loyihaga ko'ra «Ichan-qal'a»da turistlarning faol harakati uchun asosiy turistik marshrutlar, ya'ni yodgorliklarni ko'rib chiqish, tarixiy turar-joylarda istiqomat qilish, bo'sh vaqtni ko'ngilli o'tkazish va boshqalar amalga ko'zda tutildi. Yoz va kuz oylarida ommaviy an'anaviy xalq bayramlaridan

³³Юсупов Х. Хива шаҳрига саёҳат. Йўлқўрсатгич. – Урганч: 2018. – Б. 3.

Qovun sayillari, Paxta bayramida ishtirok etardilar. Muzei-qo'riqxonaga yodgorliklarining bir joyga to'planganligi, Xiva shahri tarixiy qiyofasining barqarorligi turistlarga qadimiy shaharning o'rta asrlar muhitini his qilish imkonini berdi.

«Turistlar marshrutlar doirasida muzei-qo'riqxonaning e'tiborga sazovor joylaridan bo'lgan Muso To'ra madrasasida Xorazm xalq amaliy san'ati, Abdullaxon madrasasida Xorazm gilamlari va Madamin Amin Inoq madrasasida esa sopol buyumlar savdo ko'rgazmalari tashkil etish loyihalari ishlab chiqildi». Mazkur hudud tarkibiga kiruvchi yodgorliklar, uy-joylar va boshqa obektlar ulardan foydalanish tartibiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Arkda Xiva tarixi muzei va teatrlashtirilgan tomoshalar uchun ochiq sahna o'rnatilgan. 1985-yilga kelib, Tosh hovli saroyida san'at va me'morchilik bo'limlariga ega bo'lgan Xorazm tarixi muzeini tashkil qilish rejasi ko'rib chiqildi. Pahlavon Mahmud maqbarasining badiiy bezalgan ichki qiyofasi hech qanday qo'shimcha ekspozitsiyalarsiz ko'rgazma obekti sifatida foydalanish imkoniyatini yaratadi, Ota-darvoza, Aminxon va Qutlug'murot Inoq savdo hujralari mayda suvenirlar – nishonlar, bukletlar va boshqa yodgorlik buyumlarini sotish uchun xizmat qilardi. Islomxo'ja madrasasi milliy taomlar restorani uchun mo'ljallangan bo'lib, Yusuf Yasavulboshi madrasasida chanqoqbosdi ichimliklar savdosi yo'lga qo'yildi. 1986-87 yillarda tajribaviy amaliyot sifatida bu jarayonlar o'z nihoyasiga yetdi.

1990-yillarning boshlariga kelib, hududdagi madaniy turizmga xorijiy tajribalar asosida yondoshuv ishlari boshlandi. Mahalliy xo'jalik buyumlari tayyorlanadigan hunarmandchilik ustaxonalarining qo'shimcha xonalarida ustalar ish joyi maxsus jihozlanib, turistlarga ish jarayonini kuzatish, suvenir tanlash va sotib olish uchun shart-sharoitlar yaratib berildi. Suvenir korxonalariga Tosh hovli saroyi maydoniga yaqin mahallaga joylashtirildi, o'tmishda u yerda bozor joylashgan edi. Shunday qilib, ushbu bozor vazifasi qisman tiklandi va turistlarga Olloqulixon timi orqali Xiva

bozoriga o'tish imkoniyati yaratildi. Bu yerda, shuningdek, hunarmandlarning savdo rastalari, choyxona, raqqoslar, dorbozlarning chiqishlari uchun maxsus sahnalar joylashtirilgan bo'lib, kurash va boshqa an'anaviy ko'ngilochar o'yinlarni tashkil qilinishi turistik marshrutlar sifatini oshirdi. Milliy o'zlikni anglash sharoitida tarixiy shaharlarni qayta jonlantirish, omma e'tiboriga havola etish maqsadida me'moriy yodgorliklarni qayta tiklash va ta'mirlash ishlariga yangicha nuqtai nazardan qarala boshlandi. Ushbu yo'nalishda tadqiqot ishlari olib borilib, muzey-qo'riqxonalar bo'ylab yangi turistik marshrutlar tizimi ishlab chiqish masalalariga e'tibor kuchaytirildi.

O'zbekiston tarixiy va madaniy yodgorliklar negizida turizm industriyasi rasman XX asrning 60-yillarida shakllandi. Respublika madaniy turizmi o'zining dinamik bosqichlariga ega bo'lib, har bir davr xarakterli xususiyatini namoyon etdi.

Dastlabki yillarda O'zbekiston shaharlari bo'ylab tashkil qilingan besh-olti kunlik turistik marshrutlar respublikaning boy tarixiy-madaniy yodgorliklari bilan yaqindan tanishish imkoniyatini bermadi.

1970 - yillarga kelib, barcha turistik yo'nalishlarni yagona tizimli raqamli kodlashtirishga o'tishi turizm sohasi va tashkil qilingan marshrutlarni markaz tomonidan nazorat qilishga olib keldi. Mazkur tizimning ta'siriga qaramay, O'zbekiston xorijlik turistlarni qabul qilish bo'yicha sobiq Ittifoqda to'rtinchi o'rinni egalladi. O'zbekistondagi turizm sohasidan markaz olayotgan iqtisodiy daromad boshqa mamlakatlar turizmidan keladigan sarmoyadan ikki-to'rt foiz ko'p edi.

1980 - yillarda turistik majmualar va maishiy savdo binolarining texnik-iqtisodiy loyihalari yaratildi. Biroq ushbu loyihalarda milliy o'ziga xoslikni targ'ib etuvchi, shaharlarning an'anaviy hayoti va muhitini saqlab qoluvchi jihatlar chiqarib tashlangani oqibatida tarixiy me'moriy yodgorliklar zamonaviy arxitektura inshootlari bilan qorishib ketishi kuzatildi.

1930-yilda Leningrad (Sankt-Peterburg) shahrida sayyohlarga ekskursiya xizmati ko'rsatuvchi maxsus professional gid-tarjimonlar tayyorlash kursi tashkil etildi. Unda turli xorijiy tillarda xizmat ko'rsatuvchi ekskursovodlar uchun o'quv va malaka oshirish kurslari ochildi. 1932-yilga kelib Moskvada turistik industriya uchun maxsus kadrlar tayyorlovchi Turizm-ekskursiya texnikumi tashkil qilinib, unda turizm xizmatlari uchun ilk mutaxassislar tayyorlana boshladi. Sayyohlarga ko'rsatiladigan ekskursiya xizmatlari esa 1936-yilda tuzilgan Turistik-ekskursiya boshqarmasi tomonidan nazorat qilindi. Moskva shahrida joylashgan ushbu tashkilotning boshqaruv idorasi asosiy o'quv qo'llanma va ekskursiya matnlarini tayyorlashga mas'ul edi.

Mamlakatga barcha tashriflar xalqaro turizmga monopol tashkilot hisoblangan «Inturist» Butunittifoq aksiyadorlik jamiyati (1929-y.) nazorati ostida tashkil qilinardi. «Inturist»ning O'zbekistondagi bo'limi hududlar bo'ylab ekskursiyalarni asosan qadimiy tarixiy shaharlar bo'ylab amalga oshirdi.

XX asrning 50-yillarida «Ekskursiya tashkiliy-uslubiy jihatdan kirish suhbatlari, ekskursiyaning asosiy qismi va yakunlovchi suhbatdan iborat bo'lib, kirish va yakunlovchi ma'ruza davrning siyosiy-g'oyaviy qarashlarini targ'ib qilish, asosiy qism muzeylashtirilgan tarixiy-madaniy meros obektlarining shakllanish jarayonlarini qisman yoritishni o'z ichiga olgan». Markaziy reklama-informatsion «Turist» byurosi tomonidan esa ekskursiya va marshrutlar bo'yicha reklama ishlari olib borilib, unda asosan g'oyaviy-siyosiy qarashlarni aks toptirishga e'tibor qaratish O'zbekiston turizm tizimida ham alohida o'rin tutgan. Bular yuqorida ta'kidlanganidek, turistik marshrutlar bilan bir qatorda ekskursovodlar faoliyatida ham keng namoyon bo'lgan.

1960-yilga kelib turistik ekskursiyalarni yaxshilash, sayyohlarning talab va takliflari asosida, ya'ni ularni qiziqtiradigan mavzularda ekskursiya matnlarini tuzishga e'tibor qaratish turistik industriyaning

asosiy sifat belgilaridan biriga aylana boshladi. 1963-yilda Rim shahrida bo‘lib o‘tgan Xalqaro turizm va sayohat masalalariga bag‘ishlangan konferensiyada Rasmiy Turistik Tashkilotlarning Xalqaro Ittifoqi (International Union of Official Travel Organisations, IUOTO) sayohat qilish maqsadida tashrif buyurgan shaxslarni «turist» va «ekskursant» atamasi bilan yuritish taklifini kiritdi. Bu taklif 1967-yilda BMT xalqaro sayohat byurosining bir guruh ekspertlari tomonidan ma’qullanib, 1968-yildan muomalaga kiritildi»³⁴.

«Ekspozitsiya» lotincha «expositio» so‘zidan olingan bo‘lib, «expono» – tomosha uchun ko‘rsatmoq, terib qo‘yish, «satio» – ro‘yxatga olish, bayon etish ma’nolarini anglatadi. Tomosha qilish va tanishtirish uchun qo‘yilgan barcha ashyo va narsalarni ekspozitsiya, deb atash mumkin.

Ta’kidlash lozimki, muzeylashtirilgan tarixiy-madaniy meros obektlarining ekspozitsiyasi asosini faqat turli xil ashyolar emas, balki aniq belgi, shakl va xususiyatlarga ega bo‘lgan tarixiy va madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar - ko‘chmas obektlar tashkil etadi. Ochiq osmon ostidagi ekspozitsiyada ular yangi maqomga ega bo‘ladilar va eksponatlarga aylanadilar.

O‘zbekiston yodgorliklarining muzeylashtirilgan ekspozitsiyasi – aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan, umumiy mavzu va mazmun asosida texnik va badiiy jihozlanib tashkil etilgan, izohlar bilan ta’minlangan, umumiy obektning o‘ziga xos xususiyatlari, uning ijtimoiy ko‘rinishini yaratuvchi ko‘chmas muzey eksponatlarining namoyishidir.

Muzeylashtirilgan yodgorliklarni ekspozitsiya sifatida tanishtirishda tomoshabin uni kuzatishi uchun tayanch nuqtasini belgilashga alohida e’tibor berish kerak. Masalan, mahobatli binolarni yaqindan kuzatish samarali natija bermaganidek, me’moriy yodgorliklarning bezakli

³⁴Тухлиев Н., Таксанов А. Экономика большого туризма. – Тошкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси». 2001. – Б. 9.

qismlarini tomosha qilishda uzoqdan kuzatish ham maqsadga muvofiq emas.

Savol va topshiriqlar

1.O'zbekistonda 1960-1990-yillarda madaniy turizm tarixini tadrijiy asosda tahlil qiling?

2.O'zbekistonda madaniy turizmni rivojlantiruvchi asosiy faktorlar asosan qaysi jarayonlarda namoyon bo'ldi?

3.O'zbekistonning turistik salohiyati qaysi tarixiy shaharlar negizida tashkil etildi va qanday komplekslar yaratildi?

4.O'zbekistondagi mavjud turistik byurolar faoliyatini yoritib bering.

5.O'zbekistonda "Inturist" faoliyatining rivojlanishi?

4-mavzu. Madaniy turizmda turistik ehtiyoj va takliflar

Reja

1. Turizm sohasida turistik-ekskursiyalar.
2. Madaniy turizmda sayyohlik bozorining asosiy muammolari va rivojlanish tendensiyalari.
3. Sayohat uchun qoʻyiladigan asosiy talablar.
4. Taklifning tarkibiy qismlari: tabiiy resurslar, infratuzilma, turizmning moddiy-texnika bazasi, mehmondoʻstlikning madaniy resurslari.

Kalit soʻzlar: turizm sohasi, sayyohlik bozori, rivojlanish tendensiyalari, sayohat, tabiiy resurslar, infratuzilma, turizmning moddiy-texnika bazasi, mehmondoʻstlikning madaniy resurslari.

Muzeylashtirilgan tarixiy-madaniy meros obektlariga sayohat guruhlarini rahbari, yaʼni gidlardan tarixiy shahar xususiyatlari, ekskursiya mavzulari, mahalliy muzeylarning ish vaqtlari, ularda tashkil etilgan ekspozitsiyalar, kirish narxlari hamda boshqa maʼlumotlarni bilish talab etiladi.

Ekskursiyaning asl mohiyati faqat tarixiy obektning koʻrishda emas, balki marshrut ishlanmasi, hikoyani bayon qilishda ishlatiladigan turli usullardan foydalanish, ekskursivodning chuqur bilimi, keng dunyoqarashiga ham bogʻliq. Bunda ekskursantlar bilan tanishish, texnologik xaritaning mavjudligi, ularni obektga kuzatib borish, maʼruza toʻlaqlonliligi, savollarga toʻliq va aniq javob bera olish, sayyohlarda ijobiy taassurot qoldirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ekskursiyaning qiziqarli oʻtishi, uning davomiyligini taʼminlash uchun ekskursivod har bir ekskursant bilan muloqotda boʻlishi lozim.

Ekskursovod ekskursiya davomida tinmay soʻzlamasligi, balki sayyohlar uchun tomosha qilish imkoniyatini ham berishi kerak. Baʼzi bir ekskursiyalarda illyustrativ manbalardan foydalanish maqsadga muvofiq boʻlib, ular tomoshabinlarda obekt toʻgʻrisida toʻliq tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi.

Turizm va ekskursiyalar markaziy Kengashining Markaziy turistik malaka oshirish kurslarida mahalliy va xorijiy turistlar uchun xizmat koʻrsatishda ekskursavod va gid-tarjimonlar tayyorlana boshladi. Bu oʻrinda xorijiy sayyohlarga gid-tarjimonlar tayyorlashda qatʼiy tartiblar inobatga olingan boʻlib, ular ekskursiya jarayonida ijobiy tassurot qoldirishi muhim sanalar edi. Ularning malakasini oshirishda ekskursiya matni, belgilangan obektlar tavsifiga oid maʼlumotlar, kiyinish odobi va etiket qoidalari boʻyicha alohida darslar tashkil etilgan edi.

1969-yil 29-iyulda Oʻzbekiston SSR Madaniyat vazirligi va Chet el turizmi Boshqarmasining «Xorijiy turistlarga badiiy xizmat koʻrsatish sohalarini yaxshilash» toʻgʻrisidagi qoʻshma qarori qabul qilindi. Aynan shu yilda Samarqand shahrining 2500 yillik yubileyi ham nishonlandi. Yubiley doirasida xorijiy tillar mutaxassisligiga oʻqitilayotgan talabalar ham koʻngilli sifatida ekskursiya olib borish faoliyatiga jalb etildilar. Ushbu sana munosabati bilan AQShdan tashrif buyurgan turistlar guruhi rahbari Tomas Rix: «Biz tarixchi sifatida albatta tarixiy yodgorliklaringizga eʼtibor qaratdik, bunda olib borilgan ekskursiyalar sifati hamda gidlarning mahorati eʼtiborli boʻldi», – degan fikrlarni bildirgan edi¹.

Oʻzbekistonda Samarqand, Toshkent, Xiva yoʻnalishlari ilk turistik marshrutlar tashkil etilgan shaharlar boʻlib², 1973-yildan ular qatoriga Fargʻona yoʻnalishi³, 1978-yildan Shahrisabz shahri yoʻnalishlari qoʻshildi. Bu tarixiy shaharlar boʻylab maxsus turistik ekskursiya loyihalari ishlab chiqildi. Ekskursiyalarni olib boruvchi gid-tarjimonlar uchun uslubiy

¹ ЎЗР МДА, Р-2753-жамғарма, 1-рўйхат, 47-иш, 2-варақ.

² ЎЗР МДА, Р-2753-жамғарма, 1-рўйхат, 46-иш, 12-варақ.

³ ЎЗР МДА, Р-2753-жамғарма, 1-рўйхат, 23-иш, 26-варақ.

qo‘llanmalar ishlab chiqilgan bo‘lib, unda yo‘nalish tavsifi, mavjud tuzumning siyosiy-g‘oyaviy axborotlari yoritilgan edi⁴. Turizm va sayohatlarni tashkil etish bo‘yicha instruktiv va metodik qo‘llanmalar tizimli ravishda takomillashtirib turildi.

Muzeylarda xorijiy tillarni biladigan ekskursovodlarning yetishmasligi ekskursiyalar o‘tkazishda noqulayliklar keltirib chiqarardi. Xorijliklarga asosiy ekskursiyalar rus va ingliz tilida olib borilar edi. Toshkent shahridan boshqa hech qayerda mehmonxona va aeroport qoshidagi «Soyuzpechat» do‘konlarida chet tillardagi turistik xaritalar, sayyohlik reklamalariga asoslangan maxsus gazeta va jurnallar yetkazib berilmas, bular esa tashrif buyuruvchilar e’tiroziga sabab bo‘lard.

Ekskursiya xizmati ekskursantlarga ko‘rsatiladigan mustaqil xizmat turi bo‘lish bilan birga, turistik mahsulotlarning asosiy qismi hamdir. U shartli va tavsiya etiladigan turlarga bo‘linadi. Shartli ekskursiya xizmati xavfsizlik, sog‘liqni saqlash, turar joy bilan ta‘minlash kabilarni o‘z ichiga olsa, tavsiya etiladigan ekskursiya xizmatida qulaylik, qiziqarlilik, badiiy didlilik masalalariga e’tibor qaratiladi. Respublikada maxsus ekskursovodlar Turizm va ekskursiyalar Markaziy Kengashi tomonidan tayyorlanib, bu boradagi tajribali xodimlar «Turizm va ekskursiyani rivojlantirishdagi xizmatlari uchun» faxriy belgisi bilan taqdirlangan.

Ekskursovodlar tayyorlash va ekskursiya olib borish ishlari bo‘yicha Buxoro ekskursiya byurosi oldingi o‘rinda turgan. Tadqiqotchi N.Sodiqova yozganidek, «1973-yilda Buxoro muzey-qo‘riqxonasida ekskursiya byurosining tashkil etilishi sayyohlik ishini birmuncha yaxshiladi. Tashriflar soni yuz ming kishiga ortdi va 2386 ta ekskursiya o‘tkazildi. Shu jumladan, Buxoro arkida 1166 ta, zindon burchagida 257 ta, Xalq amaliy san’ati bo‘limida 233 ta, shaharning tarixiy va me’morchilik yodgorliklarida 246 ta ekskursiya tashkil etildi».

Ekskursovodlar tayyorlash tizimini takomillashtirish natijasida 70-

⁴ ЎЗР МДА, Р-2753-жамғарма, 1-рўйхат, 14- иш, 34-варақ.

yillar o'rtalariga kelib, malakali mutaxassislar soni oshdi hamda rus va ingliz tillaridan tashqari fransuz, ispan, arab va boshqa bir qator tillarda ekskursiya olib borish yo'lga qo'yildi. Shuningdek takomillashuv turistlar sonini ham ko'payishiga olib keldi. «1975-yilgacha O'zbekiston SSRga 90 dan ortiq mamlakatdan 450 mingga yaqin sayyohlar tashrif buyurdi. 1976-yilda respublikada 5 ta sayohat va 16 ta ekskursiya byurosi, 38 ta turistlar klubi mavjud edi»⁵.

1980-yil 27-sentabrda Umumjahon turistik tashkilotining ochilish marosimi bo'ldi. Shu munosabat bilan har yili 27-sentabrda «Xalqaro turizm» kunini nishonlash an'anaga aylandi va birinchi yil «Turizm – hayot sifati» shiori ostida o'tdi. O'zbekistonda 1981-yildan boshlab 27-sentabr Jahon turizmi kuni sifatida nishonlana boshladi.

1986-yilda Turizm va ekskursiya bo'yicha O'zbekiston Chet el turizmi bosh boshqarmasi, «Sputnik» xalqaro yoshlar turizmi byurosi, televideniya va radio eshittirishlarida turizm va ekskursiya masalalarini yoritish bo'yicha «Turizm sarhadlari» respublika tanlovini e'lon qildi. 1986-yilning 27-sentabridan 1987-yilning 1-iyuliga qadar davom etgan tanlovni o'tkazishdan maqsad inson dunyoqarashini boyitishning muhim omili bo'lgan turizm va ekskursiya masalalarini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritishdan iborat edi.

1980–yillar oxiriga kelib, turistlar tashrifi bir muncha erkinlashuvi munosabati bilan tashkil qilinadigan ekskursiyalar mazmun-mohiyati va doirasi kengaydi. Ekskursiyalar ikki xil, ya'ni keng qamrovli va aniq mavzuga oid turlarni tashkil etdi. Keng qamrovli ekskursiyalar muayyan bir hudud bo'ylab bir qator ekskursiya obektlarini qamrab olib, tarixiy, iqtisodiy, siyosiy mavzularni umumlashtirgan, ulardan tarix, madaniyat yodgorliklari, sanoat va qishloq xo'jaligi masalalari ham o'rin olgan. Bu turdagi ekskursiyalar asosan rasmiy delegatsiyalar tashrifi jarayonida tashkil qilingan. Ularda siyosiy-g'oyaviy masalalar, mahalliy iqtisodiy

⁵ ЎзР МДА. Р-2753-жамғарма, 1-рўйхат, 14- иш, 39-варақ.

rivojlanish jarayonlari, maorif sohasi va aholi turmush tarzi bilan tanishtirilgan.

Aniq mavzuga oid ekskursiyalar muzeylashtirilgan obektlar, ya'ni tarixiy-arxeologik, me'moriy, tabiat yodgorliklari, o'lkashunoslik, etnografik, memorial muzeylar, san'atshunoslik, haykaltaroshlik namunalari joylashgan hududlar bo'ylab tashkil etilgan turistik marshrutlarda olib borilgan. Mazkur davrda aksariyat ekskursiyalar asosan aniq mavzuga asoslangan bo'lib, ular tarix, me'morchilik, san'atshunoslik sohalarini aks ettirgan. Ekskursiya ma'ruzalarini tayyorlashda ilmiy yondashuvlardan chekinish bilan birga turistlarga ruhiy ta'sir qilishni hisobga olgan holda g'oyaviy-siyosiy qarashlarni uyg'unlashtirgan maxsus senariy dasturlaridan foydalanilgan. «Ekskursiyalarni tashkil etish, ular matnini yaratish Turizm va ekskursiya Markaziy Kengashi, Chet el turizmi boshqarmasi, «Sputnik» xalqaro yoshlar turizm byurosi, Mudofaa vazirligining turizm va ekskursiya boshqarmasi va Xalq ta'limi boshqarmasi hamkorligida amalga oshirilgan».

Ekskursiyalar ekskursantlar guruhining tarkibiga qarab, ya'ni katta yoshdagilar yoki kichik yoshdagi bolalar, mahalliy aholi yoki xorijliklar, maxsus guruhlar yoki yakka tartibdagi turistlar uchun tashkil etilar, mavzu ekskursantlarning yoshiga qarab belgilanardi. Mazkur tasnif ekskursantlarga differensial xizmat ko'rsatishni ta'minlagan. Ta'limiy maqsadlarda muzey va tarixiy obektlarga tashkil etiladigan ekskursiyalar Markaziy bolalar ekskursion-turistik markazi va Xalq ta'limi Vazirligi hamkorligida ishlab chiqilgan⁶. Maktab o'quvchilariga o'lkashunoslik turizmi bo'yicha maxsus to'garaklar ham ish olib bora boshladi.

Muzeylarda tashkil etiladigan ekskursiyalar – davlat, uy muzeylari, tasviriy san'at galereyalari, badiiy ko'rgazmalar va boshqa joylarda o'tkaziladi. Muzey va tarixiy yodgorliklar bilan tanishish turistlarga

⁶ Путрик Ю.С. История туризма. – М.: Профиздат, 2014. – С. 196.

aholining turli tarixiy davrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayoti, badiiy-estetik dunyoqarashi, an'analarning saqlanib qolish darajasi, milliy madaniyat va san'atini solishtirma tahlil etish imkonini beradi.

Tashkil etiladigan ekskursiyalar davomiyligini o'rganish ularning muddati 2–3 kundan kam bo'lmaganligini ko'rsatdi. Marshrutlar ishlanmalari loyihasida 3–4 soatlik tanishtiruv jarayonida 15–20 ta ekskursiya obektini ko'rish nazarda tutilganligi kuzatildi.

Ekskursiyalar faoliyatiga qarab asosan jamlangan, ya'ni bir vaqtning o'zida bir qancha «Inturist» avtobuslarda harakatlanuvchi sayohatchilar guruhlarini birlashtirgan shaklda ham tashkil etilib, har bir avtobusdagi sayyohlar guruhiga maxsus ekskursovod biriktirilgan. Shuningdek, har bir avtobusda ixtiyoriy tarzda teatrlashgan ko'rinishlar, folklor dasturlari tashkil etilgan. Bunday ekskursiyalarni olib boruvchi gidlarni tayyorlash uchun maxsus jihozlangan avtobuslarda o'quv darslari olib borilar edi.

Inturistning O'zbekiston bo'limida hududlar bo'yicha Ekskursiya byurolari tashkil etilgan. «Byurolardagi har bir gid-tarjimon yiliga o'rta hisobda 600–700 ta turistga xizmat ko'rsatgan»⁷. Turist sayohatga chiqish oldidan o'zi boradigan joydagi turistik markazlar, ekskursiya xizmatlarining turlari, obektlar haqida ma'lumot olishi, o'zi mustaqil sayr etishi uchun yetarlicha axborot beruvchi yo'llanmaga ega bo'lishi lozim. Bu maqsadda Davlat matbuot komiteti tomonidan xorijiy sayyohlar uchun rus, ingliz, nemis va fransuz tillarida ekskursiya chizmasi aks ettirilgan, shahar haqida ma'lumot beradigan qo'llanmalar chop etila boshlandi. Xususan, 1968-yildan boshlab barcha turistik markazlar haqidagi ma'lumotlar jamlangan «O'zbekiston» nomli bukletlar nashrdan chiqdi⁸ va ekskursiyalar boshlanishi arafasida sayyohlarga tarqatish yo'lga qo'yildi.

1970-yilda namuna tarzida «O'zbekistonga xush kelibsiz» deb

⁷ ЎЗР МДА, Р-2753-жамғарма, 1-рўйхат, 28-иш, 28-варақ.

⁸ ЎЗР МДА, Р-2753-жамғарма, 1-рўйхат, 36-иш, 10-варақ.

nomlangan turistik markazlar haqidagi qisqacha axborotnoma ingliz va nemis tillarida 50, fransuz tilida 30 nusxada chop etildi. Tajriba tariqasida ilk bor O‘zbekistonning qadimiy Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona, Urganch shaharlari haqida axborot-ma’lumotnomalar (spravochniklar) rus, fransuz, nemis tillarida 10, ingliz tilida 15 nusxada nashrdan chiqarildi. Shu bilan birga, 40x40 hajmli, rangli reklama fotolari joylashtirilgan 10 dona suvenir bukletlari, turli taqvimlar, yon daftarchalar ham tayyorlandi⁹. Toshkent aeroportida O‘zbekistonning turistik markazlari va marshrutlari aks etgan reklama pannolari joylashtirildi. Bunday chora-tadbirlar ekskursiya xizmati ko‘rsatish va yo‘l ko‘rsatkichlar hamda qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘lgan turistlarning ekspozitsiyalar bilan tanishish jarayonini yengillashtirdi.

1970-yillardan boshlab chet ellik turistlarning Xiva, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Farg‘ona kabi shaharlarga tashrifi yildan-yilga ortib bordi. Turizm va ekskursiya byurosining Samarqandda xorijiy sayyohlar uchun tashkil qiladigan ekskursiyalari eng yaxshi loyihalardan biri bo‘lib, ekskursiya rejasiga Bibixonim masjidi, Shohizinda majmuasi, Go‘ri Amir maqbarasi kabi diqqatga sazovor obidalar kiritildi. 1971-yilda Samarqand viloyati Ekskursiya byurosi 2000 ta mahalliy, 315 ta xorijiy sayyohga, O‘zbekiston bo‘yicha jami turistlarning 16 % ga xizmat ko‘rsatdi.

1973-yilda Samarqand Ekskursiya byurosi Ekskursiya xizmati ko‘rsatuvchi asosiy markazga aylandi. Byuro tomonidan tuzilgan «Samarqandning tarixiy-me’moriy yodgorliklari» nomli ekskursiyalar turkumi shaharning tarixiy, me’moriy yodgorliklari va muzeylari bilan yaqindan tanishish imkoniyatini berdi. Shunindek, Byuro tomonidan Toshkent, Buxoro, Shahrisabz shaharlariga ham ekskursiyalar tashkil etila boshlandi¹⁰.

⁹ ЎЗР МДА, Р-2753-жамғарма, 1-рўйхат, 36-иш, 27-варақ.

¹⁰ ЎЗР МДА, Р-2776 жамғарма, 1-рўйхат, 87-иш, 15-варақ.

Turizm va ekskursiyalar bo'yicha Markaziy Kengashning 1976-yil 17-mayda qabul qilgan «Chet ellik turistlarni qabul qilish va xizmat ko'rsatishni yaxshilash choralari haqida»gi qarori asosida O'zbekiston Kengashi bir qator tadbirlarni belgiladi. Unda 1979-yilgacha joriy kamchiliklarni bartaraf etish, chet ellik turistlar uchun ekskursiya marshrutlari va mavzularini belgilab olish, o'tkaziladigan ekskursiyalar matnlari nashr qilingan uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, xorijiy sayyohlarga ekskursiya xizmati ko'rsatish uchun ekskursovodlar tayyorlash vazifalari ko'zda tutilgandi. Markaziy Kengashning doimiy kurslarida ekskursovodlarni o'qitish va qayta tayyorlash ishlari amalga oshirila boshladi. Kengash tomonidan ekskursiya xizmati ko'rsatishni yaxshilash va kengaytirish maqsadida 23 ta yangi mavzular ishlab chiqildi.

Sayyohlar oqimining keskin ko'payishi turistik nashrlar adadini ko'paytirishni taqozo etdi. O'zbekistonga kelayotgan xorijiy sayyohlarning soni yiliga 100 ming kishidan ortgani holda, ularga 150 nusxa (turli tillardagi) axborot-ma'lumotnoma to'g'ri kelar edi. Sohada malakali mutaxassislar tayyorlash va ekskursovodlar uchun uslubiy qo'llanmalar yaratish muammo darajasiga chiqdi. Mazkur muammoni hal qilish maqsadida Samarqand sayohat va ekskursiyalar byurosi qoshida har yili ekskursovodlarni tayyorlash bo'yicha kurslar tashkil qilina boshladi. Ekskursiya ishlarining rivojida Samarqand shahri muzeylari va teatr jamoalari ham katta amaliy yordam ko'rsatdilar. Muzeylarning ilmiy xodimlari ekskursovodlarni tayyorlash, ekspozitsiyalarni yuqori saviyada tashkil etishda faol ishtirok etgan bo'lsalar, teatr xodimlari nutq mahoratini o'rgatish bilan birga, turistik bazalarda sayyohlar uchun konsertlar namoyish qilgan¹¹.

1980-yilga kelib, respublikaning turistik va ekskursiya tashkilotlarida 800 dan ortiq, shuningdek, 133 ta korxonalar va 54 ta muzeylarda bir qator malakali ekskursovodlar ishlay boshladi. Ekskursiya

¹¹ ЎзР МДА, Р-2776-жамғарма, 1-рўйхат, 87-иш, 16-варак.

xizmatlarini takomillashtirish maqsadida «Turizm va ekskursiyalar bo'yicha Respublika kengashining eng yaxshi ekskursivodi» tanlovi o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.

«1980-yilda respublika turistik markazlari tomonidan xorijiy sayyohlarga 400 dan ortiq mavzularda ekskursiya xizmatlari ko'rsatildi. 1981-yilda respublikadagi 41 ta ekskursivodlar tayyorlash kurslari ochilib, ularda shu yili 90 ta, 1982-yilda sayohat byurosi 698 xil mavzuda ekskursiya olib bordi. 1981-yilda viloyatlar esa 178 ta ekskursivod tayyorlandi. Bu paytga kelib O'zbekistonning Turizm va ekskursiya byurolarida 166 ta oliy ma'lumotli ekskursivodlar faoliyat olib bordilar».

Respublikaga sayyohlar oqimini yanada ko'paytirish maqsadida ekskursiya mavzularini ham yangilab borishga e'tibor qaratildi va 1981-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Turizm va ekskursiya byurosining «1982–1985-yillarda ekskursiya mavzularini kengaytirish to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Qaror ijrosi jarayonida tashkilotchilik va reklama ishlarining sustligi hamda ba'zi bir ekskursiyalarga talabning umuman yo'qligi tufayli bir qancha mavzular bo'yicha ekskursiyalar xo'jalik rejasidan chiqarib tashlandi va yangi ekskursiya dasturlari ishlab chiqildi. Jumladan, 1982-yilda Toshkent Turizm va ekskursiya byurosi tomonidan birinchi marta urush va mehnat faxriylari uchun «Veteran» turistik poyezdi tashkil etildi. Unda 300 dan ortiq faxriylar O'zbekiston shaharlari bo'ylab tashkil etilgan ekskursiya marshrutlarida ishtirok etdilar.

Qayd etib o'tish lozimki, bu davrda aksariyat ekskursiyalar, hatto mahalliy turistlarga ko'rsatiladigan ekskursiya xizmati ham rus tilida olib borilardi. Jumladan, 1981-yilda tayyorlangan 90 ta ekskursivoddan 31 kishi Turizm va ekskursiya byurosi uchun tanlab olingan bo'lsa, ulardan faqat 18 tasi o'zbek tilida ekskursiya olib bora olgan.

Bu davrda Toshkent turizm va ekskursiya byurosining uslubiy bo'limi viloyatlarga ekskursiyalarni tayyorlash va ularni amaliyotga tatbiq etish uchun yo'llanmalar ishlab chiqish bilan shug'ullangan. Ekskursiya

byurolarida mahalliy sayyohlar uchun to'rtta yangi yo'nalish – san'atshunoslik, tabiatshunoslik, me'moriy-shaharsozlik va maktab uslubiy seksiyalari ish olib bordi¹². Bu seksiyalar ishchilar, talabalar va maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishga qaratilgan bo'lib, ularning ijodiy salohiyatlari va qiziqishlariga qarab ekskursiyalar tashkil etish imkonini berar edi. Mazkur ekskursiyalarda ekskursovodlar O'zbekistonning iqtisodiyot, fan, madaniyat va boshqa sohalarda erishgan yutuqlari haqida ham ma'lumotlar berar edilar.

1981–1985-yillarda O'zbekistonda turizm va ekskursiya xizmati kengaydi va aholiga ko'rsatilgan turistik-ekskursion xizmatlar hajmi 34,5 mln. rubldan 59 mln. rublga o'sdi. Besh yil ichida xorijiy turistlarga 257 mln. rubllik xizmatlar ko'rsatildi. Ekskursiya byurolari orasida Buxoro, Xiva, Andijon, Nukus, Shahrisabz, Termiz kabi 9 ta sayohat va ekskursiyalar byurolarining faoliyati yaxshilandi¹³.

Mazkur bo'limda ko'rib o'tilganidek, O'zbekiston muzey va tarixiy yodgorliklarida turistik ekskursiya xizmatini tashkil etish borasida amalga oshirilgan ishlar keng qamrovli bo'lib, sohaning qator muammolar bilan birga e'tiborli jihatlarini ham ko'rsatadi. Sayyohlik ma'naviy hordiq chiqarishning eng maqbul usullaridan biriga aylangan XX asrda tarixiy, madaniy yodgorliklar, muzeylashtirilgan obektlarda turistik ekskursiya xizmatini tashkil etish katta ahamiyat kasb etib, mavzu, maqsad, vazifalar, obektlarni belgilash, matn, texnologik xaritani tuzish va ekskursiya marshrutini tasdiqlatish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Ma'lum bo'lishicha, tarixiy-madaniy meros obektlarining muzeylashtirilgan ekspozitsiyalarida tashkil qilinadigan ekskursiyaning asl mohiyati faqat tarixiy obekt bilan tanishish emas, balki marshrut ishlanmasi, ekskursovodning bilim va mahoratiga ham bog'liq. 1960–1980-yillarda respublikada xorijiy va mahalliy tillarni biladigan

¹² ЎзР МДА, Р-2776-жамғарма, 1-рўйхат, 87-иш, 81-варак.

¹³ ЎзР МДА, Р-2776-жамғарма, 1-рўйхат, 312-иш, 12-варак.

ekskursovodlarning yetishmasligi muzey va tarixiy yodgorliklarda tashkil etiladigan turistik ekskursiyalarni o'tkazishda qator muammolar tug'dirdi. Keyinchalik ekskursivodlar tayyorlashning sifat bosqichiga ko'tarilishi til muammolarini ham bartaraf etdi.

Turizm uchun madaniy mahsulotni ishlab chiqarishni xolisona tahlil qilish.

Maqsadiga ko'ra vaziyatni tahlil qilish resurslarning *inventarizatsiyasi* sifatida talqin qilinishi mumkin. U ikki yo'nalishda olib boriladi: mahsulotni tahlil qilish, makro - va mikroiqtisodiy darajalarda tashqi muhitni tahlil qilish.

Birinchi yo'nalish mahsulotni tahlil qilish.

Mahsulotni tahlil qilish quyidagilardan iborat bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishga qaratilgan:

1) maqsadli madaniy boyliklaridan foydalanishning hozirgi holati yoki uning uchta tarkibiy qismidagi madaniy ahamiyatga ega bo'lgan jihatlari- mahsulotning asosi, kutilayotgan va kengaytirilgan mahsulot;

2) mahsulotni rivojlantirishning potentsiali (potensial mahsulotni shakllantirish).

Mahsulot yadrosini tahlil qilish umumiy mahsulotni va uning foydalarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, madaniy yodgorliklarning xilma-xilligi va madaniy resurslarning ko'p o'lchovli bo'lishi ko'plab kengaytirilgan mahsulotlarning mavjudligiga olib keladi, bu maqsad sayyohlar uchun alohida, sayyohlik hududi uchun alohida foydali. Destinatsiya turidagi mahsulotning ta'rifi sayyohlarning barcha toifalari turli manfaatlarni ko'zlashga intilishi va turli manfaatlarga ega bo'lishi bilan bog'liq. Shu ma'noda destinatsiyaning umumiy mahsuloti musiqiy ko'ngilochar va tarixiy bog'lar uchun musiqa festivalini tashkil etish, oilaviy o'yin-kulgilarni tashkillashtirish bilan qiziqarli. Xuddi shunday yondashuv muzey, madaniy va tarixiy zahiralari, teatr va boshqa madaniy maskanlar uchun ham maslahat beriladi. Shu yerning o'zida turli

mahsulotlar iste'molchilar hukmiga taqdim etilishi mumkin. Misol uchun, Ermitaj – bir vaqtning o'zida badiiy kolleksiya, arxeologik muzey, musiqiy teatr, yirik ilmiy-tadqiqot-restavratsiya majmuasi, qirollik oilasining yashash manzili bo'lib xizmat qila oladi. Bundan kelib chiqib, mahsulot yadrosini tahlil qilish vazifasi quyidagilarni aniqlashdan iborat:

1) birinchi navbatda, sayyohlik bozorida taqdim etilayotgan madaniy mahsulotlar sirasiga kiradigan mavjud merosiy mahsulotlar;

2) Ikkinchidan, barcha foydalanilmayotgan madaniy resurslarning xilma-xilligini aniqlash, potensial nuqtai nazaridan qiziqarli mahsulotlarni ko'paytirish (go'yoki, yangi meros mahsulotlarni taklif etish yoki mavjud madaniy mahsulotlar kengaytirish).

Kutilgan mahsulot, qoidaga ko'ra, real "minimalistik" merosiy mahsulot, shuningdek, sayyohlarning talabi bilan merosiy mahsulotlardan foydalanish darajasi bo'lib, mahsulot ishlab chiqarishning bir nechta zaruriy xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Bu ahamiyati jihatidan, sayyohlarning meyoriy hayotiy sharoitlarini yaratish va xavfsizligi ta'minlash, shuningdek, talqin qilishning kichik darajasidagi foydali jihatlarini ko'rsatishi va sayyohlarning madaniy axborotlarni o'rganish imkoniyatlari shaklini vujudga keltirishi hamda yaratilgan sharoitlar natijasida ko'p jabhali obektlarga bo'lgan muhabbatini shakllantirishiga xizmat qilishi lozim.

Mahsulot taklif etish tahlilining bir qancha zaruriy jihatlarini ajratib ko'rsatish muhim:

Noyob xususiyatlari bilan xarakterlanadigan sayyohlarning faoliyat yo'nalishini aniqlash, barqaror kompetensiyasini shakllantirish tashrif buyuruvchilarning madaniy qadamjolarga e'tiborini qaratishda va afzalliklarni ko'rsatishda ahamiyat kasb etadi. Boshqalarni asosiy maqsadga jalb eta turib tashkilot o'ziga yangi turdagi mijozlarni atrofiga yig'ishi mumkin. Deylik, muzey, teatr, konsert zallari, do'konlarga sayohat ortidan ularga ergashuvchi ommani ham qiziqtirishi, atrofdagilarning

ko'ngliga sayohat uchun orzu-havas uyg'otishi mumkin.

2. Sayyohlik resurslarining o'ziga xosligi: "ichki" (bevosita) va "tashqi" sayyohlik nuqtai nazaridan jozibadorligi bilan ajralib turadi. Shuni inobatga olib:

Vaqt va makonda joylashgan "tashqi" madaniy resurslarni aniqlash. Xususan:

- Ushbu obektga aloqador bo'lmagan, lekin hududiy foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan madaniy va boshqa sayyohlik resurslari (ehtimol ular bilan birgalikda sayyohlik mahsulotlarini shakllantirish, masalan, resurslar bilan birlashishga asoslangan tematik yoki "paket" ni yaratish uchun ishlatilishi mumkin, va hokazo);

- ushbu obektning madaniy resurslari bilan bog'liq "chorrahalar" mavjud madaniy tadbirlar.

Madaniy turizm uchun mahsulot ishlab chiqarish va iste'mol qilishni ta'minlaydigan tashqi resurslarning infrastrukturasi aniqlash:

- sayyohlar oqimini ta'minlovchi yaqin atrofdagi joylar (yo'l kesishmalari, mehmonxonalar, motellar, dengiz va daryo portlari va boshqalar);

- xizmat ko'rsatish uchun foydalanish mumkin bo'lgan tashkilotning mavjudligi doirasida joylashgan bo'lishi: sayyohlik axborot markazlari, yodgorlik do'konlari, milliy taomlar restoranlari va boshqalar.

3. Mahsulotni oqilona muvofiqlashtirish tizimida yengilliklar va uning taassurotlari, ya'ni "imtiyozlar" sxemasiga muvofiq sayyohlik mahsulotlari (ya'ni, madaniy resurslar)ni joriy ta'minotini tahlil qilish. Bunday tahlil quyidagilarni ta'minlaydi:

- Iste'molchilarning mavjud mahsulotlarga ehtiyoji muvofiqlik darajasini baholash:

- Iste'molchilarning guruhi uchun talqin qilinayotgan mahsulotlarning zaruriy va o'zgargan yo'nalishlarini aniqlash, xususan, madaniy mahsulotlarni yetkazib berish uslubidagi o'zgarishlar (masalan,

taassurot uygʻotish maqsadida jonliroq tarzda) va texnologiyalardan foydalangan holda sensor kanallarini yetkazib berish uchun madaniy obektlarning spektr imkoniyatlarini yanada kengroq qoʻllanishi, shuningdek, madaniy sarmoyaning mobilitsiyasi, xotira va fikrlashni faollashtirish yoʻli, his-tuygʻu va tasavvurlar olamini uygʻunlashtirish va obrazli ifoda etish.

Mazkur bozor segmentiga yoki bozorning boshqa segmentiga mos keluvchi mahsulotlarni chiqarish, pozitsiyasi oʻzgartirilgan mahsulotlarni asoslash uchun maʼlumot berish hamda tashrif buyuruvchilarning potensial guruhi ehtiyojiga mos keladigan mahsulotlarning xususiyatlarini taʼminlashga imkon yaratadi.

Koʻrinib turibdiki, mahsulotlarni tahlil qilish, taʼsir doirasini kengaytirish va xususiyatlari haqida batafsil koʻrsatish sayyohlar oqimining yetarli maʼlumotlarga ega boʻlishida xizmat qiladi. Bu oʻz oʻrnida sayyohlar tomonidan istalgan samara darajasi va zavq olish ishtiyoqini qoplashida ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Savol va topshiriqlar

1. Turizm sohasida turistik-ekskursiya xizmatlarining rivojlanish jarayonlarini izohlang.
2. Madaniy turizmda sayyohlik bozorining asosiy muammolari va rivojlanish tendensiyalari nimalardan iborat
3. Sayohat uchun qoʻyiladigan asosiy talablarni izohlang
4. Taklifning tarkibiy qismlari: tabiiy resurslar, infratuzilma, turizmning moddiy-texnika bazasi, mehmondoʻstlikning madaniy resurslarini izohlang.

5-mavzu. Turizm motivatsiyasi va xalqaro sayyohlik qonunchiligi

Reja:

1. Turizmning motivatsion jihatlari.
2. Turistlar uchun pasport va viza koʻmagi.
3. Shengen vizasi. Bojxona va valyuta nazorati.
4. Asosiy turizm faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar.

Kalit soʻzlar: turizmning motivatsiyasi, turistlar uchun pasport va viza koʻmagi, Shengen vizasi, bojxona va valyuta nazorati, asosiy turizm faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar, Turizm rasmiyatchiligi, pasport rasmiyatchiligi, viza rasmiyatchiligi, bojxona rasmiyatchiligi, tibbiy rasmiyatchilik, ishga doir viza, xususiy viza, tranzit viza, turistik viza, viza anketasi, konsullik yigʻimi, Shengen vizasi, bojxona deklaratsiyasi, bagaj koʻrigi, bojxona poshlinasi, pasport nazorati, valyuta nazorati, sanitariya (tibbiy) tekshiruvi.

Madaniy sayyohlarning motivatsiyasi keng kategoriyalarini toʻgʻri talqin qilish orqali ikkinchi bir muhim fundamental yondashuvni belgilash, madaniy turizm tushunchasini shakllantirish, turizmning texnologik imkoniyatlarini ishga solish, shu orqali maxsus toifali sayyohlarning marketing va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oʻrganish, turizmning rivojlanishiga oid muhim masalalarga yechim topish, lozim boʻlsa ular orqali yangicha destinatsiya yaratish imkonini keltirib chiqaradi.

Madaniy turizmni belgilaydigan tezkor yondashuvlar spetsifikatsiyasi ushbu yoʻnalishning koʻp qatlamlilik uslubini aks ettiradi.

Turizmning zamonaviy amaliyotidan kelib chiqib, madaniy turizmning oʻziga xos ikki jihatini belgilash mumkin.

- oʻziga xos xususiyatlar shakliga ega turizm;
- boshqa turdagi elementlarni oʻzida jamlagan turizm.

Shunday qilib, madaniy turizm haqida fikr yuritganimizda, u haqida

o'ta jiddiyroq savolni o'rta tashlashga to'g'ri keladi. Madaniy komponentlar ko'lami turizmning turlariga qarab bir-biridan sezilarli darajada farqlanishi mumkin. Bu uning vaqtinchalik amalda bo'lishi, huquqiy holati, turizm faoliyatining madaniy sohadagi sharoitlarini yaratishda, ijtimoiy-demografik va iqtisodiy asoslari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Asosiy fikrlar ostida madaniy turizmning ko'p tarmoqlilik asoslarini shakllantirish g'oyasi yotadi.

Madaniy turizmning quyidagi darajalari—e'tiborni jalb etishi mumkin bo'lgan maskanlarda maqsadga turtki bo'ladigan, ko'zlangan manfaatni bera oladigan va bilvosita asosga chuqur yondashish mumkin bo'lgan holatlarni ajratib olish mumkin.

1. Madaniy turizmning turizm sifatida o'ziga xosligi:

- Madaniyat doirasidagi professional xodimlarning aloqasiga asoslangan professional madaniy turizm.

- Ma'lum maqsadlar bilan kelgan sayyohlarning madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadiga yo'naltirilgan ixtisoslashtirigan madaniy turizm. Masalan, xalq an'analari, mamlakat va mintaqa folklori, urf-odatlar bilan tanishish: muayyan bir rassom ijodi yoki maxsus san'at maktablari faoliyati, tarixiy davrning yodgorlik namunalari kabi milliy madaniy meroslar bilan tanishish.

- Sayyohlik faoliyatining ajralmas qismi bo'lgan madaniy boyliklar bilan xarakterlanadigan ixtisoslashtirilmagan madaniy turizm. Bunda sayohatdan asosiy maqsad bilim olish, o'rganish bo'lsa-da, hamma vaqt ham madaniy ehtiyojlarga ongli ravishda yondashilmaydi. Odatda bu ko'proq madaniy-ta'lim turizmiga xos hisoblanadi.

2. Turizmning o'zgacha yo'nalishlarini o'zida jam etadigan yo'ldosh madaniy turizm.

Bunda sayyohlarning ierarxiyaga oid madaniy boyliklarga ehtiyoji yuqori o'rinda turmaydi, binobarin, sayyohning xulq atvoridan kelib chiqib, shunchaki qo'shimcha ravishda, ko'pincha, ixtiyoriy yoki

tasodifiy holatlarda ro‘y beradigan holat hisoblanadi. Bu turizmning boshqa turlari, xususan, tijorat, sport, dam olish va sog‘lomlashtirish turizmi kabi keng doiradagilar uchun amal qiladi.

Sayyohlik faoliyatiga madaniy turizmni rivojlantirish nuqtai nazari bilan qaralsa vaziyatni muhim baholash talab etiladi. Mehmonlarni madaniy turizmning turli yo‘nalishlariga e‘tiborini jalb etish uchun istalgan va baholi qudrat madaniy axborotlar, shuningdek, taqdimotlarni hajmi va shakli jihatdan ko‘rsata olish juda muhim. Bu kuzatuvchilarning qarashlarini tubdan o‘zgartirishi, madaniy ko‘ngilochar dasturlar tashkil etish, hayot tashvishlaridan chalg‘itish, yoki ijtimoiy munosabatlarini qo‘llab-quvvatlash, kishini o‘ziga bo‘lgan ishonchini idrok qilish borasida tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Yana bir jihatni e‘tibordan chetda qolmaslik lozim. Madaniy ehtiyojlarga qiziqish orqali bir doira atrofida jamlangan turli toifadagi sayyohlar uchun (masalan, O‘zbekistondagi tarixiy obidalarni va uning milliy urf odatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish) turli xildagi madaniy tadbirlar tashkil etib, ularning diqqatini qaratish, sayohatini mazmunli tashkil etish yo‘ldosh turizmning bosh maqsadi hisoblanadi. Tashrif egalarini tarixiy yodgorliklarga bo‘lgan e‘tibori, mahalliy xalqning yuqori darajada tashkil etgan madaniy an‘analarini aks ettiruvchi chiqishlari bilan qo‘shimcha ravishda rag‘batlantirish, shu asnoda milliy merosning tub mohiyatini anglatish, ma‘lum voqeliklarga bo‘lgan qiziqishini orttirish, ham ruhiy, ham ilmiy rag‘batlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu toifadagi sayohatchilar yirik va ahamiyatli tijoratlarini ham e‘tibordan chetda qoldirishmaydi. Ular bir yo‘la turli forum hamda diplomatik muzokaralarda ishtirok etishga, qolaversa, o‘tkazish imkoniyatini qo‘ldan chiqarmaslikka harakat qilishadi, hatto, mablag‘larini tikishga ham rozi bo‘lishlarini turgan gap. Bu demakki, sayohat bahonasida, milliy-madaniy turizmning rivojlanishi uchun muhim bitimlar imzolash uchun ham yetarli sharoitlar vujudga keladi.

Madaniy sharoitlarning bekamu ko'st tashkil etish, qiziqtirish va singdirish uchun sayyohning madaniy-ta'limiy tayyorgarligi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda turizm faoliyati bilan shug'ullanayotganlar ahamiyatli tanishuvlar orqali quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari mumkin.

- Sayyohlarning madaniy qadr-qimmatga ega bo'lgan va mashhur, yuqori ilmiy ahamiyatga ega madaniy-tarixiy obidalar hamda zamonaviy san'at namunalariga nisbatan munosabatlari, ular haqda ma'lumotlar olishi, yetkazishi, shunga mos ravishda tayyorgarligi va ehtiyojini hisobga olib diqqatga sazovor yodgorliklarni tomosha qilish uchun mukammal sharoitlar yaratish hamda amalga oshirish.

- Muayyan madaniyatni yanada kengroq targ'ib qilish uchun oshkoralik muhitini ta'minlashga e'tiborni qaratish maqsadida, milliy qo'shiq va musiqalar taralib turadigan milliy taomlar tayyorlanadigan tamaddixona, oshxona va restoran binolari, yodgorlik do'konlari, attorlik bozorlari, kechki va tungi klublar, ko'cha rassomlari ijodi namoyish etiladigan maxsus joylar, shuningdek, sayyohlarning ushbu yurt madaniyatiga oid kichik ma'lumotlar bera oladigan omillardan foydalanish samarali hisoblanadi. Ba'zi sayyohlarning qatlami uchun birinchi navbatda yo'ldosh turizmning ahamiyati benihoya katta yoki madaniy-ma'rifiy, ilmiy salohiyati yuqori bo'lmagan toifalari uchun oliy darajada tashkil etilgan madaniy tadbirlar, milliy obidalar emas "madaniy-maishiy hayot" muhiti o'ta muhim bo'lishi, shu orqali ular ko'zlangan maqsadiga yetishlari, shu joylardan taassurot olishlari mumkin.

Madaniy turizmni aniqlashda bu kabi ko'p tarmoqli yondashuv madaniy differentsiyalangan yondashuv muvaffaqiyatini ta'minlaydi, uning tarkibiy qismini shakllantirish va turli toifadagi sayyohlarni madaniy qiymatini yaratishda asqotadi. Shuningdek, sayyohlarning oqimini ko'paytirishda tashrif uchun turtki bo'lgan jihatlarni hisobga olish taqozo etiladi. Madaniy boylıklarga bo'lgan e'tiborini yanada orttirish maqsadida

yeterli sharoitlar muhayyo qilinishi natija beradi. Buning uchun eng avvalo sayyohlarning tashrifini oshirishga erishish nuqtai nazaridan maroqli hordiq chiqarishlari hamda ulkan taassurotga ega bo'lishlari uchun sarflaydigan xarajatlarini oqlashga e'tibor qaratish muhim sanaladi.

Madaniy turizmni rivojlantirishning zamonaviy talablari hamda omillari. O'tgan asrning taxminan 80-yillarida madaniy sayyohlik turizm bozorining kichik bir jabhasi sifatida qaralar edi. Bugungi kunning talablaridan kelib chiqib, madaniy turizm ommaviy sayyohlik yo'nalishining asosiy va ajralmas qismi ekani ko'zga tashlanadi.

Dunyoda ro'y berayotgan bir qancha radikal o'zgarishlar turizm faoliyatining shiddat bilan o'sishiga turtki bo'lmoqda. Bunga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- Transport infratuzilmasining rivojlanishi.
- Axborot texnologiyalari ko'lamining kengayishi va shitob bilan rivojlanayotgani.
- Aholi daromadining o'sishi.
- Jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlarining hordiq chiqarishga bo'lgan talabining ortishi.
- Iqtisodiyotning globallasuvi, ishbilarmonlik va tadbirkorlik, texnologiya, madaniy boyliklar, shuningdek, bozor iqtisodiyotining boshqa ilg'or jabhalarida g'oyalarning faollashuvi va tajriba almashishga bo'lgan ehtiyoj.

Bugungi kunda axborot texnologiyasining shiddat bilan rivojlanib borayotgani sabab dunyoning turli mamlakatlaridagi turistik hududlar haqida oson va yetarli ma'lumot olish imkoniyati kengayib bormoqda. Darhaqiqat, hozirda internet orqali kerakli axborotlar olishning muammosi yo'q, buning ustiga sayyohlikka oid alohida saytlar mavjud. Ular bilan bog'langan holda tashrif buyurishi mo'ljallangan hududning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy ahvoli, qolaversa, texnik va transport xizmati haqida tez va samarali axborotlarga erishish mumkin. Bu imkoniyat keng

qamrovli. Soʻnggi yigirma yillikda informatsion texnologiya yaratayotgan imkoniyat bugungi kunda sayohat qilish yoki hordiq chiqarish istagida boʻlgan aholi uchun oʻta qulay. Dunyoning istalgan burchagi, hatto, majoziy maʼnoda odam qadami yetmagan joylarda ham sayohat uchun sharoitlar yaratilgan. Turar joy, madaniy shart-sharoitlar, transport xizmati muhayyo. Buyurtmachilarning soniga qarab sayohat koʻp kishilik, yoki aksincha, oz miqdordagilar uchun maxsus uyushtirilishi mumkin. Xoh suv, havo yoki quruqlik orqali boʻlmasin fuqarolar uchun xavfsizlik choralari koʻrilgan va kafolat berilgan. Sayohat ishqibozlarini qiziqtiradigan yana bir masala transport xizmati bilan bogʻliq. Chunki, vaqt oʻlchovli. Har daqiqadan unumli foydalanish taqozo etiladi. Sayohatchilarning aksariyati oʻz rejasiga ega. Transport xizmati qanchali namunali va oʻz vaqtida koʻrsatilsa, koʻzlangan maqsadga shuncha tez erishiladi. Shu orqali tashrifchilarning ishonchi ham oqlanadi. Madaniy yodgorliklarning tarixi, jozibasi bilan tanishish uchun imkon yetarli boʻlishi, shubhasiz. Eng avvalo, iqtisodiy tomondan, soʻngra jismoniy, psixologik zoʻriqishning oldi olinadi, moliyaviy isrofgarchilik yuz bermaydi. Bir soʻz bilan aytganda, namunali xizmat ikki tomon uchun ham manfaatli hisoblanadi. Birgina turizm sohasida faoliyat koʻrsatayotgan firma va kompaniyalar ishni reja asosida toʻgʻri tashkil etishsa, kifoY.

Hozirgi kunda turizm sohasida raqobat koʻchaygan. Buyurtmachilarning talab istaklari muhim oʻrin tutadi. Oʻz oʻrnida raqobat bor joyda sifatli xizmat koʻrsatish muhim oʻrinda turadi. Buyurtmachi uchun esa sifatli xizmatdan tashqari kamxarajatlilik ham foydadan holi emas. Mazkur sohada faoliyat koʻrsatuvchilar buni aslo eʼtibordan chetda qoldirishmaydi. Ular turizm sanoatining bu shartlarini amalda bajarishlari, buyurtmachilar uchun hamyonbop narxlar va sifatli xizmat taklif qilishlari tayin. Boshqa tarafdin hozirgi hayot tarzi oʻzgacha, inson xoh mehnat taʼtilida boʻlsin, xoh shunchaki sayohat uyushtirmasin, uni mazmunli tashkil etishga harakat qiladi va ham maʼnaviy, ham ruhiy ozuqa olishga

intiladi. Axborot texnologiyasi rivojlangan bir davrda buyurtmachini qoyil qoldirish oson emas. Chunki, uning didi o'ta nozik. O'z xizmatini taklif qilayotgan mutaxassis shularni inobatga olishi, sayyohning e'tiborini jalb qila oladigan darajada kirishimli bo'lishi talab etiladi. Kichik bir xato katta ziyonga xizmat qilishi mumkin. Turizm vakili bugun bilan hamnafas, kezi kelganda zamondan bir qadam oldinda, rejalari puxta bo'lmog'i lozim.

Globalashuv jarayonlari turmush tarziga ta'sir etmay qolmaydi. O'z xizmatini tashkil etayotgan kompaniya yoki firma buni e'tibordan qochirmasligi lozim. Taqdim etilayotgan xizmat va tovarlar sifati jahon standartiga to'la javob berishi kerak. Muayyan hudud taklif etilayotgan paytda uning boshqa bir hududdan o'ziga xosligi va ustunligi ko'rsatilishi muhim. Qolaversa, mintaqaning madaniy boyliklari, qadriyatlari, mahalliy aholining hayoti va xalq hunarmandchiligiga oid buyumlari, uning yaratilishi va tarixi ham tashrif buyurayotgan sayyohning diqqat markazida bo'lishi, tabiiy. Ayniqsa, tarixiy obidalar o'zga mamlakat vakillari uchun o'zgacha ma'no kasb etadi. Sir emaski, so'nggi yillarda har qanday yodgorliklar qayta ta'mirlanib, ular qayta sayqallanmoqda.

Bu kabi sharoitlarning yaratib berilishi madaniy turizmni targ'ib qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Madaniy turizmning ravnaq topishi barobarida boshqa yo'nalishlarga ham ehtiyojlar tug'iladi, yangicha takliflar va buyurtmalarga zamin yaratiladi. Shu bilan birga turizmning tijorat shaklidagi faoliyati natijasida mahalliy mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy holati va turizm sohasidagi salohiyati yuksaladi, aholining mehnat qobiliyati mukammal shakllanadi. Eng muhimi, madaniy yodgorlik va milliy merosning qadr-qimmatini oshirishda xizmat qiladi:

Tomonlarning takliflari:

1. Diqqatga sazovor joylarining soni va xilma-xilligini oshirish. Bu omil bir necha yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Birinchi, doimiy ravishda madaniy obektlarni shakllantirish investitsiyasini kiritish. Harakatning natijasi faqatgina o'sha joylarga

sayyohlarning e'tiborini qaratish bilan cheklanmay, mahalliy aholining faoliyati va turmush tarzi bilan bog'liq bo'lmog'i lozim. Shundagina madaniy rang-baranglik va jozibadorlikni ta'minlashga erishiladi, mahalliy aholining ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chetdan investitsiya kirishiga yo'l ochiladi, sohaning malakali mutaxassislari e'tiborini qaratadi, qo'shimcha ishchi kuchlaridan foydalanishda asqotadi. Asosan, xususiy teatr, galereya, tarixiy muzey tashkil etish barobarida raqobat yuzaga keladi. Erishilgan yutuqlarga xalq faxr tuyg'usi bilan qaraydi, hamda mulkini ko'z qorachig'iday asraydi. Loyihalarning amalga oshishi zahirida sayyohlarni jalb qilish uchun jonbozlik ko'rsatiladi. Garchi, mo'jaz shaklda bo'lsada yerli xalq yaratgan ziyoratgohlar va dam olish maskanlariga sayyohlarning oqimi ko'payadi. Ular orqali ichki turizm keyingi rivojlanish bosqichiga o'tadi.

Ikkinchidan, industrial rivojlanish bosqichida ko'plab sohalarda yangi ish o'rinlari tashkil etiladi. Ijtimoiy yuksalish muhim iqtisodiy taraqqiyotga asos soladi. Shu bilan birga madaniy tarmoqlarda ham o'zgarishlar kirib keladi. Xalq ijodiyotining muhim qirralari bo'lmish - an'anaviy qo'shiqchilik, badiiy va amaliy hunarmandchilik, kosiblik, kashtado'zlik, etikdo'zlik, temirchilik, qandalotchilik, modalar dunyosi, ovoz yozish studiyalari, kitob va noyob buyumlar savdosi tarmog'i rivojlanadi. Unutilayotgan hunarlarga qayta hayot bag'ishlanadi. Madaniy sanoat bugungi kunda shahar va viloyatlarning taraqqiy etishida muhim rol o'ynashi tajribalarda ko'p sinalgan¹.

Uchinchidan, madaniy sohadagi obektlarning kengayishi iste'mol bozorini shakllantiradi. Xususan, ishlab chiqarish va milliy-maishiy an'analarga mos kasb-hunarlarining mahsuli kelayotgan sayyohlarning e'tiboriga havola etiladi. Pirovard, milliy-tarixiy an'analar jahonga yuz tutadi. Shu orqali madaniy taraqqiyot iqtisodiy-industriyal rivojlanishning

¹ Лэндри Ч., Грин Л., Матарассо Ф., Бьянчини Ф. Возрождение городов через культуру. – СПб.: Нотабене, 1999.

muhim ko‘rinishlarini o‘zida aks etadi. Agar ijod namunalarda millatning o‘tmishi, tarixiy obidalari, ziyoratgohlari tasviri, urf-odatlarini, an‘analari va ma‘naviyati singdirilsa foydadan holi emas. Bu tajriba XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida qo‘llanilgan hamda 100 foizlik natijaga erishilgan.

2. Davlat, hududiy va milliy, shuningdek, xalqaro va nodavlat tashkilotlari ko‘magidagi ilg‘or tajribalarni ommalashtirish hamda madaniy turizmni qo‘llab-quvvatlash, madaniy-tarixiy obida va yodgorliklarni ta‘mirlash va moliyaviy ta‘minlash, turli madaniy loyihalarni hayotga targ‘ib etish sayyohlar oqimining oshishida xizmat qilishi, tabiiy. Madaniy turizmni rivojlantirish hamda Yevropa madaniyatini targ‘ib qilish maqsadida Yevropa kengashi izchil ishlarni amalga oshirayotgani buning yorqin dadilidir.

3. Madaniy turizmning rivojlanishi va diqqatga sazovor joylarda yetarli sharoitlar yaratish hamda targ‘ib qilishda zamonaviy texnologiyaning joriy etilishi haqida axborotlar va ma‘lumotlarning keng joylashtirilishi o‘z natijasi beradi. E‘tiborga molik madaniy yordorliklar to‘g‘risida yangicha shaklda hamda turli ko‘rinishda axborot berish, virtual tanishtiruvlar orqali yangi madaniy maskanlarni kashf etilishi bilan birga sayohatchilarning oqimini ko‘paytirishga zamin yaratiladi.

4. Yangi va mukammal kommunikatsiya texnologiyalari (namunali transport xizmati hamda axborot berish) bozor iqtisodiyoti sharoitida tor doiradagi sayyohlik mahsulotlarini targ‘ib va namoyon qilishda cheksiz imkoniyatlar yaratishi shubhasiz, bu orqali ommaviy va yakka tartibdagi sayyohlarning taklifi uchun raqobatbardosh munosabatlar shakllantiriladi.

Tomonlarning ehtiyojlari:

1. Bir tomondan diqqatga sazovor maskanlarning globallashtirish jarayoni va uning madaniy hayotini bir xillashtirish nuqtai nazaridan sharoitlarni hisobga olish (madaniy meros va hozirgi madaniy jarayon), muhim identifikatsiya vositalari (etnik, milliy, diniy, madaniy)ga xizmat qilishi, ikkinchi tomondan, madaniy xilma-xillikni ta‘minlashdan iborat.

Aynan turizmning milliy va diniy, shuningdek, kam qamrovli jihatlariga boʻlgan qiziqishlar madaniy turizmning rivojlanishiga sabab boʻladi.

2. Hayot jadal suratlarida oʻzgarib bormoqda. Hozirgi avlod vakillarining koʻz oʻngida bu hodisa keskin tarzda sodir boʻlmoqda, dunyo aholisi soni oshmoqda. Koʻpchilik yangicha oʻzgarishlarni oʻzlashtirishga ulgurmayapti, sharoitlar ketidan yangicha sharoitlar yaratilyapti. Avlodlar almashinuvi, anʼanalarning takomillashuvi, yoki aksincha, tanazzulga yuz tutishi yangilik boʻlmay qolgan. Bu jarayonlarning tezlashuvi kishilarni oʻtmishga boʻlgan qiziqishlarining ortishiga sabab boʻlmoqda. Ular otabobolari qoldirgan boy merosni koʻrib, undan rohat olishni ixtiyor etishadi. Ayrimlar zavqli dam olishni rejalashtirishadi, oʻtmishning yoqimli xotiralari bilan oʻrtoqlashishni istab qolishadi. Boshqalar esa oʻzga anʼanalar ildizi va ularni bogʻlab turuvchi rishtalar bilan qiziqishadi.

3. Postindustrial ehtiyojlarning zamonaviy bosqichi, mazmunan boy madaniy merosga intilish hamda turli koʻrinishdagi xizmatlarga qiziqishlar, hissiyot hamda taassurotlarga nisbatan talablar hamohangligida hosil boʻladi. Ikkinchi tomondan, zamonaviy dunyoda odamlar doimiy stress (ishda, transportda, turli vaziyatlarda) iskanjasiga tushishadi va ular bunday koʻngilsiz vaziyatdan qutulish uchun dam olish, oʻzini turli yumushlar bilan chalgʻitish, kitob mutolaasi yoki boshqa mashgʻulotlar bilan band boʻlish chorasini izlab qolishadi. Shu jihatdan madaniyat boshqa sohalardan farqli oʻlaroq tomosha va koʻngilochar tadbirlar uchun muhim tanlov sanaladi hamda turli koʻrinishdagi imkoniyatlari bilan talabgorlar eʼtiborini jalb qilish, ehtiyojini qondirish qudratiga ega.

4. Turizmning oʻzgaruvchanlik, yaʼni, differensial nuqtai nazaridan ramziy (belgili) qadri koʻtarilib bormoqda. Esda qolarli, mazmunan boy madaniy yodgorliklarga ehtiyoj va ularni differensiallashtirish hisobidan (umumiy va yakka tartibda) xizmatlar sarf xarajatga olib keladi: bu vaqtda ramziy - belgining ahamiyati, ramziy belgi muvaffaqiyati, u yoki bu guruhning hayot tarzi, mafkuraviy ishtiyoq, sifatli koʻrinish bosh maqsadga

ko'chadi. Sayyohlarning o'ziga xos maqsadli talablarini qondirish uchun faollik namoyon etilishi lozim.

5. Madaniy turizm iste'molchi tomonidan ramziy obrazlarni vujudga keltirishi uchun ko'plab imkoniyatlarga ega resursli asoslarini ishga solishiga to'g'ri keladi (shaxsiy, u yoki bu ijtimoiy-demokratik tabaqaga a'zoligi, huquqiy holati, millati, dini, ehtiyoji va qanday guruhga mansubligi e'tiborga olinadi).

6. Har yilgi an'anaviy ta'tildan (asosan yozdagi) uzoq bo'lmagan muddatga voz kechilishi, yoki ishdagi tez-tez takrorlanadigan tanaffus, mehnat va ishdan holi vaqtning meyoriy chegarasini ko'rsatuvchi holat va belgilaridan biri sanaladi. Bunday ish shaklida xodimlarining dam olishini rejalashtirayotgan tashkilotlar odatdan tashqari qisqa fursatli sayohatni tashkil etishi mumkin. Bu vaqtda tashrif buyurilayotgan sayyohlik hududini tanlashda uning mazmunan boyligi, taassurotlari cheksiz bo'lishi, o'z o'rnida xodimlarning qalbidan chuqur joy olishi, ishdan ortib tashrif qilishga arziqli, yillik ta'til unutilmas xotiralarga boy yakunlanishi kabi meyoriy talablar hisobga olinishi shubhasiz: bundan tashqari, ushbu yo'l maroqli hordiq chiqarishi lozim bo'lgan xodimlarning qisqa ta'tilining davomiyligini sun'iy tarzda uzoqroq bo'lishini ta'minlaydi. Madaniy turizm o'zining turli vositalari va shakli bilan sayyohlik faoliyatini targ'ib qilayotgan kompaniyaning keng imkoniyatlari mavjudligini namoyon qilib, chetdagi mijozlarning unga bo'lgan qiziqish hamda talabining ortishiga xizmat qiladi.

Aholining yetarli ta'minlangan qatlamlari sonining oshib borishi (ishdan tashqari), ularning ehtiyojidan kelib chiqqan holda turizm faoliyatiga yanada jiddiyroq e'tibor qaratish, xizmatlarni har tomonlama mukamallashuvini ta'minlash, shu bilan birga izlanishlarni amalga oshirishga e'tiborni qaratishni taqozo etadi: ularda shaxsiy yetuklikka intilish va ijodiy quvvatni sarflash maqsadi birinchi galdagi vazifaga chiqadi. Xususan, yildan-yilga mehnat tufayli zo'riqishni his etayotgan

ko'pchilik insonlar uchun ish bilan kundalik hayot o'rtasidagi meyoriy muvozanatni tiklash uchun (faqatgina vaqt ajratish emas, balki, insonning jismoniy va ruhiy holati ham) ta'til davrida ko'ngilli hordiq chiqarish, bayram va dam olish kunlarini munosib o'tkazish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Aynan shunday holatlarda namunali madaniy xizmatlardan bahra olish va o'zlari yoqtirgan mashg'ulotlari bilan shug'ullanishni ko'ngli tusaydi².

Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini yaratishda uning asosiy maqsadlari umumiy bozorni yaratish bo'lib, bu to'rtta erkinlikka erishish demakdir: tovarlar, xizmatlar, odamlar va kapitalning harakati. Tovar va xizmatlar harakati erkinligi uchun bojxona Ittifoqi 1958-yilda tashkil etilgan, shuningdek, boshqa ko'plab bitimlar tuzilgan.

Biroq, bu jarayon odamlarning harakat erkinligi cheklanib qoldi. Yevropa iqtisodiy hamjamiyati davlatlari fuqarolari o'zaro sayohat uchun viza talab qilmaydi. Yevropa davlatlari o'rtasidagi fuqarolarning erkin harakatlanishi konsepsiyasi tarixi o'rta asrlarga borib taqaladi. Biroq ushbu konsepsiya amalga oshirilishi Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrga to'g'ri keldi. 1984-yil 17-iyunda Fransiya hamda Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasida Fonteynblau shahrida ikki mamlakat fuqarolarining erkin harakatlanishiga imkon beruvchi shartnoma tuziladi.

Keyinchalik ushbu shartnoma 1985-yilning 14-iyunida, Germaniya Federativ Respublikasi, Belgiya, Niderlandiya hamda Lyuksemburg davlatlari tomonidan Lyuksemburg janubidagi Mozell daryosi bo'yidagi kichik qishloqchada imzolanib, uning sharafiga shartnoma Shengen (Schengen) nomi bilan ataldi.

Mazkur shartnomaning tuzilishidan asosiy ko'zlangan maqsad davlatlar orasidagi chegaralarda hujjat tekshiruvlariga chek qo'yish edi.

Besh yildan so'ng, aniqrog'i, 1990-yilning 19-iyuniga kelib, Shengen kelishuvining aniq vazifalarini belgilab beruvchi Konvensiya imzolanadi.

² <http://www.aofeonline.com/uplds/cultural-tourism.pdf>

Unga ko‘ra, a‘zo davlatlar orasidagi o‘zaro ichki chegara nazorati bekor qilinib, tashqi chegaralar nazoratiga urg‘u berildi.

Shuningdek, Shengen Axborot Tizimi – SIS (Shengen Information System) barcha a‘zo davlatlar uchun umumiy bo‘lgan ma‘lumotlar bazasi tashkil etilib, yagona shakldagi viza ishlab chiqilishi yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, immigratsiya hamda ichki nazoratchilar orasida uzviy hamkorlik tizimi tashkil etildi.

Shengen hududi konsepsiyasi asta-sekin rivojlanib, a‘zolar safi kengaya boshladi. Xususan, 1990-yil 27-noyabrida Italiya, 1991-yilning 25-iyunida Portugaliya va Ispaniya va 1992-yilning 6-noyabrida Gretsiya davlatlari shartnomaga a‘zo bo‘lishdi.

Shengen shartnomasi Nizomida bir qator qonun-qoidalarni nazarda tutgan bo‘lsa-da, uning haqiqiy hozirgi Shengenga aylanishi unga a‘zo bo‘lgan Germaniya, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Ispaniya hamda Portugaliyaning 1995-yilning 25-martida o‘zaro ichki chegaralaridagi tekshiruvlarga butunlay barham berishidan boshlanadi.

Aynan mana shu voqea Shengen Kelishuvi a‘zolari safini yanada kengaytirdi. 1995-yilning 28-aprelida Avstriya, 1996-yilning 19-dekabrida Daniya, Finlandiya, Islandiya, Norvegiya hamda Shvetsiya davlatlari mazkur kelishuvni imzoladilar. Shuningdek, 2000-yillarning boshida birin-ketin Chexiya, Estoniya, Vengriya, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya hamda Shveytsariya davlatlari ham ushbu shartnomaga qo‘shildilar. Shu tariqa, 2008-yil fevralida Lixtenshteynning 26-davlat sifatida shartnomaga a‘zo bo‘lishi bilan Shengen hududining yaratilish jarayoni yakunlandi.

Shengen hududi hamda Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi tafovutlar. Yevropa davlatlarining ko‘pchiligi bu shartnomalarning ikkisiga ham a‘zo bo‘lsalar-da, ular vazifasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Yevropa Ittifoqi siyosiy-iqtisodiy kelishuv bo‘lib, hozirda unga 28 ta davlat a‘zo.

Shengen vizasi uni olgan shaxslarga ushbu shartnomaga a‘zo davlatlar

hududida tekshiruvlarsiz, erkin harakatlanishga ruxsat beradi, xolos.

Shengen vizasining turlari. Shengen vizasi mazkur shartnomaga a'zo bo'lgan istalgan davlat tomonidan berilishi mumkin. Ushbu viza o'z egasiga shartnomaga a'zo mamlakatlar hududida erkin harakatlanish huquqini berib, tashrif maqsadiga qarab 4 toifaga bo'linadi:

«A» toifa – aeroportga kirish uchun olinadigan tranzit vizasi;

«B» toifa – Shengen zonasi ichida 5 kun davomida amal qiluvchi tranzit vizasi;

«C» toifa – Shengen zonasida qolish uchun beriladigan qisqa muddatli viza. Bunda ruxsat berilgan muddat davomiyligi vizada ko'rsatiladi.

Sayohat maqsadiga qarab:

- Bir martalik – Shengen hududidagi har qanday mamlakatga bir marta kirishga ruxsat beriladi. Shengen hududidan chiqib ketgandan so'ng, viza muddati hali ham tugamagan bo'lsa-da, qayta kirishga ruxsat berilmaydi.

- Ikki martalik – ushbu viza Shengen hududiga ikki marta kirish huquqini beradi va uning amal qilish muddati vizada ko'rsatiladi. Shengen zonasidan ikkinchi marta jo'nab ketilgach, viza muddati amalda bo'lsa ham, qayta kirishga ruxsat etilmaydi.

- Bir nechta martalik – mazkur viza Shengen hududiga kirish sonini cheklamaydi. Biroq uning amal qilish muddati berilgan kundan boshlab 6 oy ichida shartnomaga a'zo istalgan davlatda 90 kungacha qolish imkoniyatini beradi. Shengen hududiga birinchi kirish kuni vizaning birinchi kuni hisoblanadi. Qisqa muddatli tashriflar hamda Shengen hududiga takroriy kirish kunlarining umumiy soni maksimal 90 kunga yetgunga qadar umumlashtiriladi. Umumiy kunlar miqdori 90 kundan oshgach hududga kirishga ruxsat berilmaydi.

LTV (Limited Territorial Validity) vizasi:

Ushbu toifadagi viza egasi faqat ma'lum bir Shengen hududida yoki viza olish uchun ko'rsatilgan mamlakatlarda sayohat qilishi mumkin.

Ushbu turdagi viza asosan maxsus holatlarda, masalan, gumanitar maqsadlar uchun beriladi.

- Nihoyat «D» toifasi – Shengen hududida o‘qish, yashash yoki ishlash kabi maxsus holatlarda berilgan milliy viza.

Ushbu viza:

- Bir martalik – Shengen mamlakatda muayyan vaqtdan keyin qolish shart bo‘lmagan shaxslar uchun;

- Ko‘p martalik – Shengen mamlakatlariga bir necha marta kirish imkonini beradi.

Mazkur turdagi viza quyidagi hollarda beriladi:

- o‘qish uchun bir yilgacha (uzaytirish imkoniyati bilan);

- ilmiy ish yoki tadqiqot o‘tkazish uchun, shuningdek, yaqin qarindoshlarinikiga tashrif uchun;

- mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish uchun safar qilayotgan mutaxassislar;

- favqulodda holatlarda, masalan, davolanish maqsadida muayyan muddatga cheklangan holda.

Turizmda rasmiyatchilik tushunchasi va uning mohiyati. Sayohat jarayonida turist davlat chegarasini kesib o‘tish chog‘ida bajarilishi shart hisoblangan turli xil rasmiyatchiliklarga duch keladi. Turistik rasmiyatchilik - qonun va amaldagi belgilangan tartiblarga ko‘ra, turistik sayohatni rasmiylashtirish va takomillashtirish nuqtai nazaridan majburiydir. Shuningdek chegarani kesib o‘tish bilan bog‘liq hujjatlarni rasmiylashtirish hisoblanadi. Turizm sohasida rasmiyatchilik pasport - viza, bojxona, sanitariya (tibbiy) tartiblar, valyuta nazorati va valyuta almashtirish, mamlakatga kelish va harakatlanish, immigratsiya tartiblari va boshqa yumushlarga bo‘linadi. Turizm sohasida turli xalqaro tashkilotlar faoliyati va xalqaro hamkorlik bunday rasmiyatchiliklarni soddalashtirish yo‘lidan borayapti. Bu xalqaro turizm va sayohatni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan. Turistik rasmiyatchilikni

soddalashtirish obektlari butun bir qator xalqaro bitimlar va shartnomalar hisoblanadi: fuqaro aviatsiyasining 1944-yil xalqaro tashkiloti (IKAO) Chigaga konvensiyasi; 1951-yil Butunjahon sogʻliqni saqlash tashkilotining xalqaro tibbiyot qoidalari; 1965-yil xalqaro dengiz tashkilotining xalqaro dengiz transporti hamkorligi boʻyicha konvensiyasi; bojxona yumushlari (Kioto konvensiyasi)ni uygʻunlashtirish va soddalashtirish boʻyicha (kelishish) xalqaro konvensiyasi, 1973-yil; Yevropada hamkorlik va xavfsizlik boʻyicha yigʻilishi xulosaviy hujjat, 1975-yil; Yevropa hamjamiyatining yagona Yevropa hujjati 1987-yil; turizm boʻyicha xalqaro parlamentning Gaaga deklaratsiyasi 1998-yil; Shengen bitimini qoʻllash haqida konvensiya 1985-yil. BTT Butunjahon turistik tashkiloti turistik rasmiyatchiliklarini soddalashtirishga alohida ahamiyat berib, tegishli qismida tavsiyalar paketini ishlab chiqdi va qabul qildi: pasport rasmiyatchiligi: pasport xizmatini detsentralizatsiya qilish; xorijiy pasportlarni rasmiylashtirish yumushlarini soddalashtirish va muddatini qisqartirish: maqbul yigʻimlarni joriy etish; pasport amal qilish muddatini cheklanmagan safarlar bilan kamida 5 yilga belgilash; xorijiy pasportni olib qoʻyish huquqsiz egasida saqlash; IKAO standartlariga muvofiq pasportlarga kompyuter tizimi yordamida tekshirish imkonini beradigan belgilar kiritish; viza rasmiyatchiliklari: 3 oy muddatgacha vizasiz borish; bir yoki bir necha marta barcha manzillar va barcha marshrutlar boʻyicha borib kelishga 12 oy muddatga berilgan vizalarni amal qilishini keng yoyish, bunda ushbu muddatga berilgan viza bilan turistga hamma yoʻllar ochiq va har qanday transportdan foydalanishi mumkin. Ushbu vizani bir qator davlatlar oʻzaro tan olishi, nazorat-oʻtkazish punktida kirishga ruxsat berilgan hollari bundan mustasno; bojxona deklaratsiyasida koʻrsatilgan miqdorda valyuta olib chiqib ketishga ruxsat berish; badavlat tashrif buyuruvchilar va turistlarga valyuta almashtirishning qoidalari va joriy kursi haqida toʻliq axborot berish; majburiy tarzda chiqish nazorat - oʻtkazish punktlarida tegishli axborotlarni

joylashtirish; kelgan mamlakatdan qaytib ketayotganda valyuta almashtirishni ta'minlash imkoniyatini yaratish; olib ketilayotgan valyutani faqat ixtiyoriy ravishda almashtirish. Turistlarga o'z mamlakati bo'ylab qaytishi uchun zarur miqdorda milliy pul birligiga ega bo'lish huquqini yaratish; bojxona rasmiyatchiligi: turistlardan kirish - chiqishda yig'imlar, soliq va poshlina undirish; alohida tovarlar turlari va ma'lum soni bo'yicha qo'shimcha qiymat solig'i va bojxona poshlinasidan tashqari; biletlar, yo'llanmalar, safarlar qiymatiga to'g'ridan-to'g'ri yig'im bilan birga tashrif buyuruvchilarning bevosita turistik obektlari yangilangani uchun bilvosita soliqqa tortish tarkibi qoidalariga ko'ra undiriladigan soliq va yig'imlarni qo'shish; tibbiy rasmiyatchilik va turistlarga tibbiy yordam ko'rsatish: tibbiy turistik axborotlar xarakterida barcha manfaatdor shaxslar, milliy turistik tashkilotlar va sog'liqni saklash organlari bilan hamkorlikni kengaytirish; turistlarga tibbiy yordam ko'rsatish va tibbiy sug'urtalash bo'yicha ko'p tomonlama davlat shartnomalari tuzish; barcha turistlarga so'zsiz kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatish; o'tkir shaklda kasallanganda yoki o'lim ro'y berganda darhol konsullikka va qarindoshlariga xabar berish: jasadni vataniga eltish yoki dafn qilish; talab qilinadigan hujjatlarni zudlik bilan rasmiylashtirish. Ushbular turizm bo'yicha Gaaga deklaratsiyasida aksini topgan turistik rasmiyatchiliklarni soddalashtirish prinsiplaridan kelib chiqadigan tavsiyalarga asoslangan. Turistik rasmiyatchilik xorijiy turistlarni davlat hududiga kirishi va bo'lishiga qo'yiladigan tartiblar, talablar va qoidalarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, ularning belgilangan va aniqlangan doirada harakat qilishi mutlaqo o'sha davlatlarning huquqi hisoblanadi. Turistik siyosatni ishlab chiqishda ko'rsatkichlar muhim elementi bo'lib turizmdan keladigan daromad hisoblanadi. Bu ko'pincha mazkur korxonalaridan tushumlar va xarajatlar miqdori bo'yicha aniqlanadi. Pasport-viza rasmiyatchiligi va milliy hudud bo'yicha xorijiy fuqarolar yurishini rasmiylashtirish murakkab bo'lib, turistik oqimlarning kamayishiga olib keladi. Shuningdek

xorijliklarni diqqatga sazovor joylarga borishini cheklab qo'yadi. Bu o'z navbatida turistik korxonalar daromadlarini kamaytiradi va xorijliklarni ushbu mamlakatda bo'lganida xarajatlarini cheklaydi. Turistik rasmiyatchilik turistik korxonalar xorijiy mamlakatlarga uyushtiradigan safarlarda hisobga olinadigan tashqi muhit omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. U yoki bu mamlakatga uyushtiriladigan safarlar chog'ida turistlarni unga kirishi va bo'lishini ta'minlash uchun zarur yumushlar va tartiblarni aniqlab olish kerak bo'ladi. Shuningdek ana shu yumushlarni sayohatchilar uchun bajarilishi ta'minlanishiga zarur barcha choralarni ko'rish taqozo etiladi. Yoddan chiqarmaslik kerakki turistik korxonalar borilayotgan mamlakatga kirish va bo'lish bilan bog'liq barcha rasmiyatchiliklardan turistlar va sayohat ishtirokchilarini xabardor qilishga majbur. Turist borayotgan mamlakati haqida quyidagilarni bilishi shart: chegara orqali qancha miqdorda qaysi buyumlarni poshlinasiz olib o'tilishiga ruxsat beriladi; u borayotgan mamlakatga nimalar olib o'tish taqiqlangan; valyuta amlashtirish tartibi qanday; almashtirishga qanday cheklovlar mavjud; bir kunlik yashashi hisobida minimum valyuta mablag'i zarurligi joyi bormi. Bundan tashqari, turistik kompaniya mijozlarning hujjatlarini (turistik vaucher, yo'llanma, tibbiy sug'urta, yo'l hujjatlari) zurr darajada rasmiylashtirish uchun barcha choralarni ko'rishi shart.

2. Pasport - viza rasmiyatchiligi - har bir turistga tegishli bo'lib, davlat chegarasini kesib o'tishda belgilangan tartiblarga shaxslarning rioya etishi bilan bog'liq yumushlardir. Pasportda yoki viza rejimi xorijiy fuqarolar va turistlar uchun ular bo'ladigan mamlakat milliy qonunchiligi bilan belgilangan qat'iy tartiblardir. Qoidaga ko'ra, boradigan mamlakatga chiqish uchun viza olish talab qilinadi. Viza (lotincha Visa-ko'rib chiqish degan ma'noni bildiradi) - bu kirish - chiqishga xorijiy hukumat beradigan maxsus ruxsatnoma. U o'sha mamlakat hududidan tranzit o'tish yoki yashash huquqini beradi. Vizalar quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

bir martalik va ko'p martalik;

- individual va guruhiy;
- talabalik;
- kirish uchun;
- tranzitli;
- chiqish, shengen va boshq.
- Viza mamlakatga taklif asosida tashrif buyurish uchun ham beriladi. Takliflar bo‘ladi: xizmat yoki ishga doir (mamlakat tashkilotlariga chet el tashkilotlaridan); xususiy (chet el fuqarolaridan);
 - mehmondorchilik (uzoq muddatga chet elga safarga ketgan kishidan vatandoshiga);
 - turistik (dam olish, davolanish, qisqa muddatli o‘qishga, sport musobaqalarida ishtirok etishga, biznes - seminarlarga).

Taklifga qarab har xil turdagi vizalar beriladi: ishga doir, xususiy, tranzit, ishchi, turistik. Ishga doir viza (biznes-viza) chet el tashkiloti (xorijiy huquqiy shaxs) tomonidan taklif etilgan tashkilot (viza oluvchi)ni rasmiylashtirish chog‘ida beriladi. Aniq xodimga boshqa davlat tomonidan bo‘lish vaqti, maqsadi ko‘rsatiladi. Xususiy viza xorijiy davlat fuqarosi tomonidan viza oluvchi boshqa davlat fuqarosiga taklifni rasmiylashtirish chog‘ida beriladi. Taklif mahalliy hokimiyat organida rasmiylashtiriladi (Germaniyada, masalan, politsiya boshqarmasida). Tranzit vizasi - viza oluvchiga uchinchi mamlakat orqali bo‘ladigan mamlakatiga borish huquqini beradi. U asosiy viza olingach, uchinchi mamlakat tomonida ma’lum kunlarga beriladi. Ishchi viza - xorijda yollanib, ishlash huquqini beradi. Bunday vizani olish uchun taklif qilayotgan tomon (ish beruvchi) bo‘lajak xodim bilan shartnoma tuzadi. Hamma shartlar (ish sharoiti, yashash, sug‘urta) mahalliy immigratsiya xizmatida kelishib olinadi. Hukumat ruxsatini olgach, bo‘lajak xodimga hujjatlar bilan ishchi vizasi olish uchun elchixonaga murojaat qiladi. Turistik viza - bu xorijiy diplomatik vakolatxonasining pasportdagi belgisi, u egasiga viza bergan

davlat territoriyasiga turizm yoki dam olish huquqini beradi.

Turistik viza berish uchun asos bo'lib, qabul qiluvchi turistik firmalarning belgilangan muddatda kelishilgan marshrutda turistga xizmat ko'rsatish roziligi xizmat qiladi. Viza muddati taklifga bog'liq. Blankani to'ldirishda taklif qilayotgan tomon tashrif maqsadini, bo'lish muddatini, bo'ladigan mamlakatlar sonini ko'rsatadi. Ushbu ma'lumotlarga muvofiq elchixona beriladigan viza muddati haqida qaror qabul qiladi, uni rasmiylashtirishda konsullik yig'imi olinishi mumkin. Konsullik yig'imi - u boriladigan mamlakatga viza berishda xorijiy konsullik muassasi shaxsi tomonidan olinadigan belgilangan pul miqdori. Viza berish muddati murojaat qilingan lahzadan boshlab tarkib topgan amaliyot va davlatlararo bitimga bog'liq. Uni olish uchun bitta yoki bir nechta viza anketalarini to'ldirish va unga belgilangan nusxada fotosurat ilova qilinishi zarur. Viza anketalari - boriladigan davlat territoriyasiga kirish uchun o'sha davlat hukumatining xorijiy diplomatik vakolatxonasiga murojaat qilgan shaxs tomonidan to'ldiriladigan so'rov varaqasi. Viza anketalaridagi savollar soni va mazmuni har bir davlat tomonidan belgilanadi va safardan maqsadga, uning davomiyligiga bog'liq. Turistik guruhlar va ishga doir safarlarda bir qator hollarda guruhiy viza rasmiylashtiriladi. Unda turistlar yoki ishbilarmon odamlar ro'yxati bo'ladi. Viza olish uchun berilgan ariza texnik sabablarga ko'ra va quyidagi hollarda qabul qilinmasligi mumkin:

- pasportda viza blankalarini joylashtirish uchun bo'sh sahifalar yo'qligi sababli;
- pasport buzilgan yoki undagi ma'lumotlar o'zgartirilgan deb shubha tug'ilganda;
- ma'lumotlar tizimida mazkur shaxsning chetga chiqishi taqiqlanganda;
- viza so'rovchi avval jiddiy jinoyat sodir etganda;
- so'rovchi o'zi haqida yolg'on ma'lumotlar berganda;
- so'rovchining faoliyatiga asosan uni jamoat tartibi va xavfsizligiga

tahdid tugʻdiradi deb tasavvur tugʻdirganda;

- viza soʻrovchi mablagʻni nopok yoʻl bilan topgan deb gumon qilinganda.

Tashqi chegaralarda kirish va chiqishning yagona tartibi belgilangan. Kirish sharti boʻlib viza va shaxsni tasdiqlovchi haqiqiy hujjat mavjudligi hisoblanadi. Shuningdek yashash uchun yetarli mablagʻi borligi talab etiladi. Koʻpchilik bu mamlakatlarda viza uchun murojaat qilinganda, albatta majburiy sugʻurta polisini koʻrsatish zarur. Viza berishda konsullik instruksiyalarida mustahkamlab qoʻyilgan umumiy talablar qoʻllaniladi. Instruksiyalarda koʻzda tutilgan yagona kategoriya vizalar aeroport orqali tranzit uchun vizalarni ham oʻz ichiga oladi: tranzit viza (bir mamlakatdan Shengen kengliklari boʻylab oʻtish uchun): qisqa muddatli boʻlishi uchun viza muddati 90 kundan oshmaydi; koʻp martalik viza muddati 5 yilgacha (birinchi kirish lahzasidan yarim yil ichida 90 kundan ortiq boʻlmaslik sharti bilan); hududiy cheklangan harakat sohasi bilan viza; chegarada beriladigan viza; guruh vizasi. Shengen vizasi asosiy safar uyushtirilayotgan mamlakatlar konsullik muassasalari tomonidan beriladi. Agar safardan asosiy maqsad aniqlanmagan boʻlsa, viza birinchi tashrif buyuriladigan mamlakatning konsullik muassasasi tomonidan beriladi. Shengen meyorlari boʻyicha viza murojaatlarining aniq muddatini koʻrib chiqish koʻzda tutilmagan (tajribada amalda u 7-14 kundan oshmaydi). Ishtirokchi mamlakatlar tomonidan viza berishning yagona tarifi qoʻllaniladi. Ayni paytda viza yumushlarini bajarish chogʻida unchalik ahamiyatli boʻlmagan milliy xususiyatlar saqlanadi. Pasport - viza rasmiyatchiligini bajarishda turistik korxonalar bevosita ishtirok etadi. Mamlakatlari xoriij safarlarini uyushtirish paytida ularning elchixonalari yoki konsulliklari bilan aloqa oʻrnatish zarur va mazkur mamlakat territoriyasidan oʻtish uchun tranzit yoki kirish uchun vizalar olishga qoʻyilgan talablar aniqlanadi. Ayrim hollarda bu elchixona yoki konsullikka mazkur turistik korxonani xarakterlovchi hujjatlar paketini

taqdim etishni ko'zda tutadi: turistik faoliyatga litsenziya nusxasi; guruh royxati; hamkorni turistik guruhni qabul qilishga tayyorligini tasdiqlovchi hujjat; vaqtincha xorijga jo'nab ketayotganlarning tibbiy sug'urta polisi; yo'l hujjatlari. Xorijiy vizalarni o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirish uchun turistik korxonada, xodimi ushbu masalalar bo'yicha chet elchixonasiga (konsul xizmati) murojaat qilish tartibini yaxshi bilishi lozim. Ularda turistik kirish uchun viza berish qoidalari belgilangan, qaysikim murojaat qilish muddatlari, har bir turistga to'ldiriladigan anketalar, fotosuratlar, turistlarni elchixonada turistik firmalar va boshqa xodimlarining qabul qilish tartibi bo'yicha farqlanadi. Nazarda tutish kerakki, xorijiy kirish - chiqish vizalari safar uyushtirilayotgan sanaga qat'iy muvofiq tarzda beriladi. Shuning uchun turistik korxonada turistlarga xorijiy viza bilan pasportlarni tarqatish chog'ida vizaning amal qilish muddati safarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanalarini sinchiklab tekshirib ko'rishi kerak. Agar sanalar to'g'ri kelmasa, turistlar jo'nab ketguncha ushbu muammoni hal etish lozim. Turistik korxonada xodimi shuningdek barcha turistlarni xorijiy viza amal qilish va turistik safar tugashi muddatidan ogohlantirib qo'yishi shart. Shuning uchun safar chog'ida turistlardan qaysi biri muddat tugagach, mamlakatda qarindoshlari yoki tanishlarinida ushlanib qolmoqchi yoki mehmonxonada o'z hisobiga yashash uchun qolmoqchi bo'lsa, oldindan vizani uzaytirib olishi kerak. Agar unda shunday xohish mamlakatga kelgan zahoti paydo bo'lsa, u viza muddatini o'z hisobiga o'zaytirishni so'rab ushbu mamlakat tegishli rasmiy organlariga murojaat qilishi zarur. Ammo qisqa muddatli turistik safar chog'ida bunday uzaytirish juda mushkul bo'ladi. Agar turist bu talablarga e'tiroz bildirishga qaror qilsa, bu bilan u ushbu mamlakat viza rejimi qonunlarini buzishga sabab bo'ladi va mamlakatda bo'lish qonunchiligiga amal qilmagan holda kelib chiqadigan oqibatlarga duch keladi. Bunday holda turistik firma turist oldida hech qanday javobgarlikni zimmasiga olmaydi. Turistik korxonada shuningdek turistlarga viza berilishi

yoki uzaytirilishi rad etilgani uchun javobgar emasligi haqida ogahlantirib qo'yishi kerak. Bunday holatda turistga yetkazilgan zararni faqat sug'urta firmasi, sug'urta shartnomasida boshqa kelishuvlar bo'lmasa to'laydi. Viza boshqa davlatga tashrif buyurish uchun asosiy ruxsatnoma hisoblansada, u boriladigan mamlakat konsulligida pasport registratsiya qilinganini tasdiqlaydi xolos. Davlat territoriyasiga kirish imkoniyati haqida uzil-kesil qarorni ushbu davlat chegarasida tegishli immigratsiya hokimiyatlari (chegarachilar), politsiyachilar qabul qiladilar. Agar mamlakatga kirayotgan shaxs biror bir sabab bilan ushbu hokimiyatlar tomonidan turistik maqomga javob bo'lmaydi deb topilsa, viza bo'lishiga qaramay chegaradan o'tkazilmaydi. Bojxona rasmiyatchiligi - davlat chegarasidan o'tishida shaxslarning tovar va buyumlarni olib chiqish, olib kirishi bilan bog'liq tartib qoidalarga amal qilishidir. Bojxona rasmiyatchiligini amalga oshirish chegara punktlarida bojxona xizmati zimmasiga yuklangan. Turistlar uchun bojxona rasmiyatchiligi odatda bojxona deklaratsiyasi to'ldirish, zarurat tug'ilganda yuklarni ko'zdan kechirish bilan bajariladi. Bojxona deklaratsiyasi - davlat chegarasini kesib o'tish chog'ida yo'lovchilar, turistik organlarning o'zlari bilan olib kelinayotgan yuklar yoki alohida buyumlar va tovarlar haqida bojxona nazorati uchun taqdim etadigan yozma arizasidir. Bojxona deklaratsiyasi odatda belgilangan shakldagi maxsus blankaga tuziladi. Bojxona nazoratidan o'tayotgan shaxs bojxona deklaratsiyasini shaxsan o'zi to'ldirishi shart.

Bojxona nazorati - mamlakat qonunchiligiga rioya etish maqsadida bojxona organlari tomonidan tegishli choralarni amalga oshirish hisoblanadi. Bojxona nazorati bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan quyidagi yo'llar bilan o'tkaziladi:

- bojxona uchun zarur ma'lumotlar va hujjatlarni tekshirish;
 - transport vositalari va tovarlarni bojxona ko'rigi,
 - shaxsan ko'rikdan o'tkazish bojxona nazorati mutloq shakli;
- transport vositalari va tovarlar hisobi;

- jismoniy va huquqiy shaxslarning ogʻzaki soʻrovi;
- hisobdorlik va hisob tizimini tekshirish va boshq.
- Bagaj koʻrigi - davlat chegarasini kesib oʻtayotgan yoʻlovchilar bagajini bojxona nazorati vakillari tomonidan tekshiruv - koʻrikdan oʻtkazilishi. Bojxona poshlinasi - davlat chegarasi orqali oʻtkazilayotgan tovarlar uchun belgilangan taʼrif boʻyicha bojxona nazorati organlari tomonidan olinadigan pul yigʻimi.

Jismoniy shaxslar uchun bojxona rasmiyatchiligi va tovarlar nazoratining quyidagi tartiblari mavjud: Jismoniy shaxslar imtiyozli va soddalashtirilgan tartibda tijoriy faoliyat yoki ishlab chiqarish uchun moʻljallangan tovarlarni olib oʻtishga haqli, jismoniy shaxslar uchun imtiyozlar bojxona poshlinasidan qisman yoki toʻliq ozod qilinishni oʻz ichiga oladi. Soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qoʻllanilgan shaxslar bundan mustasno. Alohida kategoriyadagi tovarlar uchun qiymat va miqdoriy cheklolar qoʻllanishi mumkin. Tovarlarini bojxonada rasmiylashtirish va nazorat uchun ariza berilganda deklaratsiya(bayonnoma)ning soddalashtirilgan shakllari qoʻllaniladi: yozma shaklda deklaratsiya uchun maxsus blanka; ogʻzaki shaklda, boshqa shakllarda, masalan, yoʻlovchilarning «qizil» va «yashil» yoʻlak orqali oʻtishi. Bojxona toʻlovlarini soddalashgan usulda olish bojxona toʻlovlarini hisoblash uchun yagona bojxona toʻlovlari stavkasini qoʻllanishda aks etadi. Bojxona yagona toʻlovlari stavkasi majburiy toʻlov shart, tovarlar bojxona qiymatidan foiz ulushlarda ifodalangan aniq tovarga xos maʼlum fizik oʻlchovlarda olinadigan toʻlovlarni oʻzida namoyon etadi. Misol uchun, avtomobillar uchun bunday birlik dvigatel hajmini oʻlchov birligi hisoblanadi, qoʻlda bagajda olib oʻtiladigan tovarlar uchun esa - ogʻirlik (kg) birligi va boshq. Yagona stavka boʻyicha toʻlovlarga odatda tovarlarni saqlash uchun bojxona yigʻimlari kirmaydi. Shuningdek bojxona organlari ish vaqtidan tashqari va bu oy uchun belgilanmagan tovarlarni bojxona rasmiylashtirish ham bunga kirmaydi. Tijoriy foydalanish uchun tovarlar

odatdagi tartibda rasmiylashtiriladi. Bunda bojxona yuk deklaratsiyasi, bojxona to'lovlari umumiy tizimi iqtisodiy siyosat choralari va boshqalar qo'llanishi bilan amalga oshiriladi. Soddalashtirilgan tartibda yozma deklaratsiya to'lg'azish chog'ida shaxslar o'zlari olib kelayotgan bagajdagi aniq soni ko'rsatishi shart, ya'ni bojxona nazorati uchun taqdim etiladigan valyuta va qimmatbaho buyumlar, deklaratsiya shaklda ko'zda tutilgan undagi buyumlar ro'yxati, qo'lda olib o'tiladigan buyumlar. Ma'lum qilingan ma'lumotlar to'g'riligi bojxona rasmiylashtirilishida nazorat qilinadi. Bojxona deklaratsiyasi rasmiylashtirilgach va bojxona nazorati tugagach, bojxona xodimi tomonidan tasdiqlanadi. Shundan keyin yo'lovchiga qaytariladi va deklaratsiyada ko'rsatilgan buyumlar, valyuta va qimmatbaho narsalarni to'siqsiz chetga olib ketish yoki chetdan olib kelish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tranzit bilan ketayotgan shaxslar tomonidan to'ldirilgan bojxona deklaratsiyasi kirishda bojxona punktida tasdiqlanadi va chiqish bojxona punktida ko'rsatilgan shaxsga beriladi. Bojxona deklaratsiyasi yo'qotib qo'yilganda yangilanmaydi, chegara orqali boradigan shaxs o'zida mavjud valyuta, qimmatbaho buyumlarni maxsus qoidalar bilan tartibga solinadigan bojxona chegarasidan to'siqsiz olib o'tish huquqidan mahrum qilinadi. Agar bojxona deklaratsiyasida qo'lda olib o'tiladigan qimmatbaho buyumlar, valyuta, narsalar va bagaj to'g'risida ma'lumotlar ko'rsatilsa, chet eldan jo'natilgan yoki chet elga jo'natilgan, yo'lovchilardan alohidagi maxsus tovar-transport hujjati bilan tashilayotgan bagaj egasi mamlakatga kirish yoki chiqishda bojxona deklaratsiyasi to'lg'azish chog'ida bu haqda ma'lum qilish kerak. Bagaj ko'zdan kechirilgach, bojxona xodimi valyuta, qimmatbaho buyum haqida deklaratsiyaga belgi qoyadi, tasdiqlaydi va deklaratsiyani egasida qoldiradi. U esa chegaradan chet elga o'tishda ushbu deklaratsiyani bojxonada ko'rsatishga majbur. Bu deklaratsiya chegara bojxonasi delo (ish) hujjatlarida qoladi. Tovarlar sotib olinganda berilgan ma'lumotnoma, chek va kvitansiyalarni saqlab qo'yish tavsiya etiladi. Maboda ular bo'lmasa,

bojxona organlari xodimlari qiymatni mustaqil ravishda belgilaydilar. Jismoniy shaxslar bojxona chegarasini kesib o'tishi chog'ida bojxonada rasmiylashtirilishi kerak: ularga tegishli buyumlar; qaysikim majburiy deklaratsiya ko'zda tutilgan; bojxona to'lovlari shart tovarlar yoki olib kirish; olib chiqish maxsus qoidalar bilan tartibga solinadigan tovarlar; alohida olib ketilayotgan bagajlardagi tovarlar. Inson tanasi va kiyimlarini ko'rikdan o'tkazish shaxsiy ko'rik deb ataladi va bojxona nazoratining mutlaq shakli hisoblanadi. Shaxsiy ko'rik alohida hollarda bojxona organi boshlig'i qarori bilan o'tkaziladi. Bojxona organi mansabdor shaxsi - shaxsiy ko'rikni tashkil etish chog'ida shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari buzilmasligi uchun jiddiy e'tibor berishi lozim. Barcha turdagi ko'riklarda qo'llaniladigan texnik vositalar sog'liq va hayot uchun xavfsiz bo'lishi va tovar hamda transport vositasiga shikast yetkazmasligi kerak. Esda saqlash kerakki, bojxona ko'rigi - bu nafaqat bojxona nazorati shakli yoki texnologik operatsiya, balki kelib chiqadigan barcha oqibatlar bilan protsessual harakat hamdir. Qo'l buyumlari, bagaji yoki transport vositasi egasi ko'rik chog'ida ishtirok etishga haqli va har qanday vaziyatda ham bu huquqdan mahrum etilishi mumkin emas. Bojxona nazorati bilan bir paytda pasport va valyuta nazorati ham amalga oshiriladi. Pasport nazorati - davlat chegarasini kesib utuvchilarning shaxsini tasdiqlovchi pasport va boshqa hujjatlarni mamlakatning kirish-chiqish chegara punktlarida tekshiruvni amalga oshiruvchi davlat xizmatidir. Shuningdek ularning kirish va chiqishga ruxsatnomasi (viza) bor - yo'qligini ham tekshiradi. Valyuta nazorati - mamlakatning kirish - chiqish chegara punktlarida milliy valyuta qonunchiligiga muvofiq davlat chegarasini kesib o'tuvchi shaxslar tomonidan chegaradan milliy va xorijiy valyutalarni olib o'tilishi qonuniyligini nazorat qiluvchi davlat xizmatidir. Bir qator mamlakatlarda valyuta olib o'tishning summasi miqdori va uning chegarasi belgilangan. Undan oshgani oldingi safar bojxona deklaratsiyasi yoki valyuta almashtirgan bank vakolati ruxsati bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Yo'l

cheklari va kredit kartochkasi deklaratsiya qilinmaydi. Turistda deklaratsiyada ko'rsatilmagan valyuta borligi hollari aniqlansa, u olib qo'yiladi. Bir qator mamlakatlarda amalda ushbu davlatga kirish uchun zarur miqdorda valyuta minimumi belgilanib qo'yilgan. Turizmida bunday cheklovlarni qo'llash ushbu mamlakat hududiga sayohatlar uyushtirishga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, ayrim davlatlar xorijiy valyutani milliy valyutaga erkin almashtirish imkoniyatini cheklab qo'yishgan, xorijiy turistlar uchun alohida konvertatsiya tartibi belgilangan. Valyuta nazorati va valyuta almashtirish ustidan nazorat nafaqat turistik xarajatlar darajasini shakllantiradi, balki shunday choralar joriy etilgan joylarda turizm hajmining qisqarishiga ham olib keladi. Valyuta rasmiyatchiligi yetarli darajada tez-tez o'zgarib turadi. Shunday ekan, turistik korxonalar xorij safariga jo'nab ketayotgan turistlarni bu haqida xabardor qilishga majbur. Hujjatlarni rasmiylashtirishda turistik korxonalar majburiyatlariga shuningdek turistlarni chegara va bojxona talablaridan xabardor qilish ham kiradi.

Sanitariya (tibbiy) rasmiyatchilik. Sanitariya (tibbiy) rasmiyatchilik - davlat chegarasini kesib o'tayotgan shaxslar va ularning hayvonlarini (agar bo'lsa) vaktsinatsiya - (emlash) haqidagi belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish bilan bog'liq yumushlardir. Bu rasmiyatchilikka rioya etilishi nazorati chegara punktlaridagi sanitariya xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. Nazorat, tekshiruvda odatda mamlakatdan chiquvchi, unga kiruvchi turistlar va sayohatchilarning emlangani haqida xalqaro sertifikatlari bor-yo'qligi ko'zdan kechiriladi. Emlanganlik haqida sertifikat - uning egasini ayrim yuqumli kasalliklar (chuma, xolera-vabo, bezgak, chechak va boshq.)ga qarshi emlanganini tasdiqlovchi guvohnoma. Sertifikat mamlakat rasmiy tibbiy tashkilotlari tomonidan Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining belgilangan shaklida beriladi. U mamlakatga boradigan turistlar uchun juda muhim, chunki turistlarga o'sha hujjat bo'lgandagina borayotgan mamlakatiga kirishga ruxsat beriladi.

Sanitariya (tibbiy) rasmiyatchilikda sayohatchilar va turistlarni zarur hollarda joyida yoki ularni vaqtincha karantin izolyatsiyasida yuqumli kasalliklar tarqatilishi ehtimoliga qarshi emlash koʻzda tutilgan. Turistlar va sayohatchilar olib borayotgan hayvonlar uchun tegishli veterinariya sertifikatlari talab qilinadi. Belgilangan sanitariya (tibbiy) qoidalariga turistik safarlarda rioya etilishi bevosita turistlarning hayoti va salomatligi xavfsizligi bilan bogʻliq. Butunjahon turistik tashkiloti - BTT ning 1995-yil oktabrdagi oʻninchi assambliyasida BTTning oziq-ovqat mahsulotlari ustidan sanitariya nazorati, safarlar xavfsizligi, turistlar salomatligini muhofaza qilishdagi choralarni qoʻllab-quvvatlanishiga erishishi eʼlon qilindi. Oʻz navbatida Butunjahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (BSST) xorijga safar chogʻida emlash toʻgʻrisidagi guvohnomaga talablar ishlab chiqdi. Ushbu talablar turistik tashkilotlar va turistlarning oʻzlari uchun ham Amaliy qoʻllanma boʻlib hisoblanadi. Shuningdek BSST «Epidemiologik yilnoma» va tavsiyalar chiqarmoqda. Ular xavfli, yuqumli kasalliklarning oldini olish, tarqalishiga yoʻl qoʻymaslik(shu jumladan, turizm)ka qaratilgan. BSST bilan ishchi bitimga ega. Unga muvofiq sanitariya (tibbiy) rasmiyatchilik toʻgʻrisidagi joriy axborotlar BTTning Xorijiy turizm – chegara rasmiyatchiligi» yillik nashrida eʼlon qilinadi. BSSTning xalqaro sanitariya (tibbiy) tartib-qoidalari 1951-yildan buyon amal qilib kelinmoqda. Maʼlum sanitariya (tibbiy) tartib-qoidalari mavjud boʻlib, ular sayohat chogʻida xavfli yuqumli kasalliklardan qochish imkonini beradi. Ushbu qoidalar turistik korxonalar tomonidan majburiy tartibda turistik yoʻllanmaga ilova tarzida safardan_oldin mijozlarga maʼlumot shaklida yetkazilishi kerak. Tipovoy (namunaviy) shakldagi turistik yoʻllanmada eslatma bor. Undagi axborotga muvofiq turist sayohat uchun toʻlovdan va uni imzolashidan oldin boradigan mamlakati, unda oʻzini tutish xususiyatlari bilan tanishib chiqishi shart. Turistik rasmiyatchilik xalqaro sayohatlar elementlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu odamlarni oʻz milliy hududidan xorijga chiqishi bilan

bog‘liqdir. Xalqaro turizmdan manfaatdorlik turli davlatlarda turizm sohasidagi turistik rasmiyatchilikning soddalashtirish imkoniyatlari hisobga olingan holda milliy siyosatni ishlab chiqishni taqozo etadi. Chunki haddan tashqari ko‘plab talablar mamlakatga turistlar oqimini kamaytiradi, ular bo‘ladigan mamlakat daromadlariga salbiy ta‘sir o‘tkazadi. Tashrif imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Turistik korxonalar o‘z faoliyatida barcha rasmiyatchiliklarni tashkiliy yo‘l bilan hal etib, mijozlarni o‘z vaqtida xabardor qilishlari va ularni viza bilan, boshqa maslahatlar, tavsiyalar bilan o‘z vaqtida ta‘minlashlari zarur.

Savol va topshiriqlar:

1. Turizmning motivatsion jihatlarini izohlab bering?
2. Turistlar uchun pasport va viza ko‘magi bosqichlarini izohlang?
3. Shengen vizasi. Bojxona va valyuta nazorati.
4. Asosiy turizm faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar?
5. Bojxona rasmiyatchiligi mohiyati nimadan iborat?
6. Turistik rasmiyatchilikni qanday xalqaro hujjatlar belgilaydi?
7. Pasport-viza rasmiyatchiligi mohiyatini ochib bering.
8. Qanday hollarda guruhviy vizani rasmiylashtirish mumkin?
9. Shengen vizasi xususiyatlari nimadan iborat?
10. Pasport-viza rasmiyatchiligiga rioya etishda turistik korxonalar ishlari xususiyatlari nima bilan izohlanadi?
11. Bojxona rasmiyatchiligi xususiyatlarini oching.
12. Bojxona nazoratidan o‘tayotganda turist qanday hujjatlarga ega bo‘lishi kerak?
13. Valyuta nazorati qaysi maqsadlarda amalga oshiriladi?
14. Xalqaro turizmni rivojlantirishda sanitariya (tibbiy) rasmiyatchilikning roli va o‘rnini aniqlang

**1- O‘zbekistonda muzeylashtirilgan obyektlarda turizmning
shakllanishi va rivojlanishi ko‘chma mashg‘ulot:
(4 – soat)**

Bugungi kunda jahondagi rivojlangan mamlakatlarda tarixiy-madaniy meros obyektlarini saqlash va ularni avloddan avlodga beshikast yetkazib berishga safarbar yetilgan muzeylar faoliyatida sayyohlikni shakllantirish va rivojlantirish masalalarini ilmiy tadqiq qilishga tarix va muzeyshunoslik fanlari kesimida dolzarb muammolaridan biri deb qaralmoqda.

O‘zbekistonda madaniy turizm sohasini rivojlantirish, tashrif buyuruvchi turistlar sonini kengaytirish, muzey va tarixiy-madaniy obyektlarda turizmni yanada rivojlantirish borasida turistik destinatsiyalarni turizm sohasining muhim jihatlariga aylantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Shu kungacha muzey destinatsiyasi iqtisodiy jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa, muzeylar doirasidagi destinatsiyasi ye’tibordan biroz chetda qolgan bo‘lib, mazkur masalani o‘rganish, ularni ilmiy tahlil qilish, bu borada to‘plangan bilim va tajribalar asosida turizm sohasidagi muzeylar destinatsiyasini rivojlantirish uchun yangi loyihalar va takliflar kiritish amaliy mashg‘ulotning dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistondagi muzey va tarixiy-madaniy obyektlarning turizm destinatsiyasi faoliyatini o‘rganish va uni yangi loyihalar asosida rivojlantirish masalalari, shuningdek, Buxoro, Samarqand va Toshkent shaharlaridagi muzey va tarixiy-madaniy obyektlarda turizm destinatsiyalarni ishlab chiqish metodlari va ularning amaliyotga joriy yetish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar tadqiqotning tahlil obyekti sifatida ko‘riladi. Yangi destinatsiyalarni yaratishda muzeylarning turlari, joylashish marshrutlarining qulayliklari, turli xil obyektlar, tarixiy maskanlarning yaqinlik va o‘zaro bog‘liqlik darajasi, turpaketdagi turli xil xizmatlarning taklif yetilishi tadqiqotning predmeti sifatida qaraladi. Yangi tadqiqotlarda zamonaviy asoslar yordamida rivojlanayotgan "muzey turizm destinatsiyasi" tushunchalarini nazariy jihatdan o‘rganish va O‘zbekiston muzeylari faoliyatida rivojlantirish, unga yangicha uslubda yondashish va taraqqiyot tamoyillarini tizimli tadqiq yetish maqsadida muzey, tarixiy-madaniy obyektlarda destinatsion loyihalarni ishlab chiqishdan iborat.

- O‘zbekiston muzeylari, tarixiy obidalari tizimida turizm marshrut loyihalarini o‘rganish masalalari va belgilangan destinatsiya asosida sayyohlik marshrutlari faoliyatini yaxlit tizim sifatida ilmiy asoslash;
- O‘zbekistondagi sayyohlik markazlari bo‘yicha tuzilgan loyihalar tavsifi va madaniy turizm destinatsiyasi qamrovini kengaytirish kabi imkoniyatlarni dalillash;

- Buxoro, Samarqand va Toshkent shaharlaridagi tarixiy obyektlar va muzeylari doirasida destinatsion loyihalar ishlab chiqish kabi masalalar vazifa qilib olinadi.
- O‘zbekiston muzeylari misolida tarixiy-madaniy obyektlar va muzeylar destinatsiyalarni maktab darsliklari bilan bog‘liq holda olib borish tadqiq yetildi. Turli ixtisoslikdagi muzeylar va tarixiy-madaniy obyektlarda destinatsiya loyihalarini tashkil yetish masalalari keng yoritib beriladi.